

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2022 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva (o'zbek)

Ziyoda Teshaboyeva (ingliz)

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tajibaeva

TAHRIR HAY'ATI

Zaynobiddin Abdirashidov

Karl Rayxl (Germaniya)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Kamol Abdulla (Ozarbayjon)

Vahit Turk (Turkiya)

Isa Xabibeyli (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Mark Toutant (AQSh)

Boqijon To'xliyev

Qosimjon Sodiqov

Nurbjoy Jabborov

G'aybulla Boboyorov

Vali Savash (Turkiya)

Kimura Satoru (Yaponiya)

Hamidulla Dadaboyev

Aftondil Erkinov

Rashid Zohidov

Baxtiyor Abdushukurov

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Dilnavoz Yusupova

Qo'ldosh Pardayev

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

MUNDARIJA**ADABIYOTSHUNOSLIK****Bairjan Omarov**

"To'tinoma" va uning o'zbek adabiyotidagi variantlari

4

Olimjon Davlatov

Mumtoz adabiyotda rind obrazining badiiy takomili

25

MATNSHUNOSLIK**Rashid Zohidov**

"Sabotul ojizin" sharhlari

42

Bahriddin Umurzoqov

Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning yangi topilgan asarlari

55

Azamat Atayev

O'rta asrlar Xorazm adabiy muhitida Abu Bakr Xorazmiyning o'rni

68

LINGVISTIKA**G'aybulla Boboyorov**

O'zbek shevalarida "Devonu lug'ati-t-turk" dagi so'zlarning saqlanishi to'g'risida

90

Mardon Rahmatov

Shoir taxallusining nutq subyektiga munosabati (Alisher Navoiy g'azallari misolida)

112

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva (Uzbek)

Ziyoda Teshabaeva (English)

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Zaynabiddin Abdirashidov

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibeyli (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Mark Toutant (USA)

Bakijan Tukhliev

Kasimjan Sadikov

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Vali Savash (Turkey)

Onal Kaya (Turkey)

Kimura Satoru (Japan)

Vahit Turk (Turkey)

Seyhan Tanju (Turkey)

Aftandil Erkinov

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bakhtiyar Abdushukurov

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Yusupova Dilnavoz

Kuldosh Pardaev

Elchin Ibrahimov (Azerbaijan)

Nodirbek Jurakuziev

CONTENTS**LITERATURE**

- Baurjan Omarov**
Variants of "Totynama" in Uzbek literature 4

- Olimjon Davlatov**
Artistic Improvement of the image of Rind in
Classical Literature 25

TEXTOLOGY

- Rashid Zohidov**
Review of "Sabotul Ojizin" 42

- Bahriddin Umurzoqov**
New discovered works of Maulana Fakhr
ad-din Ali Safi Kashifi Khiravi 55

- Azamat Ataev**
The place of Abu Bakr Khorezmi in the
literary environment of Khorezm in the
middle ages 68

LINGUISTICS

- Gaybulla Babayarov**
On preservation of words from "Diwan
Luyat at-Turk" in Uzbek dialects 90

- Mardon Rahmatov**
The relationship between the subject of
speech and the image of Navoi 112

**ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE****“To‘tinoma” va uning o‘zbek adabiyotidagi
variantlari**Bairjan Omarov¹**Abstrakt**

Jahon adabiyotidagi mashhur asarlardan biri “To‘tinoma” ko‘p asrlardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Mazkur shoh asarning har bir davrda o‘z mualliflari bo‘lgan.

Jahon so‘z san‘atida e‘tirof etilgan, yuksak badiiy saviyaga ega bo‘lgan Ziyovuddin Naxshabiyning “To‘tinoma” asari keyingi davrlarda paydo bo‘lgan “To‘tinoma”lar uchun poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ko‘plab tillarga tarjima qilinishi bir qancha yangi variantlari yaratildi. Naxshabiyning bu asari Sharq durdonalaridan ilhomlangan shoirlar beshigiga aylangan Markaziy Osiyoda ham keng tarqalgan. O‘zbekiston mintaqa davlatlari orasida “To‘tinoma”ning qadimiy qo‘lyozmalarini asrash, milliy merosdan unumli foydalanish jihatidan alohida o‘rin ega. Qolaversa, o‘zbek adabiyotida Nahshabiy asari asosida yaratilgan va “To‘tinoma” deb nomlangan bir qancha asarlar mavjud. Latifiyning nasriy, Xiromiyning esa nazmda bitilgan “To‘tinoma”lari o‘zbek adabiyotida muayyan qadriyatga ega. Ushbu maqola qardosh o‘zbek adabiyotidagi “To‘tinoma” asarlari haqida ma‘lumotlarni to‘plash hamda ushbu mavzudagi tadqiqotlarni ilmiy tahlil qilish va ular haqidagi xulosaviy fikrlarni taqdim etishni vazifa qilib qo‘yadi. Muallif o‘zbek zaminida bitilgan “To‘tinoma” variantlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning badiiy qimmatini va ahamiyatini haqida o‘z fikrlarini bayon qiladi.

Kalit so‘zlar: *Ziyovuddin Naxshabiy, “To‘tinoma” qo‘lyozmalari, Xiromiy merosi, hikoyat, qush tili.*

¹*Omarov Bairjan Jumaxanulıy* – filologiya fanlari doktori, akademik, L.N.Gumilev nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti professori, Nur-Sultan, Qozog‘iston.

E-pochta: b_om777@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7750-2741

Iqtibos uchun: Omarov, B. J. 2022. “To‘tinoma” va uning o‘zbek adabiyotidagi variantlari”. *Oltin bitiglar* 2: 4–24.

Kirish

Hindiston zaminida paydo bo‘lgan va dunyoning ko‘plab mamlakatlariga tarqalgan “To‘tinoma” qissasi Sharq xalqlarining ezgu merosi sifatida, O‘rta Osiyodagi variantlarida ham o‘z aksini topgan. Ko‘pgina xalqlar ma’naviy xazinasiga aylangan bu asarning qozoq so‘z san‘atidagi ham o‘rni o‘zgacha.

Ziyovuddin Naxshabiyning “To‘tinoma” asarini o‘rgangan tojik olimi Amriyazdon Alimardonov hikoyaning keyingi asarlarga qanday ta‘sir qilganligi haqida so‘z yuritar ekan, XIX asrda o‘zbek diyorida uning ikki variant – nusxasi tarqalgani, ulardan biri nasrda yozilgan Latifiy asari bo‘lsa, ikkinchisi Mulla Qurbon Xiromiyning nazmda bitilgan varianti ekanligini aytib o‘tgan [Алимардонов 1970, 33]. Vaqti-vaqti bilan o‘zgarib borayotgan “To‘tinoma”ning o‘zbek zaminida nazmda va nasrdagi namunalari mavjudligi bu yurtida jahon qadriyatlari yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Bu mavzuni atroflicha o‘rgangan tatar olimi Xatib Minnegulov Xiromiy “To‘tinoma”sining 1854-1885-yillari 12 ming misradan iborat she‘riy varianti, shuningdek, Nahshabiy kitobining boshqa o‘zbek va turk tillaridagi tarjimalari bo‘lganligi haqida xabar beradi [Миннегулов 1993, 266].

Umuman olganda, O‘rta Osiyo adabiyotidagi barcha “To‘tinoma”lar ham to‘laqonli asar sifatida qaralmaydi. Lekin bu xalqlardagi so‘z san‘atiga singib ketgan jahonga mashhur durdona asarning muayyan syujetlari yoki epizodlari asosida turli janrlardagi ko‘plab yangi asarlar yaratilgani haqiqatdir. Binobarin, Latifiy va Xiromiy ijodi mashhur adabiy yodgorlikni o‘zbek zaminida butun mazmunini buzmagani holda o‘ziga xos tarzda ifodalash uchun keng imkoniyat bergani aniq.

“To‘tinoma”ning o‘zbek adabiyotidagi manbalari

“To‘tinoma”ning qadimiy qo‘lyozmalarining saqlanishi va hozirgi kungacha yetib kelishida o‘zbek xalqi katta hissa qo‘shgan. Qadimiy qadriyatlarni e‘zozlash yo‘lida O‘zbekiston boshqa qo‘shni davlatlarga o‘rnak bo‘la oladi, deyish mumkin. Bunga bir necha misollar keltira olamiz. A.Alimardonovning ta‘kidlashicha, Naxshabiy “To‘tinoma”sining 85 nusxasi jahonning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Xususan, sobiq ittifoq respublikalarida 37ta, xorijda 48ta qo‘lyozma fan va madaniyat muassasalari tomonidan himoyaga olingan. Jumladan, 8 ta qo‘lyozma O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida, 3ta nusxasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kutubxonasida

saqlanmoqda [Алимардонов 1970, 14–15]. Umuman olganda, o‘zbek adabiyotshunoslari o‘tmish qadriyatlarini bugungi avlodga yetkazish yo‘lida ulkan ishlarni amalga oshirganiga shubha yo‘q. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan masalalarni atroflicha ko‘rib chiqish va tegishli xulosalar chiqarishda qiyosiy va tarixiy-tipologik usullardan foydalanildi.

Asarning o‘rganilish tarixi

“To‘tinoma”ning o‘zbek eliga tegishliligi haqidagi yana bir ma’lumot Muhammad Olim Labibning afg‘on shoiri Mirzo Niyoziy Balxiy ijodiga bag‘ishlangan ilmiy asarida berilgan. Unda 19-asrda yashagan (taxminan 1807/1808-yili tug‘ilgan, 1875/1876-yili vafot etgan) shoir qoldirgan adabiy meros ichida 38 baytdan iborat “To‘tinoma” deb nomlangan masnaviy borligi yozilgan. Ammo forsiy va o‘zbek tillarida ijod qilgan shoirning bu asari forsiy tildagi qo‘lyozmalari ro‘yxatiga kiritilgan [Лабиб 2018, 16].

Bu asarlar orasida o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Mulla Qurbon Xiromiy qalamiga mansub “To‘tinoma” alohida o‘rin tutadi. O‘zbek adabiyotshunosligida shoir merosi muayyan darajada o‘rganilgan, deyish mumkin. Birinchilar qatorida 1966-yili o‘zbek olimi T.Qorayev “Xiromiy va uning adabiy merosi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, shoir ijodi haqidagi fikrlarini ilmiy muomalaga kiritdi. Dissertatsiyada shoir hayoti va faoliyati atroflicha o‘rganilib, davrning g‘oyaviy talablari nuqtayi nazaridan aniq baho berilgan. Bu orqali shoirning ijodiy merosigina emas, biografik ma’lumotlarga ham aniqlik kiritildi.

Mulla Qurbon Xiromiy XIX asrda Buxoro amirligi hududida yashagan shoirdir. T. Qorayevning yozishicha, Xiromiy taxminan 1803-1804-yillarda Buxoroning Kitob shahrida tug‘ilgan [Капаев 1966, 5]. Mulla Qurbon Xiromiy ham zamondoshlari kabi o‘z davrining ijtimoiy masalalarini she‘rlarida aks ettirdi. O‘z davrining Mujrim Obid, Sobir Sayqaliy, Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy, Mulla Qurbon Joniy, Tolib, Miriy kabi yirik shoirlari singari o‘zbek adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo‘shdi [Капаев 1966, 4]. O‘zbek olimi mazkur tadqiqotida shoir asarlarini mavzu jihatdan tasniflab, badiiy uslublarini har tomonlama tahlil qilishga e’tibor qaratarkan, Xiromiyning Sa’diy va Navoiy kabi ajdodlari qoldirgan adabiy an’analarni davom ettirgan shoir ekanini e’tirof etadi. Olimning ta’kidlashicha, shoirning “Bo‘ston” va “Guliston” dostonlarida Sa’diy g‘oyalari o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, “Farhod va Shirin”, “Sab’ai sayyor” dostonlarida Navoiy namunalari ko‘rinib turadi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan Xiromiy an’anaviy sharq she’riyati maktabidan yetarlicha saboq olgan shoir, deya xulosa chiqarishimiz mumkin.

Yana bir manbada Xiromiyning ‘Ra’no va Zebo” nomli asarining yaratilishiga sabab bo‘lgan Mirzo Barxurdor Farohiyning (1710-yili vaf.et.) “Mahbub ul-qulub” nomli asari haqida so‘z boradi. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan bu didaktik asarning bir bo‘lagi “Ra’no va Zebo” nomi bilan nasrda bitilgan mustaqil syujetli asar bo‘lgani haqida ma’lumot beriladi. Bu asar XVIII–XIX asrlarda tojik va o‘zbek adabiyotlarida Maseho Boysuniy va Ochildimurod Miriy Kattaqo‘rg‘oniyning (1884-y.) “Ra’no va Zebo” dostonlari yozilishiga sabab bo‘lgan. Barxurdorning bu asari 1856-yili o‘zbek tilida Mulla Qurbon Xiromiy va Muhammad Rasul Mirzo Xorazmiyning shu mavzudagi she’riy to‘plamlarining yozilishiga sabab bo‘ldi.

Mirzo Barxurdor Farohiy jahon adabiyoti tarixiga Barxurdor Turkman nomi bilan, forsiy tilda ijod qilgan turkman shoiri sifatida kiritilgan. Tadqiqotchilar shoirning nasabini Xuroson turkmanlari bilan bog‘laydilar va uning nasrda yozilgan yirik asari – “Mahbub ul-qulub”ning muqaddima, besh bob va xulosadan tashkil topganligini yozishgan. Shuningdek, asar insonparvarlik g‘oyalariga asoslanganligi, uslubiy jihatdan Sharqning klassik asarlari “Kalila va Dimna”, “To‘tinoma” ertaklarini esga solishi xaqida xulosalar beriladi [Брагинский 1987, 415].

Tojik olimi Malik Adashev Barhurdor Farohiy “Ra’no va Zebo” asarining tojik va o‘zbek adabiyotidagi epik poeziya janri rivojiga qo‘shgan hissasi va syujetlarning transformatsiyalashuviga oid masalalarga oydinlik kiritadi. Shuningdek, bu kabi asarlarni yaratgan shoir va boshqa ijodkorlarning badiiy uslubiga baho beradi [Адашев 1990, 3].

Umuman olganda, bu tadqiqot Mirzo Barxurdor Farohiyning “Ra’no va Zebo” qissasi hamda Xiromiy Shahrizabziyning (Mulla Qurbon Xiromiy) “Ra’no va Zebo” dostonlarini qiyosiy tahlil qilishga e’tibor qaratgan, deyish mumkin [Адашев 1990, 20-23].

Shunday qilib, “To‘tinoma” hamda “Ra’no va Zebo”ni o‘z davri ijodiy talablariga moslab, ularga yangicha tus bergan Xiromiy o‘zidan keyin o‘lmas asarlar qoldirdi... [Капаев 1966, 8].

Adabiyotshunos T.Qorayev Xiromiyning adabiy merosiga-gina emas, balki shoirning ko‘pchilikka noma’lum bo‘lgan insoniy xislatlariga ham ko‘p e’tibor qaratganini aytish mumkin. Masalan, shoirning nevarasi Tursunqul Yuldashev va Anbar Otinning aytishicha, ijodkorning yaqinlari teriga ishlov berish bilan

shug'ullanishgan. Ana shunday insonlar orasidan chiqqan Mulla Qurbonga shoirlik otasidan o'tgan deyishadi. U o'ziga Xiromiy taxallusini tanlagan [Kapaev 1966, 5].

Xiromiyning avval Kitob shahrida, keyin Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgani haqidagi ma'lumotlar manbalarda uchraydi [Kapaev 1966, 5]. Butun Sharqqa dong'i ketgan shoirlardan qolgan adabiy meros Xiromiy asarlarining yo'lchi yulduzi bo'ldi. U yoshligidanoq sharq adiblarining ijodiga chuqur singib ketgan she'rlar tuzilishini teran o'rgangan. Shoir Firdavsiy, Sa'diy, Ziyovud-din Naxshabiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Zebuniso singari shoirlar ta'sirida shakllandi. Shuningdek, o'z davrining Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Xoziq kabi shoirlari bilan ijodiy aloqalarda bo'ldi. Alohida ta'kidlash joizki, bu aloqalar shoirning ijodiy tabiatiga ta'sir ko'rsatmay qo'ymadi [Kapaev 1966, 5].

Shoirlar orasida Shavqiy Kattaqo'rg'oniyini (1785–1861) alohida ta'kidlash joiz. Ikki shoirning kundalik hayoti va ijodida ko'targan mavzulari ham bir-biridan uzoq emas edi. Ayniqsa, ular orasidagi do'stona munosabatlar ijodida yaqqol ko'rinadi.

Shavqiy muxammaslarining birida ikki shoir o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqida shunday yozadi:

...Muztar asiri nash'avu Vola xarobi g'am...

Shavqiyni suxbatig'a yetolmas Xiromiy ham,

Ul andog' o'ldiyu, bul bunda bul dudog' [Kapaev 1966, 5-6].

She'rning bu parchasi o'sha davr shoirlarining she'rga ixlos qo'ygani uni hayot qayg'ulari bilan bog'laganini, g'am-anduhlarga to'la ko'ngillariga shu orqali tasalli berganini anglatrsa, ajab emas. Kitoblik yana bir shoir Salohiddin Maxsum Salohiyning yozishicha, Xiromiy umrining oxirigacha kattaqo'rg'onlik shoirlar bilan yaqin aloqada bo'lgan [Kapaev 1966, 6].

Xiromiyning badiiy mahorati

Mulla Qurbon Xiromiyning bizgacha yetib kelgan boy adabiy merosi ham epik, ham kichik hajmdagi she'rlardan iborat. Shoirning "Chor darvesh" (1834), "To'tinoma" (1854), "Ra'no va Zebo" (1856), "Yusuf va Zulayxo" dostonlari hamda 175 baytdan iborat muxammaslari bor. Umuman olganda, Xiromiy merosi 30 000 misradan iborat [Kapaev 1966, 8]. Ushbu asarlarning har birida ko'plab g'oyalar, badiiy naqshlar, individual tafsilotlarni topish mumkin. Bunday asarlar qatorida, shubhasiz, "To'tinoma" asarini aytish mumkin.

Xiromiy ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda "To'tinoma"

qo‘lyozmalarining tavsifi va saqlanishi haqida ma‘lumotlar hamda batafsil xulosa berilgan. Masalan, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida №1795 raqami bilan belgilangan “To‘tinoma”ning qo‘lyozma nusxasi mavjud. Bu qo‘lyozma 1270-1271 (milodiy 1854–1855) yillari yozilgan va 1272 (1856) yili nasta‘liq yozuvi bilan Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning hajmi – 199 bet, she‘rlar soni – 6000ta. Shuningdek, Kitob va Shahrisabz shaharlarida “To‘tinoma”ning ikkita qo‘lyozmasi borligi ma‘lum. Mulla Qurbon Xiromiy “To‘tinoma” asarining yozilishida o‘zbek zaminida keng tarqalgan ushbu qo‘lyozma nusxalar asos bo‘lgan deyish mumkin. Garchi Xiromiy Ziyovuddin Naxshabiyning “To‘tinoma”siga asosiy e‘tiborni qaratgan bo‘lsa-da, unga boshqa nusxalar ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan.

Xiromiyning hind hikoyalardan hikoya ichida mustaqil asar yaratishi, ehtimol, “To‘tinoma” bilan chegaralanib qolmasa kerak. Chunki bunga bog‘liq bir necha asarlar mavjud. Bu borada T. Qorayev kelib chiqishi no‘malum “To‘rt darvesh” (Chor darvesh) dostonining asl vatani Hindiston ekanligini ta‘kidlaydi [Kapaev 1966, 11]. Dastlab, hoshiyali hikoya tarzida bo‘lgan asar Xiromiyning shu nomdagi asari o‘zagini tashkil etgan. Demak, Sharqda keng tarqalgan hikoyatlar shoir ijodining yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratgan.

“To‘tinoma”ning kelib chiqishi hind adabiyotining qadimiy xazinasini sanalgan sanskrit tilida yozilgan “Shukasaptati” (“To‘tining yetmishta hikoyasi”) asariga borib taqaladi. Asli o‘zbek zaminida tug‘ilgan, hind va fors adabiyotlarida katta shuhrat topgan Ziyovuddin Naxshabiy 1330-yili “To‘tinoma”ni forsiy tilda yozgani ma‘lum. Asarni qozoq tiliga tarjima qilgan olim A.Qo‘niratboyev shunday yozadi: “To‘tinoma” asari Sharqda ayollarning hiylanayrangini va shu bilan birga ojjizaligini oshkor etgan eng mashhur badiiy asarlardan biridir. Undagi hikoyalarni shunchaki misol emas, balki satira va chuqur ma‘noga to‘la deyish mumkin. Bu adabiy meros hali ham qimmatli, badiiy va jozibali. Qozoqlar bu asarni “To‘tiqushning to‘qson bobi” deb atashadi [Qo‘niratboyev 2004, 379-bet]. Bu asarning XVIII asrda shoir Muhammad Qodiriy, XIX asrda Haydar Baxsh Haydariy qalamiga mansub yirik nusxalari ham bor. Tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, “To‘tinoma” XIX asrlardan boshlab o‘zbek shoirlarining diqqatini tortgan.

Ana shunday shoirlardan biri – Mulla Qurbon Xiromiy Naxshabiy nusxasi asosida “To‘tinoma”ni yozgan. U Naxshabiyning o‘z asarining andozaga solingan nusxasi bilan ishlash tajribasidan

ham foydalangan. Naxshabiy asarni barcha hind adabiy yodgorliklari syujetlari orqali boyitgan bo'lsa, Xiromiy o'zbek adabiyotining xazinasida ko'pdan ma'lum bo'lgan durdonalardan butunlay yangi doston yaratdi. Shoirning qobiliyati, iste'dodi, bilimi tufayli dunyoga kelgan 12 ming misradan iborat "To'tinoma" o'zbek xalqining ma'naviy boyligiga aylandi [Kapaev 1966, 14-15].

Xiromiy "To'tinoma"sida ham boshqa shu nomdagi asarlar kabi uch bosh qahramon (Maymun, Xo'jast va To'tiqush) sarguzashtlaridan tashkil topgan. Qolgan qahramonlar asosiy qahramon – To'tiqush orqali ifodalanadi.

Maymun hikoyaning boshida sayohatga chiqib, faqat oxirida qaytib kelsa-da, u hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki asarning asosiy belgilari maymunning yo'lga o'tlanishi bilan murakkablashadi. Asar ichidagi hikoyalarning barchasida "Maymun" umuminsoniy qadriyatlarni va turli xil xatti-harakatlarga qozilik vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Naxshabiy davridan davom etib kelayotgan asar nusxalariga (variantlarga) jiddiy o'zgarishlar kiritilmagan bo'lsa-da, Xiromiy nusxasi nazm, she'riy kuch va badiiy uslub jihatidan Naxshabiy ijodidan jiddiy farq qiladi. O'zbek tilidagi "To'tinoma" asarlarida ham ilg'or asarlarda keng ifodalangan umuminsoniy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, tarbiya va axloq, bag'rikenglik va hayo, adolat va insof, e'tiqod va rostgo'ylik kabi didaktik masalalar o'rin olgan [Kapaev 1966, 15].

Xiromiyning "To'tinoma"sida ham mardlik va e'tiqod, muhabbat va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar tanqid qilinadi. Asardagi qisqa hikoyalar fikrni kognitiv jihatdan mustahkamlash uchun ishlatiladi. O'zbek shoiri o'z dostoni orqali milliy tarbiya va ma'rifatning serqirra masalalaridan xabardor etadi. Tadqiqotchi T. Qorayevning ta'kidlashicha, "Hikoya syujeti, dunyoqarashi, xulq-atvori bilan farq qiluvchi uch qahramonning taqdiri va xarakterini ochib berishga qaratilgan [Kapaev 1966, 15].

Xiromiy uch bosh qahramonni Naxshabiydan olgan bo'lsa-da, ularning insoniy tabiatiga yangicha mazmun bag'ishlaydi, hikoya davomida turli qarorlar qabul qiladi. Masalan, Naxshabiy nusxasida maymunning xarakterini asar boshida va oxiridagi xatti-harakatlari belgilaydi. Bozordan to'tiqush sotib olib, o'ziga hamroh bo'lib olib kelgani, butun uyni, jonini qushlarga ishonib topshirgani uning bag'rikengligidan darak bersa, olis safardan qaytganida shaytonning nayrangiga uchmay, o'z iffatini saqlab qola olgan ayolini insofsizlarcha o'ldirishi uning haddan ziyod qattiqqo'l ekanligidan darak beradi. "To'ti va Xujasta"ning ellik ikki kun davom etuvchi

qissasi ham maymunning o‘ziga xos fazilatlarini ochib beradi. Xiromiy “To‘tinoma”sidagi maymun esa ijobiy obraz bo‘lib, asar yakunida u salbiy obrazga aylanib, unda shafqatsizlik va to‘ymaslik yaqqol ko‘zga tashlanadi [Kapaev 1966, 15].

Naxshabiy asaridagi Xujasta qalbi ikkiga bo‘lingan obrazdir. U sevgilisi uchun ehtiros va ayollik olami bilan qiziq suhbatdosh. Ular bir-birining maftunkor ertaklarini tinglab, ajib hikoyalarga bo‘lgan ishtiyoqi bilan tong otayotganini sezmay ham qoladi. U erining yo‘qligidan foydalanib, haromga botgan begona yigitga turmushga chiqmoqchi bo‘lsa-da, sharqona ayol tabiatidan qochib qutula olmaydi. Xiromiy tasvirlagan Xujastada o‘z davri ayollariga xos harakatsizlik va qo‘rqoqlik belgilari namoyon bo‘ladi. Ishqdan boshi aylangan qahramonning bosiqligiga, chidamliligiga ko‘proq e‘tibor berganga o‘xshaydi. Ammo, Xujasta o‘zining fidoyiligi, tinimsiz kurash va shirin orzular qarshisidagi matonati orqali “To‘tinoma”ning mohiyatini ochib beradi [Kapaev 1966, 15].

Xiromiy “To‘tinoma”sida ham to‘tiqush asarning asosiy ustuni. U uyda qolgan kelinchak va olis safarga otlangan erini ipsiz bog‘lab turgan obraz. Qush obrazini tahlil qilgan T.Qorayev ta‘biri bilan aytganda, “kengaytirilgan hikoyaning eng faol obrazi bo‘lgan to‘tiqush uni go‘zal hikoya bilan bezatadi. Bu bosh qahramonlar taqdirida katta rol o‘ynaydi. Hikoyada Xiromiy o‘z fikrlarini va yaxshilikka intilishlarini ifoda etgan” [Kapaev 1966, 15-16].

Tadqiqotchi o‘z ilmiy ishida Xiromiy ijodiga tanqidiy nazar bilan qaraydi. Uning muallifligi, yozuv uslubi, tarixiy bilimi, dunyoqarashiga har tomonlama baho beradi. U o‘z xulosalarida Xiromiy asarlarini qiyoslab, ularni qarama-qarshi qo‘yish orqali baholaydi. Unda shoirning har bir asarida qanday adabiy yondashuvdan foydalanishi, bu usullar asar tabiatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishiga e‘tibor qaratiladi. Shuning uchun ham uning hikoya va qissalarida mingdan ortiq personajlar muayyan maqsadga muvofiq tasvirlangan [Kapaev 1966, 16].

O‘zbek tadqiqotchisi Xiromiyning “To‘tinoma” va “To‘rt darvesh” dostonlarini ham o‘ziga xos xususiyatlari, o‘xshash va farqli tomonlariga asoslanib tahlil qildi. Masalan, u “To‘tinoma”ning tuzilishi “To‘rt darvesh”dan murakkab emasligini ta‘kidlaydi, bu esa hikoyadagi qahramonlarning cheklangan ishtiroki bilan izohlanadi. Darhaqiqat, qaysi variantni olsak ham, Xujasta, to‘tiqush va maymun obrazlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lekin Xujasta hikoyaning barcha qismlarida qatnashsa-da, unchalik faol emas. Binobarin, agar o‘rnatilgan kompozitsion yondashuv imkoniyatlaridan

foydalanilmasa, barcha hikoyalarni bir muhitda jamlash va ulardan umumiy maqsadga erishish uchun foydalanish qiyin bo'ladi [Kapaev 1966, 19-20].

Xiromiy va uning "To'tinoma"si haqidagi ilmiy ishda hikoyaning tuzilishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, janr xarakteri va nazira usulidan foydalanilishi haqida xulosalar keltirilgan. Qolaversa, nafaqat muallifning uslubi va yozish mahorati, balki uning shaxsiyati haqida ham ko'plab ma'lumotlar mavjud. Ushbu ma'lumotlarning o'zi asarning tabiatidan kelib chiqadi. Buni o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatiga aylangan "To'tinoma"ning dunyoga kelishiga Xiromiy tafakkuri va bilimi, qobiliyati qay darajada ta'sir qilgani bilan tushunish mumkin [Kapaev 1966, 21-22].

Xiromiy fors va arab tillarini, munajjimlik ilmini, dunyoning yaralish sirlarini, dialektikani, ritm va uyg'unlik ta'limotlarini, geografiya va tarixni yaxshi bilgan. Binobarin, u davr ijodkori sifatida oldiga qo'yilgan murakkab vazifalarni bemalol hal eta oldi [Kapaev 1966, 21-22] degan fikrni "To'tinoma" qiymatini oshiruvchi va uning badiiy sifatiga ta'sir etuvchi muhim ma'lumot sifatida qarash kerak.

"To'tinoma" kecha va kunduzi bo'ladigan turli sarguzashtlarni inson qalbi orqali tasvirlaydigan asardir. Kun qoraygach, qalbini shayton egallagan Xujasta tun bo'yi hikoyachining qiziqarli hikoyalarini tinglab, tong yorisha boshlaganda uyquga ketadi. Tong otishi bilan porlab chiqqan quyosh kuni bo'yi yer yuziga nurini sochib hukmronlik qiladi. Hamma variantlarda ham o'z aksini topmaydigan bu vaqt tungi yurishga tayyorgarlik ko'rish Xujastani ozod qilish vaqti hisoblanadi.

Lekin Xiromiy "To'tinoma"sida tunning qora zulmatini chetga surib, atrofga nur socha boshlagan quyosh obrazi tasvirlangan:

*Quyosh Iskandari chu chekdi inon,
Shom mag'rib tomong'a etdi makon.
Oy jamoli chu lam'a etdi zuhur,
Yoyildi mashriqda pardai kofur* [Kapaev 1966, 22].

Boshqa versiyalar kabi Xiromiyning "To'tinoma"sining har bir bobi takrorlanuvchi bayt bilan tugaydi. Bu hikoya mahbubasi huzuriga borishga hozirlik ko'rayotgan, biroq tong otishi bilan yo'li to'silib uyidan chiqa olmay qolgan Xujastaning va uning holini she'riy yo'l bilan ifoda etgan muallifning kayfiyati haqida. Bu Ziyovuddin Naxshabiyning asaridan davom etib kelayotgan an'anadir. Muallif qahramonning barcha tuyg'ularini ichki dunyosi, qalbi orqali idrok etadi. Ya'ni to'tiqushdek to'q, Xujasta kabi g'amgin, maymun kabi tashvishga tushadi, shoir bo'lib tebranadi. Bu bir misrali she'r

Naxshabiy ijodining ellik ikki kecha davom etgan barcha hikoyalarini umumlashtirish uchun yetarlidir. Naxshabiydan keyin ham bu qolipdan turlicha foydalaniladi. Ba’zi hikoyatlarda bir gapda, ba’zi hikoyatlarda esa ikki shaklda umumlashtiriladi. Bir qator boblar oxirida esa she’r satri ko’rsatilmagan. Xiromiy ham Naxshabiy an’anasini davom ettirib, har bir fasl oxirida bir baytni takrorlab ketgan.

Naxshabiyning “To‘tinoma” asarini fors tilidan rus tiliga tarjima qilgan Y.E.Bertels bu iborani quyidagicha ifodalagan:

*Нахшаби сегодня ночью собирался
Повидаться с другом нежным и прекрасным,
Только утро помешало это сделать:
Всем влюбленным утра вестник – враг ужасный*
[Нахшаби 1979, 30].

Bu misralarni “To‘tinoma”ning qozoq tiliga tarjimoni Avelbek Qo’ng’irotboyev asl nusxadan uzoqlashmay, she’riy shukuhini pasaytirmagan holda shunday beradi:

*Нахшаби түні бойы киініпті,
Көрем деп сұлу жарды сүйініпті.
Атқан таң ғашықтардың дұшпаны екен,
Бара алмай бүгін тағы күйініпті* [Нахшаби 1991, 28].

Mulla Qurbon Xiromiy Naxshabiy asarining tarjimoni emas, balki “To‘tinoma” asarining muallifi, u she’rni to‘qishda hammaga ma’lum an’anadan voz kechmaydi:

*Chun Xiromiy dedi boray bu kecha,
Qilg’ali do’st xilvatig’a julus.
Subh bo’ldi borurg’a mone’ anga,
Dushman ermish bu elga subhi xurus* [Караев 1966, 22].

Bu baytlardagi xulosalarni o’sha davrning g’oyaviy talablari asosida talqin qilishga urinishlar ham seziladi. Masalan, yuqoridagi tadqiqotda “Shoir quyosh botgandan keyin oy chiqadi, deydi. Jamiyatning bu voqeligi Xiromiy nuqtayi nazari orqali real ijtimoiy ahamiyatga ega bo’ladi. Xiromiy allegorizmi muayyan mazmun, shoirning ilg’or g’oyalari bilan ajralib turadi. U o’zining ilg’or qarashlarini ko’plab ijobiy obrazlar orqali ifodalagan” [Караев 1966, 22].

Xiromiy “To‘tinoma”si bir qancha vazifalarni o’z ichiga oladi: Bu, *avvalo*, qadimgi Hind zaminida paydo bo’lgan, dunyo bo’ylab sayohat qilgan mashhur asarning o‘zbek zaminida keng yoyilganiga

yorqin misoldir. *Ikkinchidan*, mumtoz adabiyotga hissa qoʻshgan yana bir dostonni hayotga tatbiq etish va uni jonajon yurtining maʼnaviy xazinalariga qoʻshishning yorqin namunasidir. *Uchinchidan*, qadimiy qadriyatlarga asoslangan yangi asarni xalq manfaati yoʻlida adabiy merosga aylantirgan shoirning sheʼriy mahorati samarasidir. *Toʻrtinchidan*, bu asar Sharqda keng tarqalgan nazira anʼanasining eng yaxshi namunalaridan biri hamdir. *Beshinchidan*, oʻzbek madaniy merosiga kirgan qoʻshni davlat maʼnaviyatini yuksaltirishga salmoqli hissa qoʻshayotgan adabiy yodgorlikdir. Shuning uchun ham Xiromiy “Alisher Navoiy davrida boshlangan oʻzbek tili rivoji uchun kurashni davom ettirib, buni oʻzining “Chor darvesh”, “Toʻtinoma”, “Raʼno va Zebo”, “Yusuf va Zulayxo” dostonlari orqali isbotladi va oʻzbek tilining boyligi va imkoniyatlarini koʻrsatib berdi” [Капаев 1966, 22].

Xiromiyning “Toʻtinoma”siga asos boʻlgan asar muallifi Ziyovuddin Naxshabiy hozirgi Oʻzbekistonning Qarshi (sobiq Naxshab) shahrida tugʻilgan [Бертельс 1979, 5]. Umrini Hindistonda oʻtkazgan Naxshabiy kabi shoirlar koʻp. Ular orasida ajdodlari Qarshi shahrida yashagan Abulqosim Amir Xusrav Dehlaviyning oʻziga xos oʻrni bor. Gʻazal mulking sultoni Alisher Navoiy Xusrav Dehlaviyni “hind sehrgari” deb maqtab, uning bir qancha sheʼrlarini nazira uslubida qayta yaratgan [Муродов 2015, 4]. Jahon adabiyotida taniqli shoirlardan biri Javoharlal Neru oʻzining “Hindiston kashfiyoti” kitobida sanskrit tilining mohir ustasi, hind adabiyoti va musiqasiga katta hissa qoʻshgan Amir Xusrav Dehlaviyning betakror ijodiy merosiga yuksak baho bergan.

Ota-bobolari Oʻzbekistonda yashab oʻtgan Mirzo Abdulqodir Bedil, Mirzo Asadulla Gʻolib kabi shoirlar uchun ham ikki yurt birdek qadrdondir. Abdulmaʼoniy nomi bilan mashhur Mirzo Bedil 130 ming misradan ortiq sheʼr va 50dan ortiq nasriy asarlar yaratib, keyingi avlodga boy meros qoldirgan, adabiyotga salmoqli hissa qoʻshgan shoir sifatida tanilgan. Samarqandlik buyuk alloma Mirza Gʻolib hind sheʼriyatining mumtoz naʼmunalari rivojiga, urdu adabiy tilining oʻziga xos xususiyatlarini dunyoga ochib berishga katta hissa qoʻshgan faylasuf shoir sifatida mashhur [Муродов 2015, 5].

Naxshabiy asari asosida yozilgan yana bir mumtoz asar Muhammad Qodiriyning “Toʻtinoma” asaridir. Uning Said Haydar Baxsh Haydariy tomonidan qayta yozilgan varianti dunyoning koʻplab mamlakatlariga yoyilgan. Haydariy varianti 1801-yili yozilib, 1803-yili “Tota kahani” (“Toʻtining qissalari”) nomi bilan urdu tilida

Kalkutta shahrida qayta nashr ettirilgan [Клягина-Кондратьева 1933, 20].

Bu asarning mashhurligiga yuksak badiiy urdu tilining ta’siri haqida bir qancha xulosalar chiqarilgan. O‘zbek olimlarining ta’kidlashicha, 1875-yilda “To‘ti qissalari” urdu tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan va kitob mualliflari Ziyovuddin Naxshabiy va Sayyid Haydar Baxsh Haydariydir. Shundan buyon Naxshabiy va Haydariy hammuallifligida ushbu nusxani nashr etish an’anasi mavjud [Муродов 2015, 10]. Lekin 1933-yili Moskva va Leningradda nashrga tayyorlangan asar nusxasida faqat Sayyid Haydar Baxsh Haydariy ismi muallif sifatida ko‘rsatilgan. Bu nusxa bugungacha tadqiqotchilar tomonidan foydalanib kelinmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillari nashr etilgan “To‘tining qissalari” asari 1921-yili Lakhnau shahrida chop etilgan urdu tilidagi nusxasi asosida yaratilgan. Urdu tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan bu nusxa qardosh o‘zbek xalqining ma’naviy hazinasiga aylangan (Tarjimon: Hoshimjon Murodov, she’rlarini tarjima qilgan va muharrir Muhiddin Omon). Sharqdagi eng qadimiy adabiy yodgorlik hisoblangan “To‘tinoma” kitobi fransuz, nemis, turk, afg‘on, rus va o‘zbek tillarida bir necha bor nashr etilgan.

Asar 1933-yili urdu tilidan rus tiliga tarjima qilingan. 1962-yili ruscha tarjimasi orqali R.Obidxo‘jayev, R. Komilov va T.Jalolov tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan [Муродов 2015, 11] degan ma’lumot o‘zbek xalqining “To‘tinoma” asari bilan bundan ancha ilgari tanish bo‘lganidan darak beradi. O‘zbek adabiyotshunosligida “To‘tinoma” va Payvandiy Rizoiyning “Qush tili” [Хасанова 2016] asarlari o‘rtasidagi tafovutlarning o‘rganilishi Sharq merosiga alohida e’tiborni ko‘rsatadi. Qushlar tilidan aytilgan hikoyatlarning tipologik izchilligiga e’tibor qaratgan, masalaga boshqa rakursdan yondashgan olimning pozitsiyasi tahsinga loyiq.

Adabiyotshunos Sh.Hasanova o‘zining ilmiy tadqiqot ishida “Keyingi asrlarda “To‘tinoma”ning bir necha nusxalari paydo bo‘ldi. Biroq bularning hech qaysisi ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Latifiy, Asiriy, Mirzabobo va Xiromiyning “To‘tinoma”si shular jumlasidandir. T.Qorayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobidagi maqolasidan tashqari Xiromiy asari umuman o‘rganilmagan. Shu kungacha bu asarlar matni nashr etilmagan. Latifiy, Asiriy, Mirzaboboning “To‘tinoma”lari ham o‘rganilmagan [Хасанова 2016, 27], – deb xulosa qiladi. Albatta, bu olimning shaxsiy fikr-mulohazasi, lekin Mulla Qurbon Xiromiy merosiga bag‘ishlangan maxsus ilmiy asar yozib, uning “To‘tinoma” dostonini atroflicha

tahlil qilgan T.Qorayevning tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligida alohida o'rin tutishini ta'kidlashimiz lozim.

Sh. Hasanovaning ilmiy tadqiqotlari natijalari ham o'z o'rnida samaralidir. Olima O'zbekiston fondlarida saqlanayotgan "Qush tili", "To'tinoma" qo'lyozmalarining batafsil ilmiy tavsifini ishlab chiqqan. Tadqiqotchi "To'tinoma" qissasiga kirgan hikoyatlardan "Qush tili" mavzusidagi asarlarda keng foydalanilganini aytadi. Masalan, Rizoiy Payvandiy asarida savdogar va uning to'tisi xaqida hikoya borligini ta'kidlaydi. Sh. Hasanova bu syujet sanskrit tilidagi "Shukasaptati" ("To'tining yetmish hikoyasi")dan kelib chiqqanligini qayd etib, Rizoiy Payvandiy uni Ziyovuddin Naxshabiyning "To'tinoma"sidan olgan, degan xulosaga keladi.

Ko'rinib turibdiki, qadimda bir asardan ikkinchisiga o'tib yangi mualliflik nusxasini yaratish, qayta ishlash va rivojlantirish keng miqyosdagi jarayonga aylanib, bir-biridan u qadar farq qilmaydigan ko'plab asarlar bitilgan. Voqealar rivoji, obrazlar tizimi bir xil bo'lsa-da, avvalgilardan ancha mashhur bo'lgan asarlar ko'p uchraydi. Asarni tahrir qilgan ijodkorning mahoratiga ko'p narsa bog'liq ekanligi, shubhasiz. Haqiqiy usta asarning asl g'oyasini ilhomlantiradi va unga aniq maqsad qo'yadi. Shu bois, tadqiqotchi Naxshabiyning "To'tinoma"si, Payvandiyning "Qush tili" kitoblarini atroflicha tahlil qilgan.

Sh.Hasanova ushbu tadqiqotida Xiromiyning "To'tinoma"-larini tipologik va tekstologik nuqtai nazardan ko'rib chiqqan va bir qancha natijalarga erishgan. Xiromiyning "To'tinoma"si va uning oldingi variantlaridagi syujetlar, obrazlar tizimi va farqlarni qiyosiy tahlil qilgan. Naxshabiy "To'tinoma"da 52 kechadan iborat 52 qissa, Xiromiy asarida ham 52 kechadan iborat 52 qissa, Haydariy variantida esa 37 kechadan iborat 37 qissa borligini aytgan.

Umuman olganda, Xiromiy Ziyovuddin Naxshabiy ijodining strukturasi o'zgartirmagan, faqatgina badiiy uslublar orqali o'z ijodini alohida ajratib ko'rsatgan. Buni asl nusxaga va uning muallifiga nisbatan hurmat sifatida qarash kerak deb bilamiz.

Xiromiy "To'tinoma"sining bugungi adabiyotdagi, qolaversa, xalq merosidan foydalanishdagi o'rnini aniqlash muhim masalalardan biridir. Bu borada mintaqamiz olimlari tomonidan ham muayyan ishlar amalga oshirilgan. Akademik S.Qasqabasovning "Qadimga hind syujetlari Qozog'istonda qayta tiklanib, tashqi xarakter va ichki ma'no jihatidan jiddiy o'zgarishlarga uchraydi" [Қасқабасов 2022, 210] degan fikrini e'tiborga olsak, bu qadriyatlarining o'zbek adabiyotida ham muhimligini ko'ramiz. Turkiy tilli mamlakatlar

adabiyotshunoslari bu merosdan foydalanish bo‘yicha o‘z g‘oyalarni o‘rtaga tashlaydilar va o‘zlarining tadqiqot usullarini taklif qiladilar. Ular orasida bu borada katta tajribaga ega tojik va o‘zbekistonlik olimlar ham bor. Qadimiy osori-atiqalarning tahliliy tadqiqotlari davlatlarimiz ma‘naviyatining boy tarixi va zamonaviy adabiyotshunoslik rivojiga xizmat qilayotganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Binobarin, adabiyot tarixida Xiromiy “To‘tinoma”sining paydo bo‘lishi Naxshabiy asos solgan va forsiy adabiyotda keng tarqalgan ko‘p asrlik o‘xshash asarlar yozishning boy tajribasi bilan bog‘liqdir. Ayni paytda, bu mavzu turkiy adabiyotda an‘anaviylikning yorqin namunasi hamdir. Binobarin, Xiromiyning “To‘tinoma” dostoni o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda va bu mavzuning keyingi davrlardagi davomiyligini ta‘minlashda muhim omildir [Хасанова 2016, 36], – degan xulosaga qo‘shilamiz.

Sh. Hasanovaning tadqiqotidan Toshkent Davlat Adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan Rizoiiy Payvandiyning “Qush tili” (№127), Mirzo bobo (№78), Ziyovuddin Naxshabiy (№57, №188) “To‘tinoma”lari, shuningdek, O‘zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan Naxshabiy (№1461), Latifiy (№3229, №5699), Asiriy (inv.№2530), Xiromiy (№1795), “To‘tinoma”lari va muallifi noma‘lum (№1867, №4939) “To‘tinoma” qo‘lyozmalari haqida batafsil ma‘lumot oldik [Хасанова 2016, 29].

Tadqiqotimiz borasida “To‘tinoma” va “Qush tili” deb nomlangan o‘n bir qo‘lyozma aniqlanib, ularning batafsil ilmiy tavsifi berilgan. E‘tiborlisi shundaki, nusxalar ichida badiiy jihatdan mukammali – Xiromiyning “To‘tinoma” asaridir [Хасанова 2016, 30].

“To‘tinoma”larda muallif uslubi

“To‘tinoma”lar mualliflarining pozitsiyasi va ijodiy faoliyatida bir-biriga yaqinlik mavjud. Ularning barchasi o‘z adabiyotidagi barcha ma‘naviy qadriyatlar xos xususiyatlarni asarda birlashtirgandek, ya‘ni ularni butun bir tizimga solib, muayyan g‘oyaga bo‘ysundirdi. Asarlarda har bir muallifga xos umumiy maqsad borligini yaqqol ko‘rish mumkin.

Birinchidan, ular xalqning ko‘p asrlik adabiy merosidan keng foydalandilar. Shu tariqa xalqlar tarixi bilan bog‘liq shajaralarning hayotiyliigi ko‘rsatildi.

Ikkinchidan, milliy tilning imkoniyatlarini to‘liq ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ydilar. Shu orqali bu asarlar badiiy adabiyot yodgorligiga aylandi.

Uchinchidan, bu asarlar o'lkaniing go'zal axloqiy-ma'naviy merosiga aylandi.

To'rtinchidan, bu so'z zargarlari o'z asarlari orqali kelajak avlod ongiga halollik, mehr-oqibat, vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishda vositachi vazifasini bajardilar.

Beshinchidan, bu hikoyalarda mualliflarning o'z dunyoqarashi, yozish tamoyillari aks etdi. Chunki Muhammad Qodiriy, Asiriy, Latifiy, Mirza bobo va Xiromiy o'z davri talabiga ko'ra bir qissali syujetdan o'z qarashlaridan kelib chiqib foydalanganlar.

Ushbu mualliflar Naxshabiyning "To'tinoma" asarini o'z asarlariga asos qilibgina qolmay, xalq og'zaki ijodi namunalarini mohirona singdirib o'ziga xos adabiy olam yaratdilar. Bu bilan ular forsiy va turkiy yozma adabiyot rivojiga katta hissa qo'shdilar. Natijada "To'tinoma" an'anasi sifat bosqichiga ko'tarildi. "Fors-tojik adabiyotida barqarorlashgan bu yo'nalish o'zbek adabiyotiga XVIII asrda kirib keldi" [Хасанова 2016, 41], – degan xulosaga mana shu nuqtayi nazardan yondashamiz.

Katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bu asarlar jamiyatimizga o'ziga xos ta'sir ko'rsata oldi. Bilimga intilayotgan "To'tinoma" qahramonlari har qanday murakkab masalani aql va ilm yordamida hal qiladilar. Qozoq adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ko'plab shoirlarning bunday asarlarni targ'ib qilishining asosiy sabablari ham shunda. Ular xuddi shu shaklda Sharq afsonalarini kitob qilishgan, yoki yangi variantini yaratishgan, ba'zan to'g'ridan-to'g'ri tarjima ham qilishgan. "Hikoyachilar qozoqlarga qo'shni bo'lgan o'zbek, tatar, ozarbayjon, tojik adabiyotining eng sara namunalarini tanlab, xalq orasida targ'ib qila olganlar" [Кыmicбаев 1994, 55].

Mulla Qurbon Xiromiy "To'tinoma" aasrini yozishda ham badiiy yaxlitlikni, ham strukturaviy yaxlitlikni saqlagan, asrlar davomida saqlanib kelayotgan allegorik timsollarni mahorat bilan qo'llagan. O'rmon bo'ylab aylanib yurgan turli hayvon va qushlarning harakatlari orqali inson xarakterini jonlantirib, xayoliy obrazlar yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Bir mavzudagi asarni turli yo'l bilan yetkazib berish oson bo'lmaganini hisobga olsak, jahon "To'tinoma"lari galereyasida bu asarlarning o'ziga xos iz qoldirganini aytib o'tish joiz. Qolaversa, bu shoirlar o'z ijodida insonni shakllantirish g'oyasini olg'a surdi, yosh avlodni tarbiyalash masalasini ham e'tibordan chetda qoldirmadi. Demak, Xiromiyning maqsadi – dunyoni kezib chiqqan Naxshabiy "To'tinoma"sining shuhratiga soya solish emas, balki uni yanada rivojlantirish edi

va muallif o‘z bunga erishgan. “To‘tinoma” va “Qush tili” asarlari tadqiqotchilarining fikricha, Xiromiy ham o‘zining eng yaxshi g‘oyalarini tasvirlash, asosiy hikoya va unga kiritilgan barcha kichik hikoyalarga ixcham va qulay shakl berish, ko‘plab o‘zgartirishlar kiritish uchun mashhur hikoyadan foydalangan [Хасанова 2016, 41].

Xulosa

“To‘tinoma”ning o‘zbek adabiyotidagi variantlari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida aytish mumkinki, O‘zbekistonda qo‘lyozmalarni saqlash madaniyati keng rivojlangan. Shu tufayli “To‘tinoma” qo‘lyozmalarining turli mualliflar tomonidan yaratilgan bir qancha variantlari tadqiqot obyektlariga olinishi, bu sohaning rivojiga hissa qo‘shdi. *Ikkinchidan*, o‘zbek so‘z san‘atida bu asar asosida yaxlit holda yozilgan ko‘plab nusxalar mavjud. *Uchinchidan*, “To‘tinoma” asari boshqa mashhur hind adabiy yodgorliklarining o‘zbek tilida qayta yozilishiga asos vazifasini o‘tagan. *To‘rtinchidan*, o‘zbek adabiyotshunoslari bu yodgorlikni uzoq yillardan buyon o‘rganib kelishmoqda. *Beshinchidan*, “To‘tinoma”ning barcha nusxalarini boshqa hind hikoyalari bilan solishtirish tajribasi mavjud. *Oltinchidan*, o‘zbek olimlari “To‘tinoma”ni har tomonlama mufassal tahlil qilishga katta e‘tibor qaratganlar. Qozoq-o‘zbek adabiy aloqalari ma’lum bir sohalar-dagina juda sekinlik bilan rivojlanayotganini hisobga olsak [Бапаев 1975, 25], “To‘tinoma” hikoyalari ham bugungacha ikki mamlakat olimlarining alohida tadqiqotlari darajasida qolib ketganini ko‘rish mumkin. Bu mavzu asrlar davomida ikki birodar xalq orasida chuqur ildiz otgani bois kelajakda uni birgalikda o‘rganish imkoniyatlari vujudga kelishi, yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. O‘zbek-xitoy adabiy aloqalarining genezisi, xalq og‘zaki ijodi va adabiyotning mushtarakligi ilmiy ish mavzusiga aylangan bir paytda [Мусырманов 2020] turkiy xalqlarning ezgu merosi – “To‘tinoma” yangi qirralarini ochayotganini unutmasligimiz zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “XV asrda go‘zal insoniy xulq-ni tarannum etuvchi asarlari bilan mashhur bo‘lgan Navoiydek farzandlarni tarbiya qilgan” [Бердибай 2005, 83] o‘zbek xalqining so‘z san‘atidagi “To‘tinoma” variantlari yana ko‘p tadqiqot obyektlariga aylanadi, deb umid qilamiz.

Adabiyotlar

- Шукасаптати*. 1960. Семьдесят рассказов попугая. Москва: Издательство восточной литературы.
- Тотының тоқсан тарауы («Шукасаптати»)*. 1970. Аударған Ф.Сармурзин. Алматы: Жазушы.
- Имад ибн Мухаммад ан-Наари. 1985. *Жемчужины бесед*. Москва: Наука.
- Зийа ад-Дин Нахшаби. 1979. *Книга попугая* (Тути-наме). Москва: Наука.
- Зияаддин Нахшаби. 1991. *Тотынама*. Аударғандар Ә.Қоңыратбаев пен Т.Қоңыратбаев. Алматы: Жазушы.
- Сайид Хайдар Бахш Хайдари. 1933. *Сказки попугая* (Тота кахани). Москва – Ленинград: Academia.
- Тотынама*. 1987. Жауапты редакторы О.Қанапин. Үрімші: Шыңжаң халық баспасы.
- Тотынама. 2005. Көне түркі тілінен аударған Н.Тобыш, әдеби өңдеген А.Қыдыр. Ақтау: «Мұра» шығармашылық бірлестігі.
- Алимардонов, А. 1970. *Зияуддин Нахшаби и его «Тути-наме»*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Душанбе.
- Миннегулов, Х. 1993. *Татарская литература и восточная классика*. Казань: Издательство Казанского университета.
- Мухаммад Алем Лабиб. 2018. *Мирза Ниязи Балхи и его роль в развитии таджикской и узбекской литератур XIX века Афганистана*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Душанбе.
- Караев, Т. 1966. *Поэт Хироми и его литературное наследие*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Бухара.
- Литература XVI века и первой половины XIX века* (Статья о персидской литературе). http://www.naison.tj/literatura/litra_XVI/f02.shtml. (Сайт Натальи Лайдинен).
- Брагинский, И. 1987. *Литература Средней Азии*. История мировой литературы. В девяти томах. 4-том. Москва: Наука.
- Омарұлы, Б. 2020. *Қазақ, қырғыз, түрікмен әдебиеттері тарихын дәуірлеу мәселелері*. Алматы: Arna-b.
- Адашев, М. 1990. *Трансформация сюжета «Раъно и Зебо» в таджикской литературе XVII-XIX вв.* Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Душанбе.
- Қоңыратбаев, Ә. 2004. *Көп томдық шығармалар жинағы*. Т.2. Түркітану және шығыстану мәселелері. Алматы: Мерсаал.
- Бертельс, Д. 1979. Предисловие. *Зийа ад-Дин Нахшаби. Книга попугая* (Тути-наме). Москва: Наука.

- Муродов, Х. 2015. Сўзбоши. Зиевуддин Нахшабий, Ҳайдар Бахш Ҳайдарий. *Тўтинома*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Клягина-Кондратьева М. 1933. *Введение. Сайид Хайдар Бахш Хайдари. Сказки попугая* (Тота кахани). Москва – Ленинград: Academia.
- Хасанова, Ш. 2016. *Сравнительно-типологическое и текстологическое исследование произведений типа «Туги-намэ» и «Қуш тили»*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Ташкент.
- Қасқабасов, С. 2002. *Жаназық*. Астана: Аударма.
- Күмісбаев, Ө. 1994. *Терең тамырлар*. Алматы: Ғылым.
- Бапаев, Х. 1975. *Кыргыз-казак, кыргыз-өзбек адабий байланыштары*. Фрунзе: Илим.
- Сейданов, Қ. 2018. *Туысқандар: қазақ-өзбек әдеби байланыстарының даму сипаттары*. Ташкент: O‘zbekiston.
- Мусурманов, Э.Р. 2020. *Генезис узбекско-китайских литературных связей: общность в фольклоре и литературе*. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. Самарканд.
- Бердібай, Р. 2005. *Әлішердің асқақ арманы. Бес томдық шығармалар жинағы*. Т. 4. Алматы: Қазығұрт.

Variants of "Totynama" in Uzbek literature

Baurjan Omarov¹

Abstract

«Totynama» is one of the most well-known works of human literature. Ono imeet mnozhestvo variatsiy i do six por vyzyvaet bolshoy issledovatel'skiy interes. It is in this remarkable work, it has received a wide distribution and many pages, and various historical epoxies have been sufficiently interpreted by the author. «Totynama» by Ziyauddin Nakhbali, a recognized and respected master of the word, became a solid foundation for the creation of many more later versions of this unique creation. So, thank you, I'm writing, I'm translating it in my own language and masterski dorabatyvavshim eto proizvedenie, bylo sozdano neskolkko absolutely novykh ego prochteniy. Variant has similar popularity in Central Asia, small-town poets, curious introductions and traditional literary tradition. In the middle of the state, Uzbekistan is a special place in this region, where the ancient manuscript «Totynamy» is preserved and is fully used by the nation. In addition to that, in Uzbek literature, there are other great productions, similar to creations, and they also received the title «Totynama». The prose version of «Totynamy» by Latifi and the poetic version, vyshedshaya iz-pod pera Hiromi, steel sokrovishchami Uzbek literature, kotorye eshche vyshe podnyali ee uroven. In this state, an analysis of various sources and sources, scientific work, and the post-history of «Totynama» and the neighboring country have been carried out. The author presented his thoughts on the peculiarities of the «Totynamy» variation, which is widespread in Uzbekistan, and which is of great literary value.

Key words: *Ziyauddin Nakhbali, Uzbek literature, manuscript «Totynama», nasledie Hiromi, framed story, rasskazy parrot, language ptits, literary memory, godly translation, poetry.*

¹ Baurjan J. Omarov – Doctor of Philology, Academician, Professor of Eurasian National University named after L.N. Gumilev, Nur-Sultan, Kazakhstan.

E-mail: b_om777@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-7750-2741

For citation: Omarov B. J. 2022. "Variants of «Totynama» in Uzbek literature". *Golden scripts* 2: 4-24.

References

- Shukasaptati. 1960. *Semdesyat rasskazov popugaya*. Moskva: Izdatelstvo vostochnoy literaturi.
- Тотының тоқсан тарауы («Shukasaptati»). 1970. Audarg‘an G‘Sarmurzin. Almaty: Jazushi.
- Imad ibn Muhammad an-Naari. 1985. *Jemchujiny besed*. Moskva: Nauka.
- Ziya ad-Din Naxshabi. 1979. *Kniga popugaya* (Tuti-name). Moskva: Nauka.
- Ziyaaddin Naxshabi. 1991. *Totinama*. Audarg‘andar Ə.Qo‘iratbaev pen T.Qo‘iratbaev. Almaty: Jazushi.
- Sayid Haydar Baxsh Haydari. 1933. *Skazki popugaya* (Tota kaxani). Moskva – Leningrad: Academia.
- Totinama*. 1987. Jauapti redaktori O.Qanarin. Yrimshi: Shiñjañ xaliq baspasi.
- Totinama*. 2005. Kəne tırki tilinen audarg‘an N.Tobysh, ədəbi əңdegen A.Qidir. Aqtau: «Mıra» shyg‘armashılıyq birlestigi.
- Alimardonov, A. 1970. *Ziyauddin Naxshabi i yego «Tuti-name»*. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Dushanbe.
- Minnegulov, X. 1993. *Tatarskaya literatura i vostochnaya klassika*. Kazan: Izdatelstvo Kazanskogo universiteta.
- Muxammad Alem Labib. 2018. *Mirza Niyazi Balxi i yego rol v razvitiy tadjikskoy i uzbekskoy literatur XIX veka Afganistana*. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Dushanbe.
- Karaev, T. 1966. *Poet Xiromi i yego literaturnoe nasledie*. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Buxara.
- Literatura XVI veka i pervoy poloviny XIX veka* (Statya o persidskoy literature). http://www.naison.tj/literatura/litra_XVI/f02.shtml. (Sayt Natali Laydinen).
- Braginskiy, I. 1987. *Literatura Sredney Azii*. Istoriya mirovoy literatury. V devyati tomax. 4-tom. Moskva: Nauka.
- Omarıly, B. 2020. *Qazaq, qyrg‘yz, tyrikmen ədebietteri tarixyn dəuirleu məseleleri*. Almaty: Arna-b.
- Adashev, M. 1990. *Transformatsiya syujeta «Rano i Zebo» v tadjikskoy literature XVII-XIX vv*. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata filologicheskix nauk. Dushanbe.
- Qo‘iratbaev, Ə. 2004. *Kəp tomdyq shyg‘armalar jinag‘y*. T.2. Tırkitanu jəne shyg‘ystanu məseleleri. Almaty: Mersaal.
- Bertels, D. 1979. *Predislovie*. Ziya ad-Din Naxshabi. *Kniga popugaya* (Tuti-name). Moskva: Nauka.
- Murodov, X. 2015. *So‘zboshi*. Zievuddin Naxshabiy, Haydar Baxsh Haydariy. To‘tinoma. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

- Klyagina-Kondrateva M. 1933. *Vvedenie*. Sayid Xaydar Baxsh Xaydari. Skazki popugaya (Tota kaxani). Moskva – Leningrad: Academia.
- Xasanova, Sh. 2016. *Sravnitelno-tipologicheskoe i tekstologicheskoe issledovanie proizvedeniy tipa «Tuti-name» i «Kush tili»*. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora filologicheskix nauk. Tashkent.
- Qasqabasov, S. 2002. *Janazыq*. Astana: Audarma.
- Kүmisbaev, Ө. 1994. *Tereң тамырлар*. Алматы: Г'ылым.
- Вараев, X. 1975. *Кыргыз-kazak, кыргыз-өзбек адабий байланыштары*. Frunze: Ilim.
- Seydanov, Q. 2018. *Tuыsqandar: qazaq-өзбек әдеби байланыстарының даму sipattары*. Tashkent: O'zbekiston.
- Musurmanov, E.R. 2020. *Genesis uzbeksko-kitayskix literaturnыx svyazey: obщност v folklore i literature*. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora fiologicheskix nauk. Samarkand.
- Berdibay, R. 2005. Әлишердің асқақ арманы. Bes томдық шығ'armalar jinag'ы. T.4. Алматы: Qазыг'ұрт.

Mumtoz adabiyotda rind obrazining badiiy takomili

Olimjon Davlatov¹

Abstrakt

Maqolada rind obrazining Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, forsiy va turkiy adabiyotlardagi badiiy takomili xususida soʻz boradi. Muallif dastavval *rind* soʻzining lugʻaviy va istilohiy maʼnolariga eʼtibor qaratib, manbalarda bu soʻz *mayzada*, *avbosh*, *bezori* maʼnolarida qoʻllanilganligini taʼkidlaydi. Uning kuzatishlariga koʻra, rind fors mumtoz sheʼriyatida dastlab oʻz asl maʼnosida kelib, keyinchalik tasavvufiy maʼno kasb etgan. Maqolada rind obrazi fors adabiyotida Sanoyi Gʻaznaviy, Nizomiy Ganjaviy, Fariduddin Attor, Saʼdiy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, turkiy adabiyotda Alisher Navoiy asarlari asosida tadqiq etilgan.

Muallifning fikricha, Hofiz Sheroziy tufayli rind timsoli fors mumtoz gʻazalchilikning markaziy obrazlaridan biriga aylangan. Hofiz sheʼriyatida rind faqat lirik asarlarning qahramoni oʻlaroq namoyon boʻlsa, Alisher Navoiy mazkur obrazning lugʻaviy, badiiy-estetik, tarixiy, irfoniy-istilohiy maʼnolarini oʻz asarlarida toʻliq namoyon eta olgan. Maqolada mazkur muammo Navoiy lirikasi, dostonlari va nasriy asarlari misolida tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: *rind, obraz, tasavvuf, soʻfiy, avliyo, murid, shoir, pir, mutafakkir.*

Kirish

Rind soʻzining etimologiyasi haqida aniq maʼlumotlar mavjud emas. Manbalarda bu soʻzining koʻpligi arab tiliga xos boʻlgan ichki fleksiyaga asosan amalga oshirilgan boʻlsa-da (rind – koʻpligi runud), mazkur soʻz arab olimlari tomonidan qoʻllanilmagani, uning dastlabki namunalari forsiy tildagi ilmiy va adabiy manbalarda uchragani bois koʻp olimlar bu soʻzni fors tiliga oid deb hisoblashgan.

Rindning lugʻaviy maʼnosi salbiy xarakterga ega boʻlib, av-

¹ Davlatov Olimjon Davlatovich – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondining ijrochi direktori.

E-pochta: tamaddun1991@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2410-4213

Iqtibos uchun: Davlatov, O. D. 2022. "Mumtoz adabiyotda rind obrazining badiiy takomili". *Oltin bitiglar* 2: 25-41.

bosh, sharobga mukkasidan ketgan mayzada, bezori ma'nolarini bildirgan. Tarixiy manbalarda rind so'zi ayni shu ma'noda qo'llanilgani ma'lum: "Ulug' martabali akobirlar hamda ilm-u irfon ahliga jafu qilib, obro'larini to'kdi, avbosh va runud (rindlar) ni qo'llab-quvvatladi" [Ta'rixi Jahonkusho, 88]. "Jome' ut-tavorix" asarining muallifi ham rindni ayni shu ma'noda qo'llagan: "Qabih niyatli kishilar, avboshlar va rindlar isyon ko'tardilar" [Jome' ut-tavorix, 355]. Mazkur obrazning forsiy va turkiy adabiyotlardagi o'rni, badiiy takomili, mazmun-mohiyati va ma'no qirralarini tadqiq etishga harakat qilamiz.

Fors mumtoz she'riyatida rind obrazi

Fors mumtoz she'riyatida rind so'zi dastlab Sanoyi G'aznaviy, Nizomiy Ganjaviy va Fariduddin Attorning asarlarida uchraydi. Sanoyi G'aznaviyning "Sayr ul-ibod ilal-ma'od" masnaviysida shubha va gumon ahlining sifatiga oid bobni quyidagi baytlar bilan boshlaydi:

*Ҳама султон, валеқ бо риндон,
Ҳама қозӣ, валеқ дар зиндон* [Sanoyi, 328].

(Mazmuni: *Barchasi sulton, lekin rindlar bilan birga, Barchasi qozi, lekin o'zi zindonda*).

Ushbu baytda sulton va rind timsollarining qarama-qarshi qo'yilganligidan anglashiladiki, Sanoyi davrida rindlarni jamiyatning eng tuban qatlami deb hisoblashgan ekan. Shu sababdan, olamlar Podshohi – Alloh taoloning ulug'ligi va buyukligi oldida o'zini nochor va haqir, miskin va darvesh ekanligini anglaydigan oriflarni majoz yo'sinida rindlar toifasiga mansub deb ham bilishgan.

Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonida esa, rind – o'z ishqini oshkor etishdan uyalmaydigan, mahubasiga teng emasligini bilgan holda muhabbat tarannumidan voz kechmaydigan oshiq sifatida namoyon bo'ladi:

*На ринде будаам дар ишқи рӯят,
Ки танбӯре ба даст оям ба сӯят* [Низомий, 313].

(Mazmuni: *Yuzingning ishqida bir rind ham bo'lolmadimki, Tanbur chalib sening ko'yingga kelsam*).

Nizomiyning dostonida g'azalxon oshiq siymosida ko'rinish bergan rind timsoli Farididdin Attor g'azalida gulxanning kulida isinib, sharobga mukkasidan ketgan, taqvo va parhezkorlikdan tavba qilgan, qarigan chog'ida ham bu odatini tark etmagan inson sifatida ko'zga tashlanadi:

*Пир гаитиву баче кардї сулук,
Табѣи ринди гулханї дорї ҳануз* [Аттор, 319].

(Mazmuni: *Qariding, ko'p riyozatlar chekding, Ammo haliyam gulxan atrofida may ichib o'tiradigan rindning tabiati senda qolgan*).

Sa'diy Sheroziy asarlarida ham rind timsoli ayni shu ma'noda qo'llaniladi. Rindlik taqvo ahli uchun eng tuban ish hisoblangani sababli, taqvodorlar nazdida rindlar bilan hamsuhbat bo'lish zindonda yotishdan ham og'irroq jazodir. Axloq muallimi bo'lgan Sa'diy Sheroziy insoniylik mohiyatini uning xulq-u atvori mezonlari bilan o'lchab baho berganligi ma'lum. Sa'diy rindlarning sharob va aysh-ishrat yo'lida mol-dunyodan ham, mansab va martabadan ham, obro'-e'tibordan ham voz kechgani, insonga xos bo'lgan ma'naviy qiyofasini yo'qotganini mahkum etgan:

*Порсоро бас ин қадар зиндон,
Ки бувад ҳамтавилайи риндон* [Саъдий, 58].

(Mazmuni: *Rindlar bilan bir dasturxon atrofida o'tirib, hamsuhbat bo'lgan taqvoli insonning ahvoli zindonda mahbus bo'lgan kishidan og'irroq*).

Sa'diy Sheroziyning shogirdi Sayf Farg'oniy esa, rindlikni donishmandlikka qarama-qarshi qo'yib, rindning savodsizligi, omiligiga ishora qiladi. Shuning barobarida, irfon va tasavvuf ahli orasida odat bo'lgan kasri nafs (nafsni tuban tutish, o'zini past deb hisoblash) bayon uslubi yordamida bu holatidan iftixor tuyadi. Negaki, o'zini jamiyatning tuban qatlami hisoblaydigan odamda takabburlik tuyg'usi yot bo'ladi. Ilm o'rganishdagi eng katta xatar-takabburlik va manmanlikning avj olishi. Barcha farishtalarga ustozlik qilgan shayton bilimiga mag'rurlanib, Alloh taologa isyon ko'targan va buning natijasida ilohiy dargohdan quvilgan bo'lsa, Qur'oni karimda o'ziga zulm qiluvchi va nodon ("Ahzob surasi", 72-oyat) deya ta'riflangan Odam Ato gunoh qilgan bo'lsa-da, tavbasi tufayli gunohi kechirildi. Ma'lum bo'ladiki, Sayf Farg'oniy talqinida rindlik - insonning insoniylik darajasini bilishi va bu holatda orlanmasligi, aksincha, g'ururga ketmasdan, tuproqqa teng bo'lish orqali abadiy saodatga erishish imkoni borligiga ishoradir:

*Ҳар ки ин газал бихонад, донад ки ман чу Саъдї,
Вақте фақиҳ будам, имрӯз ринду оми* [Фарғоний, 200].

(Mazmuni: *Bu g'azalni o'qigan kishi bilurkim, men ham Sa'diy kabi bir zamonlar faqih edim, bugun esa avom bir rindman*).

Fors adabiyoti tarixi mutaxassislari haqli ravishda e'tirof

etganlaridek, rind obrazi Hofiz Sheroziy lirikasida to'laqonli shakllanib, har tomonlama mukammal va serqirra timsol o'laroq bu lirik merosning markaziy mavqeyini egallaydi. Bu haqda alohida tadqiqotlar amalga oshirilgani sababli, Hofiz Sheroziy she'riyatining rind haqidagi eng asosiy qirralari haqidagi qaydlar bilan kifoyalanamiz.

Rind – riyokorlik va ikkiyuzlamachilikni butkul qoralaydigan, gunoh-u savobning oqibatiga umid bog'lamasdan, ilohiy rahmat etagidan umid qo'li bilan mahkam tutgan, oshiqligini pinhon tutmay, o'z ayblarini ochiq-oshkora tan oladigan kimsadir. Hofiz ayrim she'rlarida o'zini rindlik tariqatidagi kishi sifatida e'tirof etadi:

*Нифоқу зарқ набахшад сафои дил, Хофиз,
Тариқи риндиву ишқ ихтиёр хоҳам кард.*

(Mazmuni: *munofiqlik va riyokorlik ko'ngilga safo va poklik bag'ishlamaydi. Hofiz, endi rindlik va oshiqlik yo'lini tutgaymen*).

Hofizning talqiniga ko'ra, ibodat va ilm o'rganishdagi asosiy xavf – ikkiyuzlamachilik hamda odamlarning ko'ziga yaxshi ko'rinish uchun ibodatda va tavozeli bo'lib ko'rinish ko'ngil ko'zqusini qoraytiradi. Yolg'on obro'dan ko'ra badnomlikni afzal bilgan, maqsadga yetishish yo'lida takabburlik va munofiqlik, hasad va riyodan voz kechgan oshiqlar va rindlar maslagini tutish esa ko'ngil safosiga sabab bo'ladi. Nizomiy, Attor, Sa'diy Sheroziy asarlarida salbiy ma'noda kelgan rind Hofiz she'riyatida ikki olamning balolarini chekishga qodir, ishq-u oshiqlikda pok bo'lgan ijobiy timsol o'laroq gavdalanadi. Bu timsol orqali Hofiz olam va odamning hikmati va mohiyatining asosi – insonning o'zida ekani, ma'rifatli insonning shijoati va jasorati tufayli bu olamning obod bo'lishi, haqiqat ko'ziga tik qaray oladigan, bu yo'lda o'zini ham fosh qilishdan chekinmaydigan inson har qanday ehtiromga loyiqligini juda ko'p marta ta'kidlagan.

Alisher Navoiygacha bo'lgan turkiy she'riyatda rind timsoli, Hofiz Xorazmiy ijodini istisno qilganda, deyarli ko'zga tashlanmaydi. Navoiy ushbu shoir she'riyatidan xabardor bo'lmagan chog'i, o'z asarlarida u haqda ma'lumot bermaydi. Navoiyning zamondoshi va ustози Mavlono Lutfiyning devonida rind timsoli qo'llanilgan biror baytni uchratmaymiz. Lutfiydan farqli o'laroq, rind timsoli ham lug'aviy, ham istilohiy ma'nolarida Navoiyning ijodida ko'p marta qo'llanilgan.

Alisher Navoiy ijodida rind obrazi

Alisher Navoiy dostonlaridagi hikoyatlarning salmoqli

qismini din peshvolari va soʻfiylar tashkil etadi. Ulardan ikkitasi – *Zindapil Ahmad Jomiy* va *Ibrohim Adham rind* sifati bilan eslanadi.

“Lison ut-tayr” dostonidagi Hudhudning qushlar bilan savol-javobida keltirilgan hikoyatga koʻra, *Ahmad Jomiy* qiyomat kuni Alloh taolaga munojot qilib, “yo musulmonlarning gunohini magʻfirat et, yoki mening jussamni shunday katta qilib yaratki, doʻzax sar-basar men bilan toʻlsin”, deb yolvoradi. Haq taolo sevikli bu bandasining oliy himmati va karamini koʻrib, yana yuz minglab osiy bandasini doʻzax olovidan qutqaradi:

Rindi sohib himmati oliyjanob,

Chun shafodatda bu navʼ etgay xitob.

Bu sifatkim zohir oʻlgʻay qoʻshishi,

Anga loyiq haqdin oʻlgʻay baxshishi.

Chun humoi himmati ochqay qanot,

Yuz tuman ming xalq topqaylar najot.

Rindlik sifati bilan yana bir ulugʻ avliyo – *Ibrohim Adham* ham eslanadi. Balx hukmdori boʻlgan Ibrohim Adham toj-u taxtni tark etib, darveshlikni ixtiyor etganini tasvirlash jarayonida Navoiy uchta bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan sifatlar – shoh, rind, pokboz (bor-yoʻgʻini qimorga birayoʻla tikadigan qimorvoz sifati)ni unga nisbat bergan:

Janda kiydi koʻrguzub yuz ming niyoz,

*Yoʻlgʻa tushti **shohi rindi pokboz.***

Bu uch sifatni bir kishi oʻziga qanday jam qila olishini hikoyat davomida anglash mumkin: shohlikni tark etib, oʻtinchilik bilan shugʻullangan Ibrohim Adham gʻayb eranlarining dastlabki imtihonidan oʻtolmaydi: ularning shohlik va darveshlik haqidagi savollariga “shohlik Balxda qolib ketdi”, deb javob beradi. Uch yildan keyingi imtihonda esa, nafaqat Balx, balki oʻzini ham butkul unutib yuboradi, fano maqomiga koʻtarilgani uchun avliyolarning shohi boʻlib, Kaʻba sori safarga chiqadi. Buning xulosasi sifatida Navoiy quyidagi baytlarni keltiradi:

Gʻayr yodi koʻnglida to bor edi,

Parda yangligʻ moneʼi asror edi.

Koʻnglidin bilkull chu zoyil boʻldi ul,

Parda qoʻpgʻoch peshgahgʻa topti yoʻl.

Bu fanogʻa kimki topti dastras,

Oni derlar pokboz, ey bulhavas.

Shayx Sanʼonning sadoqatli muridi ham *rind* sifati bilan

eslangani hisobga olinsa, Ahmad Jomiy va Ibrohimi Adham rindligini tariqat ahli, so'fiy, orif, ma'rifat sharobidan sarmast solik ma'nolarida tushunish mumkin.

Xuddi shunday sifatlashlar Abdurahmon Jomiyga nisbatan ham qo'llanilganini ko'rish mumkin. "Farhod va Shirin" dostonida Jomiy *rindlar sarxayli* (*Keturgil, soqiy, ul jomi kiromiy/ Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy*) deb vasf qilingan bo'lsa, "Layli va Majnun" dostonidagi quyidagi sarlavhadan Navoiy o'z ustozini Zindapil Ahmad Jomiy hamda Ibrohimi Adham kabi tasavvuf tariqatidagi rindlarning peshvosi va rahnamosi deb bilgani hamda bu atamani unga istiloh o'laroq qo'llagani oydinlashadi:

*"Valoyat sipehrining axtari jahontobi va hidoyat ma'danining gavhari serobi va nazm avjining mehri falak ehtishomi va **maoniy jomining rindi sofiy oshomi** ya'ni Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhida nukta surmak va aning durdi jomin sumurmak ["Layli va Majnun", 6-bob].*

Navoiy boshqa bir zamondoshi – **Sayyid Hasan Ardasher** haqida so'z yuritarkan, ham "Majolis un-nafois" tazkirasida va ham "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" asarida uning rindligiga alohida urg'u beradi. Masalan, "Majolis un-nafois"da o'qiyimiz: "Rindlig'i chog'ida visoqi rind va xarobotiylarning majmai erdi va bu ishni kishi andin yaxshiroq qilmadi. Ul vaqtda bu qit'ani deb erdikim:

*Chi xush boshad sabuhi bo dilorom,
Labolab az qadah har dam kashidan
Chu g'uncha har du dar yak pirahan tang,
Baham pechidanu darham kashidan.*

(Mazmuni: *Dilorom yor bilan sabuhiy chog'i har damda limmolim qadahdan may sipqorish, g'uncha barglaridek bir ko'ylak ichida, bir-biriga chirmashish naqadar yaxshi!*)

"Holoti Sayyid Hasan Ardasher"da esa, ota masobasida bo'lgan bu zotning rindlik ayyomidagi asosiy fazilatlari haqida so'z yuritiladi. Navoiyning guvohlik berishicha, yoshlik ayyomida Sayyid Hasan Ardasherining uyi hamma vaqt mayxo'rlarning panohi va maishatgohi bo'lgan. Uning may ichishdagi mahorati, mast bo'lmasdan hamma bilan yaxshi munosabatda va e'tiborli bo'lishi, xushsuhbatligi va ochiqqo'lligi bilan Boysung'ur mirzo, Husayn Boyqaro kabi maysevar temuriy mirzolarining ko'nglidan joy olgani alohida ta'kidlangan.

Shunisi e'tiborliki, asarlarida mayxo'rlikni mudom qoralagan Navoiy, garchi orada "ko'p vaqtni ta'yinsiz o'tkazur erdi", degan jumlaning qistirib o'tsa-da, lekin Sayid Hasanni bu ishda aybdor qilib,

mazammat etmaydi, aksincha, uning rindlik qoida-qonunlarini bajo keltirgani, hariflariga g'oyat mehribon va g'amxo'rligini, futuvvatini ta'kidlab o'tadi. Jumladan, Sayyid Hasan Ardasherining boshqa rindlar orasida mumtoz etadigan quyidagi xislatlarni batafsil sharhlab keltiradi:

- 1) *saxoyi zotiy (tug'ma ochiqqo'llik);*
- 2) *shafqati mufrit (haddan tashqari shafqatli bo'lish);*
- 3) *lutf-u tavozu' va adab;*
- 4) *tahammul va burdborliq (chidam va bardosh);*
- 5) *ko'ngul yumshoqligi va ta'sirchanlik;*
- 6) *zotiy betakallufluq (tug'ma samimiylik);*
- 7) *o'zgaralar holidan xabardorlik va e'tibor ko'rsatish.*

Navoiy bu xislatlarni sharhlar ekan, oddiy odamlar bunday ulug'vor ishlarni uddasidan chiqolmasligi, aslida bu valiy zotlarga xos bo'lgan xislatlar ekanini ta'kidlab yozadi:

*Bu ish erur valoyat ahli ishi,
Qila olmas bu ishni o'zga kishi.*

Ma'lum bo'ladiki, shoir riyosiz rindlarning sarxushlik majlislarini ma'qullamagan bo'lsa-da, ammo butunlay inkor etmagan ham: johil odamlarning mayzadaligi, atrofdagilarga ozor berishi axloqiy tanazzulga olib kelsa, darvesh-rindlarning mayxo'rligi, Iloh yodida sarxush bo'lishlari beozor va "axloq-u shariat" doirasida edi. Har holda, bu Hirot jamiyatining axloqi va muhitini aks ettiradigan va ayni paytda, rasmiy shariatga zid belgilardandir.

"Hayrat ul-abror" dostonining o'n to'rtinchi maqolatida Navoiy "jahl mayi"ning ofati va tavbaning sharofatini atroflicha talqin etib, fikrining isboti sifatida Maymana ismli yahudiy rind hayotidan hikoyat keltiradi. Mazkur hikoyat qahramoni tom ma'noda har kuni tavbasini sindirib, gunohidan tavba qilmaydigan darajaga yetgan, o'z insoniy qiyofasini butkul yo'qotgan betayin bir mayzada bo'lib, ilohiy inoyat tufayli mustahkam tavbaga erishgani bayon etiladi.

"Mahbub ul-qulub" asari birinchi qismining o'ttiz to'qqizinchi faslida Navoiy rindlarning ma'naviy qiyofasini chizadi. Uning talqiniga ko'ra, zohiran o'zlarini bexud, beparvo qilib ko'rsatuvchi, botinan esa mutafakkir va zakiy bo'lgan, dunyoning nobarobarligidan, adolatsizliklardan zada kishilar sifatida alohida ajralib turadigan rindlar barcha yovuzliklarning boshi hisoblangan takabburlik, hasad va riyokorlikdan mutlaqo begona. Ruhiyat hurligi va qalb pokligiga erishgan bu rindlar sharob va mayxo'rlik qilsalar-da, o'z gunohlariga iqror va ilohiy rahmatdan umidvor bo'lganliklari

uchun soxtakor va kazzob zohidlardan yaxshiroqdir:

*Rindeki, fano jomini tortar payvast,
Dunyo bila oxiratqa ermas pobast.
Haq rahmati umidi bila tun-kun mast,
Ko'p ortuqroqki, zohidi zarqparast.*

Lirik asarlaridagi rindona bayt va g'azallar Navoiyning bu toifaga munosabatini yanada yorqinroq anglashga ochqich bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bir qancha g'azallarida Navoiy ham Rindi Sheroz – Xoja Hofiz kabi o'zini rindlarning maslakdoshi deb ataydi. Ko'ngil safosi, rostlik va to'g'rilik ziyosi, haqiqat va haq so'zning gadosi bo'lish rindlikni jozib va maftunkor bir maslakka aylantirgan. Biror madrasada ta'lim berilmaydigan muhabbat – ko'ngilni turli bahs va mujodaladan xoli qilgan rindlarning hayotiy saboqlaridir:

*Ishq sirrin rindi durdiykash bilur, yo'q ahli dars
Ulcha avroq uzra sabb o'lmas ne bilgay Mavlaviy*
[“G'aroyib us-sig'ar”, 650-g'azal].

Navoiy vasf etgan rind – maoniy jomidan sarmast, ruhiyatning olis manzillariga riyosiz qadam qo'ygan bir zot. Uning qalbida fanolik tuyg'usi mustahkam o'rnashgan bo'lib, olam va odamning bor-yo'qligiga e'tibor qilmasdan, mangu lloh haqida mudom tafakkur etmoq, butun vujudi bilan o'zini Haq rizoligiga topshirmoq, o'jizlik va gunohkorligini yashirmasdan, botin olamini ko'ringanidan go'zalroq qilib obod aylamoqni shior etgan. Ishq-u oshiqlik, ma'rifat va muhabbat yo'lidagi sobitlik tufayli rindlikni o'ziga qismat deb qabul qiladi hamda bu qismatga rizo va taslimiyat bilan boshini egib, o'zgalari nasihatiga parvo qilmaydi:

*Azaldan chunki qismim rindliqdur,
Qil emdi pandni, ey porso, bas*
[“Navodir ush-shabob”, 222-g'azal].

Albatta, shoirning lirik asarlarida rind va rindlikning asl ma'nosida qo'llangan holatlari ham mavjud. Jumladan, quyidagi maqta'da Navoiy madrasadagi faqih va mayxonadagi rindni bir qatorga qo'yib, Haqning yodida bo'lgan madrasadan ham, mayxonadan ham forig' bo'lishi, madrasa va mayxona ahli agar Uning yodi va zikridan g'ofil bo'lsalar, ikkalasi ham g'aflat va gumrohlik bobida eng tuban safda turishini ta'kidlaydi:

*Faqih-u Ka'ba, rind-u maykada, xushdur Navoiykim,
Sening yoding bila mundin erur ozod-u andin ham*

[“Navodir ush-shabob”, 398-gʻazal].

Ayrim gʻazallarda rind soʻfiy, piri dayr – komil inson huzurida fano boʻlish taʼlimini oladigan tariqatdagi solik maʼnosida ham qoʻllaniladi. Bunday baytlarda “komil ulkim, nuqsin inbot aylagay” prinsipiga amal qiladigan rindlar riyokor va soxta muridlarga qarama-qarshi qoʻyiladi:

*Shayx ila ahli riyov-u dayr piri birla rind
Kim, fano ichra keraktur pirning irshodi koʻp*

[“Badoyeʼ ul-vasat”, 67-gʻazal].

Umuman olganda, Hofiz Sheroziy gʻazallarida rind obrazi *porso (taqvodor), mast, oshiq, nazarboz (goʻzallik oshuftasi), tashnalab, xarobotiy, balokash, jahonsoʻz (olamga oʻt qoʻyuvchi), badnom, qallosh (yoʻqsil), sabuhiyzada (mayzada), sharobxor, besomon (parishon), pokboz, louboli (beparvo), qalandar, shohidboz (goʻzallar shaydosi)* sifatlari bilan eslanadi. Navoiy sheʼriyatida esa, Hofizga ergashgan holda, *xarobotiy, muflis, durdkash, mayxora, durdoshom, louboliy, muqammir (qimorvoz), qalandarvash* kabi sifatlarni qoʻllanilishi barobarida, *vafopesha, mehrandesha, farzona, beriyo, boxabar, pokboz, sohibhimmat, olijanob, niyozmand* kabi rindlarning goʻzal maʼnaviy olamidan darak beruvchi sifatlarni ham istifoda etilgan. Maʼlum boʻladiki, Navoiy uchun rindlarning yashash tarzidan koʻra, ularning botiniy olami, axloqi va dunyo ishlariga munosabati muhmiroq sanalgan va ular aynan shu xislat sohibi boʻlganliklari uchun qadrlangan.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, rind soʻzining etimologiyasi haqida aniq toʻxtamga kelinmagan. Manbalarda rind soʻzi arabcha koʻplik shakli bilan keltirilganiga qaramasdan, ushbu atama dastlab fors tilidagi tarixiy manbalarda qoʻllanilgani bois, uni forsiy soʻzlar sirasiga kiritish maqsadga muvofiq. Rindning asosiy lugʻaviy maʼnosi mayzada, avbosh, bezori boʻlib, tarixiy manbalarda ayni shu maʼnoda qoʻllanilgan.

Fors mumtoz sheʼriyatida rind obrazi dastlab Sanoyi Gʻaznaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attorlarning asarlarida uchraydi. Ushbu shoirlar rind soʻzini oʻzining asl maʼnosida qoʻllaganlar.

Sayf Fargʻoniy va Saʼdiy Sheroziy lirikasidan boshlab rind timsolida maʼno evrilishi hodisasi kuzatiladi. Saʼdiy axloq muallimi sifatida rindlarni kishilik jamiyatining eng tuban qatlami sifatida talqin qilgan boʻlsa, Sayf Fargʻoniy gʻazallarida tasavvuf sheʼriyatida

qo'llaniladigan *kasri nafs* usuli yordamida rindlik ma'naviy kamolot yo'lini anglatishning vositasi o'laroq ko'zga tashlanadi.

Hofiz Sheroziy tufayli rind timsoli fors mumtoz g'azalchilikning markaziy obrazlaridan biriga aylangan bo'lsa, Navoiy sharofati bilan bu timsol o'zbek she'riyati arsasiga ko'chdi. Hofiz she'riyatida rind faqat lirik asarlarning qahramoni o'laroq zuhur etsa, Navoiy ushbu obrazning lug'aviy, badiiy-estetik, tarixiy, irfoniy-istilohiy ma'nolarini to'liq o'z asarlarida namoyon eta bildi. Uning ta'rifida rind – so'fiy, rind – avliyo, rind – mayzada, rind – oshiq, rind – murid, rind – ustoz, rind – shoir, rind – mutafakkir, rind – podshoh. Bu talqinlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari – riyosizlik, to'g'rilik, o'z gunohi va xatolari bilan mashg'ullik. Ayniqsa, Navoiyning rindlar ma'naviy olami haqidagi mushohada va umumlashmalari keyingi davr mumtoz she'riyatni tadqiq etishda nazariy asos vazifasini o'tashi shubhasizdir.

1. Ilova

Alisher Navoiy ijodida qo'llanilgan rind obrazining manbalari

<i>Tr</i>	Matn	Manba
1	Rindlar sarxayli mendurmen bugun dayr ahlig'a, Maykada tufrog'idin masnad manga basdur sanad.	<i>G'aroyib us-sig'ar,</i> <i>124-g'azal</i>
2	May ichki, xalq gunohin yumoqqa abri karam Yog'ar mahalda emas rindu porso malhuz.	<i>G'aroyib us-sig'ar,</i> <i>284-g'azal</i>
3	Labing shavqida ko'nglum har ne borin boshidin qo'ydi, May istab rindi muflis ayladi dastorini marhun.	<i>G'aroyib us-sig'ar,</i> <i>439-g'azal</i>
4	Mayg'a Navoiy etti ko'ngul shishasini zarf, Bu bo'ldi rindliq aro aning zarofati.	<i>G'aroyib us-sig'ar,</i> <i>621-g'azal</i>
5	Ishq sirrin rindi durdiyqash bilur, yo'q ahli dars Ulcha avroq uzra sabt o'lmas ne bilgay Mavlaviy.	<i>G'aroyib us sig'ar,</i> <i>650-g'azal</i>
6	Yana bo'lmisham oshiqu zor ham, Xarobotiyu rindu xammor ham.	<i>G'aroyib us-sig'ar,</i> <i>tarje'band, 5-bob</i>
7	Masjidqa necha ahli riyodek yetayin, Yo rind kibi azimati dayr etayin. Maqsud topilsa yaxshi, yo'qsa netayin, Boshimni olib qay sari emdi ketayin.	<i>G'aroyib us-sig'ar,</i> <i>95-ruboiy</i>
8	Rindi mayxora qadah tuttiki, zohid hargiz, Qilmadi buyla karam arzi karomot aylab.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>60-g'azal</i>
9	Gar Navoiy volihingdur, qovmag'il, ey mug'bacha, Oni ham bu dayr aro bir rindi durdoshom tut.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>70-g'azal</i>

10	Xarobot aro, ey xush, ul rindi sarmast Ki, ollinda olam vujudi adamdur.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>134-g'azal</i>
11	Dayr pirining muridimenki, har yon qilsa azm, Rindlardin may ko'tarmakka meni mumtoz etar.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>159-g'azal</i>
12	May ichra g'arqadurmen to boshimda may havosidur, Qani rindeki may uzra tamoshoyi hubob aylar.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>185-g'azal</i>
13	Azaldan chunki qismim rindliqdur, Qil emdi pandni, ey porso, bas.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>222-g'azal</i>
14	Faqihu Ka'ba, rind-u maykada, xushdur Navoiykim, Sening yoding bila mundin erur ozod-u andin ham.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>398-g'azal</i>
15	Demakim, dayr ichra ne oshub edi sharhin degil, Rindlar g'avg'osin aytay yo surohiy g'ulg'ulin.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>448-g'azal</i>
16	Navoiy xirqasin ta'n etma, ey rindi xarobotiy Ki, maxmur o'lsa, uldur vajh mayg'a qilg'oli marhun.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>456-g'azal</i>
17	Gar farog'at mulki istarsen may ichkim, bo'lmasi G'amsiz o'lmoqliqda shah rindi qadahpaymoycha.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>542-g'azal</i>
18	Xonaqah ahlig'a, ey zohid, meni o'xshatmakim, Zuhd eli bor o'zga, rindi ouboli o'zgacha.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>549-g'azal</i>
19	Kelsa tong yo'q goh piri dayru gahi mug'bacha, Rindkim kunji xarobot o'lg'oy aning maskani.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>588-g'azal</i>
20	Chun xarobot ichra kirding mast bo'lkim, mug'bacha, Mahrami bazm aylamas juz rindi durdoshomni.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>610-g'azal</i>
21	Yanaki nutq ilayu ruh ila yeturdi anga Fuyuzi orifi Jomiyu rindi Sheroziy.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>650-g'azal</i>
22	Muhtasib har sari may to'kmakka borsa shahr aro, Rindlar ham aylabon payravlig'u hamdastlig', Mayi ko'l o'lg'och, tortibon barcha qirog'inda cho'kub Kaf sochib har sari buxtidek qilurlar mastlig'.	<i>Navodir ush-shabob,</i> <i>37-g'azal</i>
23	Ey xush ul rindki, mug' dayrini qildi maskan, Yetsa ham mug'bachalar ishqida yuz ofat anga.	<i>Badoye' ul-vasat,</i> <i>8-g'azal</i>
24	Ka'badin dayr sari chek menikim, Rind o'lur kirsas porso anda.	<i>Badoye' ul-vasat,</i> <i>26-g'azal</i>
25	Tuttgart, ey rindi xarobot, manga sog'arkim, Ruh bodangg'avu tan eski safolingg'a fido.	<i>Badoye' ul-vasat,</i> <i>31-g'azal</i>
26	Kim ayo rindi vafo peshavu mehr andisha, Kelib ich bir qadahu chekma xumor ichra azob.	<i>Badoye' ul-vasat,</i> <i>42-g'azal</i>
27	Rindlar, iflosdin g'am yo'q, to'kilgan bodadin Aysh etarsiz, chunki mug' dayrig'a kirdi muhtasib.	<i>Badoye' ul-vasat,</i> <i>51-g'azal</i>
28	Ey xush ul rindi xarobotiki, mast o'lg'on zamon Dahrg'a hukmin surub, gardung'a istig'no qilib.	<i>Badoye' ul-vasat,</i> <i>53-g'azal</i>
29	Shayx ila ahli riyov-u dayr piri birla rind Kim, fano ichra keraktur pirining irshodi ko'p.	<i>Badoye' ul-vasat,</i> <i>67-g'azal</i>

30	Chun xarobot ichra mast o'ldum ichib, ey mayfurush, Rindlar birla solib g'avg'o meni rasvo qadah.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 105-g'azal
31	Bodai la'ling uchun azmi xarobot etgali Rindlar ichra erur qadrim biyik, shonim aziz.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 201-g'azal
32	Meni bir jom ila o'z luk xumoridin xalos aylang, Guruhi rindlarkim, sokini dayri fanodursiz.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 204-g'azal
33	Ne qahring o'tidin emin faqihi soyimi dahr, Ne rahmatingdin novmid rindi durdno'sh.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 242-g'azal
34	Biravni rindi xarobot anglakim, bo'lg'ay Bir ilgida kaduyu birda jom men yanglig'.	<i>Badoye'</i> ul-vast, 299-g'azal
35	Ey xarobot ahli, rasvo ko'nglum itmish bu taraf, Kelmisham topib surog' - ul rindi badnomim kerak.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 332-g'azal
36	Rind emasmen dayr aro, gar jomi Jamdin o'tsa so'z, May gadolig' qilg'ali sing'an safolimni desam.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 413-g'azal
37	Rindlig'din zohidi xushk o'ldi ul oy ro'zada, Garchi zuhd ahlin xarobat ichra qildi ko'bako'.	<i>Badoye'</i> u-vasat, 509-g'azal
38	Ne maykim tutsa piri dayr, olib rindona sipqorkim, Emastur rind ulkim, so'z der aning durdu sofinda.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 549-g'azal
39	Azalda rind xushhol o'ldi maydin Vale xilvat aro zohid tumushti.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 582-g'azal
40	Ey xush ul rindki, to kelgay-u ketgay bir dam, Bo'lmag'ay dayri fano ichra o'zidin xabari.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 586-g'azal
41	Ne rind o'lsa soching kufrida yetar zunnor, Jahon yuzidagi din ahlig'a aning marasi.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 602-g'azal
42	Rindlar, tavbam ne tongkim, umr o'tub isyon bila, Do'st oliy dargahig'a azm aylar chog' edi.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 629-g'azal
43	Harzagard o'ldi shohidi ra'no, Lek jonso'z rindi farzona. Ul pariy rost uylakim ko'palak Bu bir, ammo nechukki parvona.	<i>Badoye'</i> ul-vasat, 56-qit'a
44	Kir xarobot ichrayu bo'l rindlar vobastasi, Xonaqahda bo'lg'u cha ahli riyog'a muftalo.	<i>Favoyid</i> ul-kibar, 32-g'azal
45	Fano mayxonasig'a sol meni, ey rindi orifkim, G'amimni o'ksutur dayri fano, mayxona andin ko'p.	<i>Favoyid</i> ul-kibar, 67-g'azal
46	Mast-u rasvomen xarobot ichra ko'rdung, ey rafiq, Bo'lmag'ung bo'lsang meningdek rindi durdoshom, ket. Kelmas ergach rindlar bazmig'a, ketmak istama, Gar ketar bo'lsang ichib, dog'i tutub bir jom, ket.	<i>Favoyid</i> ul-kibar, 78-g'azal

47	<p>Gar desangkim, tushmasin xirqangg'a rasvolig' o'ti, Bo'lmayin rindi xarobotiy bila hamroh, qayt.</p> <p>Dayr piri ilgidin zunnor belga bog'labon, But qoshinda qilmas ersang sajda, beikroh qayt.</p> <p>Rindu ra'nolig' agar ko'nglung tilar bu ko'y aro, Juz fano yo'qtur sanga, topilmas ul dilxoh, qayt.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 79-g'azal</i>
48	<p>Ey Navoiy, chun sabo'kashsen, qadam ur tezkim, Rindlarni qilmasun nogah mukaddar intizor.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 157-g'azal</i>
49	<p>Rindlar tavbamni sindirmoqqa bu taqrib emas, Boda nafyidinki, har dam qilu qolim bordur.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 175-g'azal</i>
50	<p>Dayri fano mayli qildi rindi xarobot, Kim, kecha anda ne shahnadur, ne asasdur.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 198-g'azal</i>
50	<p>Shayxda yo'q rindliq, zohidda yo'q rasmi vafo, Dayr piri har suluk irshodida keldi to'kuz.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 205-g'azal</i>
51	<p>Ey zamon ahli, fusunu g'adringiz ne aybkim, Ham zamondek doim afsunsozu g'addor erdingiz.</p> <p>Rindlar bas tiyradur, siz xonaqahg'a tushkali, Ey xush ul kunkim, muqimi ko'yi xammor erdingiz.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 207-g'azal</i>
52	<p>Qaysi rindeki riyo zotida yo'qtur bitta'b, Ko'runur jomi fano tortsa behad matbu'.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 288-g'azal</i>
53	<p>Rind bo'lg'ay ikki olam o'ynag'ay bir dav ila, Bo'lmag'ay lekin xaroboti fano qalloshidek.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 324-g'azal</i>
54	<p>Xush ul rindiki, borg'ay kulbadin gulshang'a borg'andek, Baqo mulkiga chun dorul-fanodin intiqol o'lg'ay.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 581-g'azal</i>
55	<p>Xusho mayxonakim, Jamshid ila jomidin afzundur, Malomat dayrining har qaysi rindi durd oshomi.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 630-g'azal</i>
56	<p>Rindliqdin osru shokirmenki, taqvo daftarin Qildilar chun sharh, ul xayl ichra otim yo'q edi.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, 635-g'azal</i>
57	<p>Rindlar xidmatidin komim bu Ki, fano kasbig'a qilsam iqdom.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, Tarji'band, 1-band</i>
58	<p>Dayr eshigida edi bazmi g'arib, Rindlar barchasi masti mayi nob.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, Tarji'band, 10-band</i>
59	<p>K-ey xumor ilgida rindi o'jiz, Seni maxmurlug' etmish betob.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, Tarji'band, 10-band</i>
60	<p>Rindlar bazmig'acha kom chekay, Ul xarobot elidin jom chekay.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, Soqiyнома, 26-band</i>
61	<p>To fano dayri fazosig'a kiray, Rindlar bazmi arosig'a kiray.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, Soqiyнома, 32-band</i>
62	<p>Shohlar shohi sarafrozi uchun, Rindlar shohi Abulg'ozi uchun.</p>	<i>Favoyid ul-kibar, Soqiyнома, 32-band</i>

63	Biri Iso nafaslik rindi Sheroz, Fano dayrida mastu louboli.	<i>Favoyid ul-kibar, 18-qit'a</i>
64	Rindi muqammirdek etib lola shayn, Tosi aro jola bo'lub ka'batayn.	<i>Hayrat ul-abror, 18- bob. Avvalgi hayrat</i>
65	Ul terikim, rind qilur jur'adon, Mushki Xo'tan ayladi anda nihon.	<i>Hayrat ul-abror. 48- bob. O'n to'rtinchi maqolat</i>
66	Kim erur ushbu ishi qallosqliq, Rind-u qalandarvash-u avboshliq.	<i>Hayrat ul-abror. 50- bob. 15-maqolat</i>
67	Bani Isroiliyi Rindning o'zlukidin tavbasi uyi irtifoi qasam qofi toshlari bila falakka chiqqoni va may selobi ul binoni yiqqoni. Bor edi Rindi Bani Isroiliy, Boda uchun maykadalar soili.	<i>Hayrat ul-abror. 51- bob.</i>
68	Rind ichiga tushubon tobi shavq, Ashk bo'lub jismiga girdobi shavq.	<i>Hayrat ul-abror. 51- bob.</i>
69	Keturgil, soqiy, ul jomi kiromiy Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy. Chu piri dayr may qildi havola, Icharmen gar erur gardun piyola.	<i>Farhod va Shirin. 7-bob.</i>
70	Valoyat sipehrining axtari jahontobi va hidoyat ma'danining gavhari serobi va nazm avjining mehri falak ehtishomi va maoniy jomining rindi sofiy oshomi ya'ni Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy madhida nukta surmak va aning durdi jomin sumurmak.	<i>Layli va Majnun, 6-bob</i>
71	Subh rindi chu qildi mayli sabuh, Rohi mehr anga toza ayladi ruh.	<i>Sab'ayi sayyor. To'rtinchi iqlim m u s o f i r i n i n g suxanguzorligi</i>
72	Boda ichmak, rindu mast o'lmag'ni ham, Tark etib din, butparast o'lmag'ni ham.	<i>Lison ut-tayr, 79-bob. Shayx San'on hikoyati</i>
73	Dedi sohib dardi rindi boxabar: "–K-ey hamiyatda to'nguzlardin battar. Shayxkim pir erdi-yu, sizlar murid, Borchag'a irshodidin behbud umid..."	<i>Lison ut-tayr, 79-bob. Shayx San'on hikoyati</i>
74	Tengri dargohida rindi pokboz, Kecha-u kunduz to'kar erdi niyoz.	<i>Lison ut-tayr, 79-bob. Shayx San'on hikoyati</i>
75	Yondi Shayx-u rindi bolodast ham, Ul guruh ichra balandu past ham.	<i>Lison ut-tayr, 79-bob. Shayx San'on hikoyati</i>
76	Janda kiydi ko'rguzub yuz ming niyoz, Yo'lg'a tushti shohi rindi pokboz.	<i>Lison ut-tayr. Ibrohim Adham hikoyati</i>

77	Rindi sohib himmat onda chun yetar, Ul surukni bir gadog'a bazl etar. Rindg'a himmat bila bo'lsa karam, Naqdi anjumdur anga xarji diram	<i>Lison ut-tayr. Hudhud javobi.</i>
78	Rindi sohib himmati oliy janob, Chun shafaotda bu nav' etgay xitob. Bu sifatkim zohir o'lg'ay qo'shishi, Anga loyiq Haqdin o'lg'ay baxshishi. Chun humoyi himmati ochqay qanot, Yuz tuman ming xalq topqaylar najot	<i>Lison ut-tayr. Ahmadi Jomiyning qiyo matdagi shafaotlari</i>
79	Rindi xarobatiyki, may ichmak bila o'tar avqoti, hubobdek boda havosi boshida, surohidek bosh qo'yar yeri sog'ar qoshida.	<i>Mahbub ul-qulub, 19-fasl. Xarobot ahli zikrida</i>
80	Va mutaahhirindin ikki olamni bir dov bila o'ynag'on muqammir shevalar pokbozi va ishq dayri fanosida haqiqat bodasidin mast rindlar hamrozi shams-ul millati vad-din Xoja Hofiz Sheroziydur.	<i>Mahbub ul-qulub, 10-bob Ishq haqida</i>
81	Jurm e'tirofig'a uzr – tavfiq nishonasi va zuhd g'ururidin takabbur – shayton fasonasi. Bu zuhd – shayxi xudpisand ishi, ul uzr – rindi niyozmand ishi.	<i>Mahbub ul-qulub, 63-tanbeh</i>
82	Xarobat ahlig'a rindliq va mastlik yigitlikda dilpazir va munojot ahlig'a porsolig' benazir.	<i>Mahbub ul-qulub, 105-tanbeh</i>
83	Rindlardin bir aningdek yo'q erur ogoh rind, Shoh edi rind ahlig'a, balkim erdi shohi rind.	<i>Holoti Sayid Hasan Ardasher</i>
84	Vahki, yana o't solur jonima bir hurvash, Na'lbar-u dog'soz, rindvash-u jur'akash.	<i>Mezon ul-avzon. Munsarih bahri</i>

Adabiyotlar

- Атомалик Жувайний. 1368. *Таърихи Жаҳонкушо*. 1 ж. Техрон: Суруш.
- Рашидиддин Фазлуллоҳ Ҳамадоний. 1338. *Жомеъ ум-таворих*.
Интишороти Иқбол.
- Санои. 2004. *Осори мунтахаб*. Душанбе: Адиб.
- Низомий Ганжавий. 1394. *Хусрав ва Ширин*. Техрон: Арбоби қалам.
- Фаридиддин Аттор. 1389. *Девон*. Техрон: Килк.
- Саъдий Шерозий. 1375. *Куллиёт*. Интишороти Ноҳид.
- Сайф Фарғоний. 1978. *Девон*. Техрон: Ибн Сино.
- Ҳофизи Шерозий. 2013. *Девон*. Тошкент: Тамаддун.
- Алишер Навоий. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. Фаройиб ус-сиғар. Ж.1.
Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Алишер Навоий. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. Наводир уш-шабоб.
Ж.2. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.
- Алишер Навоий. 2011. *Тўла асарлар тўплами*. Бадоеъ ул-васат. Ж 3.

Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.

Алишер Навоий. 2011. *Тўла асарлар тўплами. Ҳайрат ул-аброр*. Ж 6.
Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.

Алишер Навоий. 2011. *Тўла асарлар тўплами. Лисон ут-тайр*. Ж 8.
Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.

Artistic Improvement of the image of Rind in Classical Literature

Olimjon Davlatov¹

Abstract

The article discusses the gradual and artistic development of the image of Rind in classical oriental literature, in particular in Persian and Turkish literature. The author of the article first pays attention to the lexical and terminological meanings of this word, noting that in the sources the word *rind* is used in the meanings of a hooligan, troublemaker and drunkard. He also points out that in Persian classical poetry the word was first used in its original meaning and then used in a mystical sense. The article examines the image of Rind in Persian literature based on the works of Sanoi Gaznevi, Nizomi Ganjavi, Fariduddin Attor, Saadi Sherozi, Hafiz Sherozi, in Turkic literature in the works of Alisher Navoi.

According to the author of the article, thanks to Hafiz Shirazi, the *rind* symbol became one of the central images of Persian classical poetry. In the poetry of Hafiz, the *rind* acts only as the main character of lyrical works, while Alisher Navoi managed to fully express the lexical, artistic, aesthetic, historical, epistemological and terminological meanings of this image in his works. In the article this issue is considered on the example of lyrics, poems and prose works of Navoi.

Key words: *rind, image, Sufism, mystic, saint, murid, poet, feast, thinker.*

¹ *Olimjon D. Davlatov* - Doctor of Philosophy in Philological Sciences (Ph.D), Executive Director of the Alisher Navoi International Public Foundation.

E-mail: tamaddun1991@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-2410-4213

For citation: Davlatov, O. D. 2022. "Artistic Improvement of the image of Rind in Classical Literature". *Golden scripts* 2: 25-41.

References

- Atomalik Juvayniy. 1368. *Ta'rix-i Jahonkusho*. 1 j. Tehron: Surush.
- Rashididdin Fazlulloh Hamadoniy. 1338. *Jome'ut-tavorix*. Intishoroti Iqbol.
- Sanoi. 2004. *Osori muntaxab*. Dushanbe: Adib.
- Nizomiy Ganjaviiy. 1394. *Xusrav va Shirin*. Tehron: Arbobi qalam.
- Farididdin Attor. 1389. *Devon*. Tehron: Kilk.
- Sa'diy Sheroziy. 1375. *Kulliyot*. Intishoroti Nohid.
- Sayf Farg'oniy. 1978. *Devon*. Tehron: Ibn Sino.
- Hofizi Sheroziy. 2013. *Devon*. Toshkent: Tamaddun.
- Alisher Navoiy. 2011. *To'la asarlar to'plami. G'aroyib us-sig'ar*. J.1. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Alisher Navoiy. 2011. *To'la asarlar to'plami. Navodir ush-shabob*. J.2. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Alisher Navoiy. 2011. *To'la asarlar to'plami. Badoe' ul-vasat*. J 3. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Alisher Navoiy. 2011. *To'la asarlar to'plami. Hayrat ul-abror*. J 6. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Alisher Navoiy. 2011. *To'la asarlar to'plami. Lison ut-tayr*. J 8. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.

MATNSHUNOSLIK TEXTOLOGY

“Sabotul ojizin” sharhlari

Rashid Zohidov¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Soʻfi Olloyorning “Sabotul ojizin” asariga yozilgan sharhlari haqida maʼlumot beriladi. Maʼlumki, keng ilm ahli orasida mashhur boʻlgan mazkur asarga oʻz davridan boshlab koʻplab sharhlar bitilgan. Asar matni oddiy xalq uchun ham oʻqishli va tushunarli boʻlishi uchun nasriy bayon qilingan, undagi chuqur tushunchalar maʼnosi izohlangan. Ular sirasidan “Risolayi Aziza” asari “Sabotul ojizin”ga yozilgan sharhlarning eng qadimiy va moʻtabari hisoblanadi. Tojuddin Yolchiqul oʻgʻli baytlar sharhida muallif maqsadini aniq anglagan holda yondashadi. “Risolayi Aziza” yaratilishiga koʻra, asarning tili, undagi ifoda usuli muallif tushuncha va qarashlariga yaqinligi bilan qimmatli manba hisoblanadi. Maqolada asliyatdagi maʼnoning sharhda qay darajada ochib berilgani va shorihning muayyan tushunchalarni anglatishdagi mahorati tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: *matn, manba, davr, dunyoqarash, sharh, izoh, talqin, nasriy bayon.*

Kirish

Hijriy 1221/1806-yili yozilgan “Risolayi Aziza” asari “Sabotul ojizin”ga yozilgan sharhlarning eng qadimiysidir. Matnshunoslik ilmida manbaning qadimiyligi matnning ishonchlilik darajasini belgilashda muhim omil sanaladi. Sharhning yozilish yili bilan Soʻfi Olloyorning vafot sanasi oraligʻi 82 yilni tashkil qiladi. Matn tarixiga nisbatan olinsa, bu unchalik uzoq muddat emas. Demak, “Sabotul ojizin”ning tili, undagi ifoda va bayon yoʻllari, muallifning tushuncha va qarashlari zamon nuqtai nazaridan shorihga ancha

¹ *Rashidov Zohid Fozilovich* – filologiya fanlari doktori, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

Iqtibos uchun: Rashidov, Z. F. 2022. “Sabotul ojizin” sharhlari”. *Oltin bitiglar* 2: 42-54.

yaqin. Xo’sh, bu yaqinlik baytlar sharhida qanchalik aks etgan?

Sharh ilmi qoidasiga ko’ra, manbaning yozilish maqsadi va undan muallif ko’zlagan maqsadni aniqlash shorihning birlamchi vazifasidir. Bu o’rinda “manba maqsadi” bilan “muallif maqsadi” bejiz ajratilmadi. Har qanday sohaga oid manbaning o’z mavzularini taqdim qilish shakllari mavjud. Manbaning bir butun sistema sifatida yuzaga chiqishi qat’iy belgilangan mana shu shakl doirasida kechadi. “Qoidaga muvofiq taqdim qilinish” bilan manba maqsadi yakunlangan hisoblanadi. Muallif maqsadi esa ayni nuqtadan boshlanadi: taqdim qilingan manba matni o’quvchiga qay darajada yetib bordi, to’la anglandimi? Muallif maqsadi ushbu savollarga amalda mukammal javob berishdan iborat. Aslida, vujud e’tibori bilan manbaning maqsadi ham, muallifning maqsadi ham bitta ijodkorda jamlangan. Lekin biz ularni vazifasiga ko’ra farqladik.

Sharh ilmida an’anaviylik va shorih mahorati masalasi

“Sabotul ojizin” shorihi Tojuddin Yolchiqul o’g’li baytlar sharhiga manba va muallif maqsadini aniq anglagan holda yondashgan. Sharh ilmi an’anasiga ko’ra, shorih avval baytning nasriy bayonini keltiradi, keyin har ikki misradan kelib chiqqan umumiy mazmunni Qur’on oyati bilan dalillaydi. So’ngra baytdagi ayrim so’zlarning lug’aviy va majoziy ma’nolarini turli variantlari bilan izohlaydi. Masalan:

*Sano lil xoliqi g’abrovu aflok,
Yaratdi qatraedin gavhari pok.*

Ya’ni maqtamoq va poklamoq ko’k-u yerlarni yaratgan Allohga bo’lsin. Bu ikkini yaratmoqqa avval sabab ul ediki, ko’klarda va yerlarda ibrat ko’pdir. Zero, G’oshiya surasining 18-oyatida aytilganidek: “Ko’rmasmisanki, ko’klarni ustimizda tirgaksiz turadur?” Buni ibrat qilish uchun yoxud shuning uchundirki, qachon Odam o’g’lonlari olamul ashbohdan olami suvratga kelsalar, o’zlarini bilurlik bo’lgach, ko’zlariga avval ko’ringan narsa yer bilan ko’kdir. Demak, ularni ko’rib boshqa narsalardan ibrat olmoq uchundir. Bu yerda “g’abro” yer ma’nosida, “qatra”dan murod – nutfa, ya’ni otalar pushtidan chiqib, onalar rahmiga o’rnashgan gavhari pok – Odam o’g’lonlaridir. Yoki “qatra”dan murod – Abdulloh ibn Abdulmuttolibning shahvat suvidir. “Gavhari pok”dan murod esa – Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamdir. Har qanday bo’lsa ham olamda bo’lgan narsalarni Xoliq taolo ibrat uchun yaratti” [Рисолайи Азиза 2000, 11].

“Sabotul ojizin”ning aqoid ilmi matnlarini xotirada oson

muhrlanib qolishi uchun ravon va sodda uslubda nazmga solingan manba ekanini nazardan qochirmagan Tojuddin Yolchiqul o'g'li ayrim baytlarni mazmunga yondosh aqida masalalari bilan kengaytiradi va shu yo'l bilan muallif maqsadining amalga oshishini osonlashtiradi:

*Xaloyiqning jami'i fe'l-u qavli
Emas bir zarra betaqdiri Mavli.*

Maxluqlarning qilmish-u so'zlari xoh yolg'on, xoh chin bo'lsin, Ollahning taqdiridandir. Chunonchi, yolg'onchilik barcha dinlarda yot ko'riladigan narsadir. Oqil va farosatli kishi agar taqdir bo'lmagan bo'lsa, yolg'on so'zlamas edi. Shuning uchun, bu kimsa yolg'onchi bo'ladi, deb taqdirda yozilgan deyish mana bunday anglanmog'i kerak: bu kimsa tanlagan fe'lini salbiy qilib, har taqdir bilan tiliga kelmaydigan so'zlarni olib, ko'ngliga soldi. Haq taolo esa O'zining ilmi azaliysi bilan bu bandaning ko'ngliga olgan boyagi qasdi yolg'onchilik, o'g'rilik yoki zino qilish bo'lishini bilib, shuni uning taqdiriga yozadi. Agar bu bandaning qasdi Xudoga ibodat qilish, zikri tasbih etish, Qur'on o'qimoq bo'lsa, Haq Taolo buni ham ilmi azaliysi bilan bilib, shuni taqdir qiladi..." [Рисолайи Азиза 2000, 29].

Yuqoridagi birinchi jumla baytning nasriy bayoni bo'lib, unda taqdir masalasi tilga olingan. Sharhdagi qolgan gaplar aqida ilmining navbatdagi masalalari tarkibiga kirib, shorih ularni keltirish orqali mavzuni yanada ravshanroq ifodalashga erishgan.

Shorih ayrim o'rinlarda baytning nasriy bayonini kechiktiradi, mavzuga izohlovchi boshlanma bilan kirib, misradagi kalit so'z orqali baytning butun mazmunini izohlaydi:

*Jamoat ahli sunnat tuzgan erlar
Dedilar: "Turfa nozikdur bu yo'llar.*

Tavhid bobida turli bahslar ko'paymasligi va chuqurlashib ketmasligi uchun ulug' arboblari ko'p urinib ishlar qildilar. Bu eranlar ahli sunnat va jamoat yo'lini tuzib ketdilar. Bu – ajab bir nozikyo'l. Ko'p fahm-u farosat egalarining fahmlari uzilib, tariqi Haqdan chiqdilar va kofir bo'ldilar. Yana ziyoda fahmsizlari ham bor edi, fahmlari yetmay, e'tiqoddan mahrum bo'lib zindiq¹ bo'ldilar. Bu baytda, shuningdek, ilmi kalomni ko'p o'rganmoqning harom ekaniga ham ishora bor. Aytadilarki, o'rtacha zehnlilik kishi ilmi kalomni ko'p o'rganmog'iga zarurat yo'qdir. Bunday kishi bu ilmni yomon mazhablarga javob

¹ Zindiq – xudosiz

berar darajasida bilmog‘i kifoya qiladi...”

“Risolayi Aziza” muallifi Tojuddin Yolchiquil o‘g‘li (1767–1838) ma‘lum muddat (1785-87-yillar) Istambulda yashagani uchunmi sharhda usmonli turk tili unsurlari yaqqol seziladi [Ильясова 2009].

“Risolayi Aziza”da oyat va hadislardagi tarixiy qissalar orqali izohlangan sharhlar bilan birga shorihning o‘zi keltirgan rivoyatlar vositasidagi talqinlari ham ahyon-ahyon uchraydi. Masalan, “Sabotul ojizin”ning “Mav‘iza” deb nomlangan 48-bo‘limidagi ushbu bayt quyidagi rivoyat asosida sharhlangan:

*Na bo‘lg‘ay qatradek tutsang o‘zing gum,
Guhar bo‘lsang, taqilsang toji mardum.*

O‘zingni nayson yomg‘iridek kam tutsang edi. Shoyadki, gavhar bo‘lib, eranlarning boshidagi tojida bo‘lsang. (Rivoyatda keltirishlaricha, Savr yulduzining o‘n beshinchi naysonida yomg‘ir yog‘adi. O‘sha yoqqan yomg‘ir Fors dengizi bilan Rum dengizi tubiga borib, sadaf og‘ziga tushsa, inju bo‘lur. Agar bu yomg‘ir dengiz yuzida qolsa, aytadiki: “Ey rabbim, men quling zaiflarning zaifiman. Shunday ulug‘ dengiz ichida men nima qilayin?” Ana shunday tavozu‘lari uchun Olloh Taolo uni podshohlarning tojida qildi. Shunga o‘xshab biror kishi o‘zini kam ko‘rib turar bo‘lsa, Alloh uni aziz qilib, odamlardan ustun qo‘yadi)” [Рисолайи 2000, 154-155].

Manbasi noaniq bunday rivoyatlar ayrim o‘quvchilarning qiziqishini orttirishi mumkin, ammo kitobning ishonchlilik darajasini pasaytirishi aniq.

Yuqoridagi kuzatishlardan kelib chiqib, Tojuddin Yolchiquil sharhining tarkibiy konstruksiyasini shunday iyerarxiyada tasniflash mumkin:

- *baytning nasriy bayoni*;
- *dalillar* (oyat, hadis, tarixiy qissalar asosida);
- *naxviy tahlil* (arab tili grammatikasi asosida);
- *rivoyatlar* (manbasi noaniq);
- *badiiy san‘atlar bayoni* (asosan, tajnis san‘ati).

Xulosa shuki, “Risolayi Aziza” kitobida Sharh ilmi an‘analarining izi seziladi, shorih matnlar izohida imkon qadar mohiyatga yaqinlashgan. Ayrim talqinlarda mavzudan chalg‘ish, asossiz ma‘lumotlarga suyanish ko‘rinsa-da, mazkur sharhning “Sabotul ojizin” asarini ommalashtirishdagi ahamiyati katta.

Salohiddin Salimiyning XX asr boshida Qozonda chop qilingan “Irshod ul-o‘izin” (to‘liq nomi: “Sabotul ojizin” sharhida muhtojlarga ko‘rsatma”) nomli kitobi, garchi muallif uni sharh deb

nomlasa ham, ko'proq izohli nasriy bayon xarakteridagi asar deyish mumkin. Misol uchun "Qabr azobining bayoni" bo'limidagi:

*Agar haybat bilan qilsa nazora,
Bo'lur g'amgin ko'ngillar pora-pora*

bayti shunday sharhlanadi: "Ul iki farishta mayyitga mahobat ila qarasalar, qayg'uli ko'ngillar pora o'lur" [صلاح الدين سليمي. ارشاد العائدين] . Bu nazmning so'zma-so'z nasrga aylantirilgan varianti. Kitobda aksar baytlarning shu tarzda nasriy bayoni berilgan. Ba'zan mazmun bayoni bilan birga matnda kelgan shakldosh so'zlar ma'nolarini izohlashga urinish seziladi:

*Qo'noqmiz bir kecha dunyoyi hecha,
Na ishlar kechadur bizdin bu kecha.*

Foydasiz, bekor dunyog'a kelan mehmon kabimiz. Bizum boshimizdin na turli ishlar kechadur? *Kecha* lafzining avvalgisi *o'ta* demakdir. Ikkinchisi – kecha, *layl* kabi *kech* demakdir [صلاح الدين سليمي. ارشاد العائدين شرح ثبات العاجزين. مطبعة كريمة قران, ۱۹۹۱, ص. ۸۳]. Shuningdek, ayrim o'rinlarda bayt mazmuni oyatlar bilan dalillangan izohlar ham mavjud:

*Bu mehnat birla ul ammorayi dun,
Na bo'lg'ay mutmainna bo'lsa bir kun.*

Bu yuqorida zikr edilmish mehnatlar birla ul zabun nafsi ammorani buyurduqcha qahrlasak, umiddirki, bir kun kelub mutmainna bo'lmoqliqi «يا ايها النفس المطمئنة ارجعي الى ربك راضية مرضية» ("Ey Ollohning zikri bilan *xotirjam* – *sokin nafs!* Sen Olloh ato etgan ne'matlardan *rozi bo'lgan* va Olloh taolo tomonidan sening amallaringdan *rozi bo'lingan holda Parvardigoring* (huzuri)ga *qayt!*") xitobi birla muhtab bo'lmoqi" [Куръони азим мухтасар тафсири ۲۰۲۰, 690].

"Sabotul ojizin" matnini o'rganishda "Irshod ul-o'izin" kabi izohli nasriy bayonlarning ham o'z o'rni bor. Qolaversa, bu manbani "Sabotul ojizin" uchun maxsus izohli lug'at sifatida ham istifoda etish mumkin.

"Sabotul ojizin"ga yozilgan sharhlar ichida mukammal, qadim sharh ilmi qoidalariga imkon qadar rioya qilingani "Hidoyatut tolibin" ("Ilm toliblariga yo'llanma") asaridir. Asar muallifi Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon al-Farg'oniy sharhga kirishishdan avval kitob avvalida butun bir tadqiqotga material bo'ladigan "ma'lumotlar bazasi"ni taqdim qilgan. Unda mazkur sharhning yozilish sababidan tortib, So'fi Olloyorning tarjimayi holi, o'zigacha

qilingan ishlar – “Risolayi Aziza”, Muso afandi nashrga tayyorlagan nusxagacha qimmatli ma’lumotlar aks etgan. Sharhning o’ziga xos xususiyati shundaki, unda lafzlar o’zaro, misralararo va baytlararo bog’liqlikda sharhlangan. Tushunilishi qiyin so’zlar, tajnis san’ati bilan ifodalangan iboralar etimologik, grammatik va ilmi badi’ qoidalari asosida izohlangan. Matnda kelgan aqidaviy, tarixiy, axloqiy masalalar o’z o’rnida imkon qadar Qur’on va hadis asosida dalillangan, dalili zaif so’zlar va mavzu’ (soxta) hadislar ochiq bayon etilgan, hadis roviylari haqida tegishli ma’lumotlar berib borilgan.

Keltirilgan xulosalar shunchaki ma’lumotlar yig’indisi bo’lib qolmasligi uchun ular ilmiy asosda o’rganilishi shart. Shu maqsadda, salkam to’rt asrdan beri olimlar e’tiborini tortib kelayotgan “Sabotul ojizin” asarining o’rganilish tarixida markaziy o’rinni egallagan “Hidoyatut tolibin” sharhi haqida batafsil to’xtalishni joyiz bildik.

“Hidoyatut tolibin”ni boshqa sharhlardan ajratib turuvchi bosh xususiyat sharh va izohlarning ilmiy asosga qurilganidir. “Sabotul ojizin” mutolaasida o’quvchini o’yga toldiradigan, hatto “Sabot”xonlar orasida o’zaro bahsga sabab bo’lgan bir bayt bor:

*Qilib g’abro madorin zimmayi hut,
Bani Odamg’a andin qism etar qut.*

Bu bayt “Risolayi Aziza”da shunday sharhlangan: “Ya’ni Olloh taolo yerning aslini baliq ustiga qo’ydi. Shu baliq ustidagi yerlarda Olloh odam bolalariga rizq ulashib, birining rizqini keng, ba’zinikini tor qildi. Chunonchi, Zuxruf surasining 32-oyati bunga dalildir”.

“Irshod ul-o’izin”dagi izoh: “Erning kaslarun baliq bo’yinda qilub, ul yerdan bani Odamg’a rizq taqsim edar, ziroatlar edib, vaqtli vaqtinda yemishlar-la rizqlandirmoq kabi” [ارشاد صلاح الدين سليمي. العائدين شرح ثبات العاجزين. مطبعة كريمة قران, 1191, ص. 2].

Endi “Hidoyatut tolibin”dagi sharhga quloq tutaylik: “Erni mador-u turushini baliq ustida qilib, bani Odamga andagi nabotot va samarot va hayvonotdin rizq-u ro’zi nasib etar. “Ruh ul-ma’oniy” sohibi surayi “Nun” tafsirida derki, ba’zilardin rivoyatdurki, “nun” yerni ani ustiga qo’yulgan bir baliqki, ani oti “Yahmut”dur. Bu xususda Ziyoyi Maqdisiy “Muxtor”da va Hokim va boshqalar bir hadis Ibn Abbos roziyollohu anhumadin rivoyat etibdurlarki, Olloh taolo “nun”ni yaratdi. So’ngra yerni ani ustig’a yoyildi va qo’yuldi. Bas, baliq qimirlab iztirob etdi, bas yer ham qimirladi va harakatga keldi. Bas, tog’lar birlan mahkam dastvor etildi. So’ngra Ibn abbos roziyollohu anhumo: ” ن * و القلم ... ” (“Qalam” surasi 1-2-oyatlar) ni o’qudilar. Va bu tafsir Mujohid rahimahullohdin ham rivoyatdur. So’ngra sohibi “Bahr”din naql etib derki, shoyad “nun” harfini hurufi

hijodin bir harf oti ekanidan, boshqa tamom ehtimolotlar sihatga yetmagandur. Va bu soʻzni Alusiy ham taʼyid etibdur. Ahli kashflardin Sayyidiy Abdulaziz Dabbogʻ hazratlaridin “Abriz”da yerni shamol ustida muallaq ekanini naql bitibdur. Bu soʻz bu kungi iktishofot asrida maʼlum boʻlgan yerni muallaqligigʻa muvofiqdur. Va Oллоhni kamoli qudratigʻa dalolat qilur” [هداية الطالبين]. [شرح ثبات العاجزين صوفى الله يار. ص: ١].

Avvalgi ikkita sharhda bayt mazmuni nasriy bayon qilingan-u, ammo bayon aniqlik darajasiga yetmagan. “Risolayi Aziza” dalil qilib keltirgan Zuxruf surasining 32-oyati ham bahstlab misraga emas, bevosita baytning ikkinchi misrasi mazmuniga aloqador.

“Hidayatut tolibin” sharhida esa tamoman boshqa manzarani kuzatamiz. Tadqiq qatʼiy ilmiy tizimga boʻysundirilgan. Avval, bayt chiroyli suratda nasriy bayon qilingan. Keyin bahslarga sabab boʻlgan misradagi xabarning dalili tafsir ilmida moʻtabar sanalgan manba – “Ruh ul-maʼoniy”¹ asosida taqdim etilgan. Yana bir necha ishonchli manbalardan – Ziyoyi Maqdisiyning “Muxtor” asaridagi va Hokimning “Buxoriy va Muslimning “Sahih hadislar toʻplamidagi hadislariga qoʻshimcha” (“المستدرک على الصحيحين للحاكم”) asarida Ibn Abbos roziyollohu anhumadin rivoyat qilingan hadis bayt mazmunini tasdiqlovchi iqtibos sifatida keltirilgan. Sharhda bu hadis Mujohid rahimahullohdan ham rivoyat qilingani aytiladi. Shuningdek, mazkur hadisning Ibn Abbosga boruvchi boshqa sanad bilan (Abu Zakariyo Yahyo ibn Muhammaddan – Muhammad ibn Abdussalomdan – Isʼhoq ibn Ibrohimdan – Jarirdan – Aʼmoshdan – Abu Zobyandan – Ibn Abbosdan) rivoyat qilingan variantini “Tafsiri Bagʻaviy”, “Al-Bahr ul-madid”, “Tafsir us- siroj il-munir”, “Tafsir ul-Bayzoviy”, “Tafsir un-Nasafiy” kabi moʻtabar manbalarda ham borligini aniqladik.

Shorih bitta misra sharhida atroflicha maʼlumot beradi, lekin shu bilan qanoatlanmaydi, Abu Hayyon Muhammad ibn Yusufning “Tafsir ul-Bahr ul-muhit” tafsiridagi mavzuga aloqador naqlni oʻrtaga tashlaydi, yaʼni baytdagi “zimmai hut” iborasi sharhida zikr etilgan “Qalam” surasining birinchi oyatidagi “nun”dan “baliq” nazarda tutilmagan, balki “nun” – hijo harflaridan birining nomidir, bundan boshqa barcha ehtimol qilingan maʼnolar toʻgʻri emas, degan fikrni keladi. Diqqat qilinsa, gapning siyoqidan shorihning ham bu qarashga mayli borligi seziladi. Shuning uchun boʻlsa kerak, bu qarashni Mahmud Alusiy ham quvvatlaganini qistirib oʻtadi. Soʻngra xulosasining qatʼiy ekanligini bildirish maqsadida geograf

¹“Ruhul maʼoniy” tafsirining mufasssiri – Mahmud Alusiy, kuniyati – Abu Fazl.

olim Sayyidiy Abdulaziz Dabbog‘ning “Abriz” nomli asaridan yerning shamol ustida muallaq turgani bilan bog‘liq ilmiy qarashni havola qiladi. Sharh nihoyasida zamonaviy kashfiyotlarni e‘tirof qilarak, sharhdan ko‘zlangan bosh maqsadni yana bir bor esga solib qo‘yadi: “Bu so‘z bu kungi iktishofot asrida ma‘lum bo‘lgan yerni muallaqligig‘a muvofiqdur va Allohni kamoli qudratig‘a dalolat qilur” [سید حبیب اللہ بن سید یحی خان. ہدایۃ الطالبین شرح ثبات العاجزین صوفی اللہ یار. ص: ۱].

“Hidoyatutṭolibin”ni nashrga tayyorlagan O.Alimov shorihning mazkur baytga nisbatan tutgan pozitsiyasini quvvatlab, havolada shunday izoh beradi: “Ma‘lumki, ba‘zi manbalarda keltirilgan xabarlar o‘sha davr muhitidan kelib chiqqan holda, davr kishilarining aqllari qabul qilishi darajasida bayon etilgan bo‘lib, yuqoridagi iboralar ham ushbu zikr etilgan holatlardan xoli emas. Matn davomida hozirgi kashfiyotlar asrida fan tomonidan isbotlangan yerning fazoda muallaq ekanini bayon etuvchi so‘zlar keltiriladi” [Хидоятут толибин 2009, 26].

“Hidoyatut ṭolibin”ning yana bir fazilati muayyan bayt sharhlanar ekan, o‘rni-o‘rni bilan muqaddam amalga oshirilgan sharhlarga, xususan, Tojuddin Yolchiqul o‘g‘li sharhiga munosabat bildirib ketiladi va bu munosabat aksar hollarda “Shorih sahv etgandir” yoki “Shorih bu bayt tavjihida sahv etibdur” jumalari bilan ifodalanadi. Masalan, “Munojot” deb nomlangan 25-bo‘limda quyidagi bayt shunday sharhlangan:

*Ilohi, e‘tiqodi pok birlan,
Mani og‘ishta qilg‘il, xok birlan.*

Ilohi, e‘tiqodi (beshoiba) pok ahli sunnat va jamoat birlan meni jonimni olib, qabrga kirgizib, tufroqqa qo‘shub (o‘lar vaqtimda iymondin ayirmog‘il). (Shorih bu bayt tavjihida sahv etibdur)”. Mazkur baytning “Risolayi Aziza”dagi sharhi: “Allohim, keng rahmating ila meni yaratganing tuproqqa pok e‘tiqodimni qorishtir, ya‘ni meni tuproq kabi tavozu‘li qilib, martabamni balandlarga ko‘targil”.

Habibulloh Sayyid Yahyoxon sharhida asosiy e‘tibor *iymonga* qaratildi. Bu ma‘no qavs ichidagi “o‘lar vaqtimda iymondin ayirmog‘il” jumlasini bilan ta‘kidlandi. Sharhning bunday sharhlanishiga shorihning bir nechta qarinasini (dalillari) bor.

Avvalo, bu bo‘lim aqida mavzularining markazida turuvchi iymon masalasining tarkibiy qismlaridan hisoblanuvchi ajal, qabr azobi, qiyomat, tarozi, sirot, bihisht, do‘zax, kavsar tushunchalarini bayon qiluvchi bo‘limlarning davomi sifatida namoyon bo‘lgan. Zero, aqida ilmining bosh maqsadi bandaning bu dunyodan iymon

bilan ketish g'oyasiga qaratilgan. Bu har qanday mazmunda birlamchi e'tibordagi masaladir. Qolaversa, yuqoridagi baytning davomida *Dilim sodiq tilimga bo'ldi qoil, Bu so'zdin qilmag'il bir zarra moil*, ya'ni: "Tilim aytuvchi bo'lgan iymon kalimasini dilim tasdiqlovchidir, meni bu so'z-u e'tiqoddan o'zga tarafga buruvchi bo'lma" mazmunidagi bayt kelganki, bu holat iymon shartlaridan sanalgan "kalimai toyyiba"ni tilda iqror qilib, dilda tasdiqlash zarur" ma'nosiga ochiq-oydin ishoradir.

Tojuddin Yolchiqul o'g'li sharhida esa baytning ust qatlamida ish ko'rilgan. Haqiqatan ham misralarning zohiridan "meni pok e'tiqodim bilan tuproqqa qorishtir" ma'nosi anglashiladi. Ammo bunday tushunish birlamchi e'tibordagi masalani keyingi o'ringa tushirib qo'yadi. Tojuddin Yolchiqul o'g'li bu sharhida iymonga emas, tuproqqa e'tibor qaratmoqda, tuproq bir necha sifatlar bilan vasflangan: "yaratganing tuproq" – Olloh insonni yaratish uchun tuproqni tanlagani; "tavozi" – kamtarlik, bandalikning oliy maqomi ("martabamni balandlarga ko'targil" jumlasiga bunga ishora).

Albatta, bayt ma'nosini shunday tushunish ham mumkin. Shuning uchun Habibulloh Sayyid Yahyoxon o'zidan oldin qilingan bu sharhga munosabat bildirar ekan, uni tavjih, ya'ni "bir qarash" sifatida e'tirof etadi. Endi bu tavjihning sahvi (xato) deb topilishiga kelsak, u ikkilamchi e'tibordagi narsaning birinchi o'ringa chiqarib qo'yilishi bilan izohlanadi.

Sharhlarni qiyoslar ekanmiz, ayrim so'zlar izohida ixtilofli o'rinlar ham kuzatiladi. Misol uchun ushbu baytni olib ko'raylik:

*Vujuding uqbasi ermas alosha,
Tal osha kelgan o'turmas talosha.*

Baytning "Hidoyatut tolibin"dagi sharhi: "Vujudingni tariqat yo'lidagi uqbasi alosha (jag')ni qimirlatib, qil-u qol va mujodala va munozaraga diqqati azizni sarf etmoq emas. Balki, bu yo'lda nafs-u shayton-u havoga ergashmoqdin vujudga keladigan ko'p uqubat va dovonlar borki, solik boyad alardin o'tsun. Bu ko'tallardin oshib, nafs-u havoni oyog'osti qilib, ezib kelgan kishi har kimsa birla munozara va mujodala qilib, talashib-tortishib o'turmas. "Uqba" ko'tal – dovon ma'nosida. "Alosha" – jag' suyagi. "Tal" lafzi arabiy, "tepa va ko'p to'plangan tufrog'" ma'nosidadur. "Osha" oshmoqdin ma'xuz, (ustidin o'tub) ma'nosida. Ikkinchi "talosha" talashmoqdin ma'xuz, mujodala ma'nosidadur" [هداية الطالبين سيد حبيب الله بن سيد يحيى خان. هداية الطالبين [شرح ثبات العاجزين صوفى الله يار. ص: ۳۳۱].

Shorih baytdagi "aloshi" so'zining lug'aviy ma'nosini *jag'; jag' suyagi* deya ta'riflagan. Ammo bu so'zning qaysi tilda qo'llanishi va

qaysi lug‘atda bu so‘zga shunday ma‘no berilgani aytilmagan. Mazkur bayt ifodalangan bo‘limda behuda bahs-munozarani qoralash mavzusi haqida so‘z boradi. Shundan kelib chiqib shorih bayt mazmunini mavzuga buradi: muvaqqat berilgan diqqat-u e‘tiborni jag‘ni behuda qimirlatishga sarflamaslikka chaqiradi. To‘g‘ri, bu yo‘l (ya‘ni, matnni o‘zidan oldingi va keyingi matn ma‘nosi bilan bog‘lab izohlash) sharh ilmi mantig‘iga, qolaversa, ayni mavzuga muvofiq ma‘no. Lekin arabcha “tal” lafzining *tepa* ma‘nosi; ish-harakatning qay tarzda bajarilganini bildiruvchi “osha” ravishining *oshmoq* fe‘lidan olingani, “talosha”ning *talashmoq* fe‘lidan olinib, behuda bahs-munozora ma‘nosida qo‘llangani aytilgani holda, negadir “alosha” so‘ziga izoh berilmagani bizni bu so‘z atrofida izlanishga undadi.

“Alosha” so‘zining turkiy lahjalarda quyidagicha ma‘nolari borligi aniqlandi [Севортян 1974, 136-137]:

- 1) olochuq ya‘ni, chayla, kapa;
- 2) pastlik;
- 3) past bo‘yli; oriq (jonivorlarga, xususan, otga nisbatan);
- 4) zaif, kuchsiz.

“Risolayi Aziza”dagi sharhda bu so‘zning ikkinchi ma‘nosi qo‘llangan: “Vujuding tog‘i baland emasdir, ya‘ni naqadar olim bo‘lsang-da, ilmning oxiri bo‘lmagani uchun, unga yetishgan kishi bo‘lmassan. Shuning uchun seni biron bahsda yengib, yiqitib xor qilishi mumkin. Shunday ekan tog‘ osha kelgan, ya‘ni adamdan vujudga kelgan kishi odamlar bilan bahslashib, urishib, talashib o‘tirmas. Ruh olamidan vujudga kelgan olim ekaningni hisobga ol-da, yana borliqdan adamga ketishingni ham bil. Buni hisobga olib, amal qilgin va bahslarni qo‘ygil” [Рисолайи Азиза 2000, 147].

Tojuddin Yolchiqul o‘g‘li bayt mazmunidagi birlamchi ma‘noni, ta‘bir joyiz bo‘lsa, birlamchi ma‘noni ochuvchi kalit so‘zni to‘g‘ri anglagan. Baytdagi “vujuding” so‘zi *jasad, badan* ma‘nosida emas, balki *mavjudlik, yo‘qlikdan borliqqa kelish* deb anglanar ekan, ma‘no maishiy chegaradan ko‘tariladi. Behuda bahs-u munozaraga kirishish maishiy olamda kechadigan hodisa. “Yaralish, yo‘qlikdan borliqqa kelish” mo‘jizasi oldida “behuda bahs-munozara” mavzusi haqiqatan ham kichik, arziyas hodisa. Shunday ulug‘ dovon, tepaliklardan oshib kelgan inson endi umrini talashib-tortishishlar bilan o‘tkazsa?! “Risolayi Aziza” muallifi mana shu birlamchi ma‘noni iroda qilgan. Uni qanday saviyada yetkazgani keyingi masala. “Alosha” so‘zining sharhda qo‘llangan ma‘nosi ham iroda etilgan maqsadga xizmat qilgan.

“Irshodul o’izin”da bu bayt shunday sharhlanadi: “Ya’ni vujuding mashaqqati tabahshak digil, buyukdir. (اذا كان الامر كذلك) (ish shunday ekan), tov osha kelgan kishi kishilar ila talashub o’lturmas. Tov mingan kimsaning so’vlavi torg’ab-talasharg’a mumkin bo’lmazdir. *Vujuding uqbasi* demak “mashaqqat” ma’nosinadir. Farazan o’ylasang, var qabrdan qo’bsang, bor anda borg’och, nomalar o’ngdan berilasi bor bo’larni fikrlagan kishi kishini ilzom qasdi ila toloshub o’lturmas. “Olosha” demak *tuban yer* demakdir. Turkiyda “enish yer” derlar. “Tal” dediki: (ارض مرتفع من الرمل) (tuproqdan ko’tarilgan yer) *buyuk tog’* demakdir” [ارشاد الدين سليمى. اثبات العائدين شرح] 821. ص. ۱۱۹۱, مطبعة كريمة قران].

Salohiddin Salimiy baytdagi “alosh” so’zini “tuban yer”, ya’ni lug’atda *pastlik* deb berilgan ma’no bilan izohlaydi. Sharh so’nggida bu so’zga “enish yer” ya’ni *nishablik* ma’nosini qo’shimcha qildi.

Keyingi har ikki sharhda “alosh” so’zining lug’aviy asosga ega ma’nosi qo’llangani uchun e’tibor birlamchi ma’nodan uzoqlashmagan. Garchi Salohiddin Salimiy *vujuding uqbasidan* maqsad “mashaqqat” deb birikma ma’nosini toraytirgan bo’lsa-da, qabrdan turish, mahshar tomon yurish, nomaning o’ng qo’ldan kelishi kabi ulug’ va dahshatli manzaralar tafakkuri bilan mavjudlik tushunchasini zamon va makonda kengaytirgan.

Xulosa

“Sabotul ojizin”ning har uch sharhi matn mazmunini bayon qilish jihatidan bir-birini to’ldiruvchi birlamchi manbalardir. Sharh ilmi an’analariga ergashish jihatidan qaralsa, “Hidoyat ut-tolibin” sharhi qolgan ikki asardan yuqoriroq martabada turadi. Bu afzallikning sabablari, asosan, quyidagi holatlarda namoyon bo’ladi: sharh uchun taqdim qilingan matn avval nisbatan jiddiy matnshunoslik tekshiruvidan o’tkazib tanlangan; aksar sharhda mazmunning birlamchi ma’nosi to’g’ri topilgan va e’tibor izchil tarzda shu nuqtaga qaratilgan; qoidaga ko’ra sharhning ilmiy qimmatini manbashunoslik faoliyati belgilagan; dalil keltirishda zaruriy batafsillikka rioya qilingan; sharhlarning tarkibiy qismlari muayyan tizimda tuzilgan; bilvosita matn sharhidan chekinishlar qat’iy chegara bilan ajratilgan (tavjih, tazyil, tanbeh, tanbehoh, nozim rahimahullohning so’zi kabi).

Adabiyotlar

Ильясова Г. Р. 2009. *Лингвотекстологические особенности произведений “Сабат ал-гаджизин” Аллаяра Суфи и*

- "Risala-i Gaziya".* Дисс. кан. фил. наук. Уфа.
Қуръони карим. 2004. Шайх Алоуддин Мансур. Ўзбекча изоҳли таржима. Қуръони каримни ўрганиш илмий маркази. صلاح الدين سليمى. ارشاد العائدين شرح ثبات العاجزين. مطبعة كريمة قزان, 1911, ص. 180. سيد حبيب الله بن سيد يحيى خان. هداية الطالبين شرح ثبات العاجزين صوفى الله يار. ص: 1
"Ҳидоят ул-толибин" – "Сабот ул-ожизин" шарҳи. 2009. Нашрга тайёрловчи О. Алимов. Тошкент: "Тошкент ислом университети" нашриёт-матбаа бирлашмаси.
Севортян Э.В. 1974. *Этимологический словарь тюркских языков.* Москва: Наука.

Review of "Sabotul Ojizin"

Rashid Zohidov¹

Abstract

This article makes available the information about Sufi Allayar's analysis on "Sabotul Ojizin". It is known that this work, which is popular among the community, had received many appraisals since its time. The text of the work is narrated in prose so that it can be readable and understandable even for the common people, and deep concepts are explained. Among them, Risolai Aziza is the oldest and most authoritative commentary on "Sabotul Ojizin". Tojuddin the son of Yolchiqul approached to the verses with clear understanding of the author's purpose. According to the creation of "Risolai Aziza", it is a valuable source, with its' language, the way of expression, close to the concepts and views of the author. In "Sabotul Ojizin" the reviewer of this article analyzes the extent to which the original meaning is revealed in the commentary and the reviewer's proficiency in expressing concepts are noticed.

Key words: *text, source, period, point of view, commentary, explanation, interpretation, prose.*

¹ *Zohid F. Rashidov* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-mail: rzohid1@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-6521-5219

For citation: Rashidov Z. F. 2022. "Review of "Sabotul Ojizin". *Golden scripts* 2: 42–54.

References

- Ilyasova G. R. 2009. *Lingvotekstologicheskie osobennosti proizvedeniy "Sabat al-gadjizin" Allayara Sufi i "Risala-i Gaziza"*. Diss. kan. fil. nauk. Ufa.
- Qur'oni karim*. 2004. Shayx Alouddin Mansur. O'zbekcha izohli tarjima. Qur'oni karimni o'rganish ilmiy markazi.
- Saladin Salimi. *Guidance for those in need explaining the steadfastness of the helpless*. Karimiyya Kazan Press, 1911, p.20.
- Syed Habibullah bin Syed Yahya Khan. *Guidance of the students explaining the steadfastness of the helpless Sufi God Ya*. P:1.
- "Hidoyat ut-tolibin" – "Sabot ul-ojizin" sharhi*. 2009. Nashrga tayyorlovchi O. Alimov. Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi.
- Sevortyan E.V. 1974. *Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazykov*. Moskva: Nauka.

Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning yangi topilgan asarlari

Bahriddin Umurzoqov¹

Abstrakt

Mazkur maqola, xususan, Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy (vaf. 939/1532-1533)ning ilmiy-adabiy merosi, ijodkor yozgan asarlarining sanog'i, ulardan Aliy Safiy qalamiga tegishli bo'lmaganini ajratish hamda ota va o'g'il Koshifiylar asarlarining mualliflik masalasiga yanada aniqlik kiritish kabi matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishidagi muhim masalalar tahliliga bag'ishgan.

Maqolada Faxruddin Aliy Safiyning shu kungacha fanga noma'lum bo'lgan "Sharhi Masnaviy", "G'azali Aliy Safiy", "Tuhfat ul-Xoniy" kabi bir nechta yangi asarlari qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar berilgan. Muallif Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning (vaf. 939/1532-1533) ilmiy-adabiy merosini o'rganib chiqib, ulardan Aliy Safiy qalamiga tegishli bo'lmaganlarini ajratish hamda ota-o'g'il Koshifiylar (Mavlono Husayn Voiz Koshifiy uning otasi bo'lgan) asarlarining mualliflik masalasiga aniqlik kiritish kabi matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishidagi muhim masalalarga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: *qo'lyozma, manbashunoslik, "Sharhi Masnaviy" – "Lubbi lubob", "Kitobi Ma'naviy fiy intixobi al-Masnaviy", "Tuhfayi Xoniy" ("Xoniyga tuhfa"), "G'azali Aliy Safiy", "Devon" (G'azallar to'plami), e'tiqod, odob-axloq (etika), tasavvuf, irfon.*

Kirish

XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari Hirot ilmiy-adabiy maktablari gullab-yashnagan davr bo'ldi. Bu davrda, haqiqatan, Hirotada adabiyot va san'atning barcha sohalarida ulkan yuksalishlar yuz berdi, madaniy-ma'naviy sohalarda katta yutuqlar qo'lga kiritildi.

¹ Umurzoqov Bahriddin Safarovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

E-pochta: bahrum_nur@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-8870-156X

Iqtibos uchun: Umurzoqov, B. S. 2022. "Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning yangi topilgan asarlari". *Oltin bitiglar* 2: 55-67.

O'zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligining ulug' darg'asi, atoqli navoiyshunos olim, prof. H.Sulaymonov Navoiy shaxsi va zakosi haqida shunday deb yozgan edi: "Jahon adabiyoti tarixida shunday ulug' so'z san'atkorlari borki, ulardan har birining ijodiyoti umumbashariy madaniyat taraqqiyotida butun bir davrni tashkil etadi. Ayni zamonda ustod sifatida ular o'zlaridan keyingi avlodlarga yangi g'oyaviy-badiiy yo'nalish beradilar" [Навоий 1963, 6]. Haqiqatdan, Nuruddin Abdurahmon Jomiy (vaf.897/1492) va Alisher Navoiy faoliyati va adabiy merosi zamondoshlaridan ko'pchilikning ulug'vor ijodiy ishlariga sabab bo'lgan. Alisher Navoiyning moddiy homiyligi, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy rahnamoligi natijasida barakali ijod qilganlardan biri – Mavlono Husayn Voiz Koshifiy (vaf. 910/1504) bo'lsa, ikkinchisi – uning o'g'li Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviydir.

Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy – nasabi, nisba - taxallusi, ilmiy-adabiy merosi – asarlari haqida

Yetuk manoqibnavis, "Xojagon tariqati naqshbandiya-ahroriya suluki tazkirachisi" deya ta'riflangan Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy (vaf. 939/1532-1533) o'z davrining nodir ijodkor adiblaridandir.

Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning ijodi dunyoviy va diniy ilmlarning turli sohalarini qamrab olganligi bilan ahamiyatli. Aliy Safiyning asarlari, xususan, uning "Rashahotu ayn ul-hayot" ("Hayot bulog'i tomchilari") asarida ajdodlarimiz ilmiy-irfoniy merosi orqali yuksak fazilatlariga ega bo'lgan insonni tarbiyalash, yoshlarni dinimiz asoslari orqali sog'lom tafakkur va pok axloqqa targ'ib qilish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Aliy Safiy barcha asarlari muqaddimasida o'z ismini quyidagicha keltirgan [Rashahot 33, 2; Rashahot 632, 1]:

علي بن الحسين الواعظ الكاشفي المشتهر بالصفى

(Tarjimasi: "Safiy" taxallusi bilan tanilgan – Aliy ibn Husayn Voiz Koshifiy") [Rashahot 1b v; Latoyif at-tavoyif: 1b v; Hirz al-amon min fitan al-zamon 1b v; Odob al-ashob 1b v; Rashahot 2004, 14.]

Ma'lum bo'lmoqdaki, ijodkorning ismi "Aliy" (علي), otasining nomi esa "Husayn Voiz Koshifiy" (الحسين الواعظ الكاشفي)dir. Aliy Safiyning iftixor laqabi (sifati, unvoni) "Faxruddin"dir (فخرالدين). Ijodkorning ba'zi asarlari qo'lyozmalari avvalida unga "Safiyuddin" (صفى الدين) hurmat laqabi ham berilganini ko'ramiz [Tehron-KMShM. Rashahot: 1a v].

"Safiy" (صفى) esa uning o'zi barcha asarlari muqaddimasida

urg'u bergan xos taxallusi bo'lib, bu arabcha so'zning ma'nosi esa "pok, toza, tanlangan", demakdir. Bu so'zning birlik shakli "Safiy" (صفي), ko'pligi "Asfiyo" (أصفياء) [Навоий асарлари луғати 1972, 552].

Chunonchi, Aliy Safiy "Rashahot" avvalida o'z taxallusini har ikki shaklda, ya'ni jumla boshida "al-mushtahar bi-s-Safiy" (المشتهر بالصفى), jumla oxirida esa "va sharrafahu bi-kamoli mutobaati asfiyoihi" (و شرفه بكمال متابعة أصفياه) [Rashahot 1b v] deya *tajohuli orifona*, ya'ni "bilguvchining o'zini bilmaganga solishi" san'atini qo'llaganini ko'ramiz.

Aliy Safiyning otasi Husayn Voiz Koshifiydir. Bu zotning to'liq nomi Mavlono Kamoluddin Husayn ibn Aliy Voiz Koshifiy Sabzavoriy bo'lib, shunga ko'ra, Aliy Safiy bobosining ismi ham "Aliy" bo'lgan. Biz hozirgi zamonaviy adabiy o'zbek tilida "Aliy" (علي) ismini nutqda ham, yozuvda ham "Ali" deb aytishga, yozishga odatlanganmiz. Holbuki, "Aliy" – bu otning oxirgi harfi "y" o'zak tovushi bo'lib, uni tushirib "Ali" deyish to'g'ri bo'lmaydi. Bu shevaga xos bo'lib, og'zaki nutqda shunday urfda bo'lgan, ammo adabiy, xususan, mumtoz o'zbek tilida bunga yo'l qo'yilmaydi [Рустамий 2014, 81].

Mavlono Voiz Koshifiy haqida Alisher Navoiy "zu funun" (ذو الفنون), ya'ni "allomayi zamon", deb yozgan. Aliy Safiy o'z otasining ana shu yuksak ijodkorlik martabasiga umr bo'yi havas qilgan. Mana shu boisdan ham u, eng avvalo, o'z otasi Mavlono Husayn Voiz Koshifiy bilan, shuningdek, zamondoshlari – Hirot ilmiy-adabiy maktabining sermahsul va zabardast ustoz ijodkorlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy bilan ham ijobiy ilmiy-ijodiy musobaqada bo'lgan.

"Safiy" (الصفى) taxallusini shoirga ustozi Mavlono Abdurahmon Jomiy bergani naql qilinadi [Rashahot 2004, 11].

Aslida, Faxruddin Aliy o'ziga "Ziyo(uddin)" (ضياء الدين) deb taxallus tanlab, bu masalada Abdurahmon Jomiyga murojaat qiladi. Jomiy esa unga shunday deydi: "Sen "Ziyo" (ضياء) taxallusingni o'g'limga (Yusufga – B.U.) bergin – uni "Ziyouddin Yusuf", deb ataymiz, o'zingga esa "Safiy" deb taxallus qo'ygil!"

Nazarimizda, Mavlono Jomiy bu taxallusni "...va ul zot bilan tabarruklanilgay" (و يتبرك به---) [Rashahot, 5] niyati va umidida Hazrat Payg'ambarimiz Muhammad *alayhi-s-salom*ga nisbat berilgan muborak ismlar orasidan tanlab bergan. Chunki "Daloyil ul-xayrot" ("Yaxshiliklarning dalolatlari") asarida Hazrat Muhammad *alayhi-s-salom*ning 203ta "Asmo ul-husno"si [اسماء محمد صلى الله عليه وسلم] [[الدلالات الواضحات على دلائل الخيرات, 2012, 147-166], ya'ni ma'nosi chiroyli ismlari berilgan bo'lib, mazkur muborak ismlarning o'ttiz birinchisi

“Safiyy” (150, 2012) [الدلالات الواضحات على دلائل الخيرات 2012, 150] bo‘lib, “pok, toza, ozoda”, degan ma‘nolarni anglatadi.

Shu kundan boshlab Faxruddin Aliy o‘z asarlariga “Safiyy” (الصفى) deb taxallus (imzo – B.U.) qo‘ya boshlaydi va ijodkor ana shu taxallus bilan ma‘lum-u mashhur bo‘ladi [Rashahot 2004, 9].

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti (O‘zR FA ShI) qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan ijodkorning qalamiga mansub barcha manzumalari – g‘azal, doston-u qasidalarida, risola, manoqib hamda tazkiralarda biz faqat ana shu taxallusni ko‘ramiz. Hatto Aliy Safiyning eng yirik hajmli asarlaridan biri – “Rashahot”dagi ko‘plab ruboiy va qasidalarida aynan mana shu taxallus qo‘llanilgan.

Aliy Safiyning yashab ijod etgan joyi, vafot etgan va dafn qilingan yeri ham Hirot bo‘lgani uchun “al-Hiraviy” (الهروي) nisbasini olgan [Kara, Mehmed 1996, 256]. Biz ijodkorning nisbasini uning otasi taxallusidan oson farqlash maqsadida “Koshifiy Hiraviy” deb nomlashni ma‘qul ko‘rdik.

Ba‘zi xorij tavsiflarida, masalan, “Türkiye yazma eserleri toplu katalogu” (“Turkiya qo‘lyozma asarlar to‘plami”)da Aliy Safiy yanglish tarzda “al-Bayhaqiy” (البيهي), “al-Valiy” (الولي) nisbalari bilan zikr qilingan [Türkiye yazma eserleri toplu katalogu 1994, 30]. Mazkur nisba-taxalluslar, aslida, Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga tegishlidir [Umurzoqov 2019, 15].

Aliy Safiy – sermahsul ijodkor. Quyidagi asarlar shu vaqtgacha Aliy Safiy qalamiga mansub deb e‘tirof qilingan: “Rashahotu ayn il-hayot” (“Hayot bulog‘idan tomchilar”), “Latoyif ut-tavoyif” (“Ajoyib lutf so‘zlar”), “Anis ul-orifin” (“Orif zotlarning hamrohi”), “Hirz ul-amon min fitan il-zamon” (“Zamona fitnalaridan xalos bo‘lish uchun omonlik choralari”), “Farasnomayi Safiy” (“Safiyning ot haqidagi dostoni”), “Odob ul-ashob” (“Birodarlik odobi yoki birodarlar uchun odobnoma kitobi”), “Lavoyih ul-qamar” (“Oyning ko‘rinishlari”), “Manzumayi Mahmud-u Ayoz” (“Mahmud va Ayoz haqida she‘riy doston”), “Asrori Qosimiy” [Latoyif at-tavoyif 1373 /1953, 14].

Tojikistonlik tadqiqotchi A. Saidmukarramning fikriga ko‘ra, Aliy Safiyning quyidagi asarlari bor: “Mahmud va Ayoz”, “Rashahotu ayn il-hayot”, “Latoyif ut-tavoyif”, “Anis ul-orifin”, “Hirz al-amon min fitan az-zamon”, “Asrori Qosimiy”.

A. Saidmukarram o‘z tadqiqotida Aliy Safiyning ana shu oltita asarini sanab o‘tgan, xolos [Abduqodirzoda 2020, 13].

O‘zR FA ShI asosiy fondida “Asror-i Qosimiy” (“Qosimiyning sirlari”) qo‘lyozmasi mavjud. Biz bu asar bilan tanishib chiqdik

va natijada ushbu asar Aliy Safiyga emas, balki ijodkorning otasi Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi.

Tojikistonlik olim M.Ne'matov o'z tadqiqotida Ali Safiyning yana bir asari, ya'ni "Lug'ati Aliy Safiy" ("Aliy Safiyning so'zligi") haqida axborot bergan [Ne'matov 2009, 14].

Afsuski, O'zR FA ShI fondida, va umuman, Toshkent qo'lyozma xazinalarida bu "Lug'ati Aliy Safiy" asarining qo'lyozma va toshbosma, shuningdek, zamonaviy nashri mavjud emas.

Tojikiston FA Sharq qo'lyozmalari katalogidagi ma'lumotga ko'ra, mazkur asar – "Lug'ati Aliy Safiy" qo'lyozmasi Tojikiston FA Sharq qo'lyozmalari fondida saqlanadi va u muallifning dastxat nusxasi bo'lishi ham mumkin. Shaxsiy arxivimizda Aliy Safiyning dastxati mavjud bo'lgani bois, kelgusida bu asarni sinchiklab o'rganib, bu masalaga oydinlik kiritish umididamiz.

Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning yangi topilgan asarlari quyidagilardir: "Sharhi Masnaviy" – "Lubbi lubobi Masnaviy", "Tuhfayi Xoniy", "G'azali Mavlono Faxruddin Aliy mutaxallas ba Safiy". Yaqinda biz Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning shu kunga qadar noma'lum bo'lib kelgan yana ikkita yangi asari qo'lyozmasini va bir g'azalini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. To'g'ri, bu topilmalar kichik hajmli asarlardir. Ammo mazkur yangi topilmalarning shu vaqtgacha fanga noma'lum bo'lib kelgani va manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida umuman tadqiq etilmagani biz uchun muhim.

1. Bu qo'lyozmalardan biri ijodkorning "Sharhi Masnaviy" ("Masnaviy" sharhi") asaridir. Asarning to'liq nomi – "Lubbi lubobi Masnaviy" (لب لباب مثنوی). Tojikistonlik tadqiqotchi A. Saidmukarram ushbu asarni eronlik olim S.Nasifiy bergan ma'lumotga, aniqrog'i, "Lubbi lubob" nomi bilan ushbu olim chop ettirgan Tehron nashriga asoslanib, Husayn Voiz Koshifiyning asari", degan xulosaga kelgan [Abduqodirzoda 2020, 13].

Ammo O'zR FA ShI asosiy fondi kartotekasi qaydlarida Husayn Voiz Koshifiyga yana bir asar – "Kitobi Ma'naviy fiy intixobi al-Masnaviy" (کتاب المعنوی فی انتخاب المثنوی) asari ham nisbat berilgan. Kartotekadagi ushbu qayd-ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, har ikki asar Mavlono Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub bo'lib chiqmoqda.

Biz "Lubbi lubobi Masnaviyning" (لب لباب مثنوی) O'zR FA ShI fondida mavjud o'nga yaqin qo'lyozma nusxalari bilan tanishib chiqdik. Natijada bu asarning kattagina qismi, haqiqatan, Mavlono Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub ekanligi, ammo asarning oxirgi qismi allomaning o'g'li Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy tomonidan

yozilganligi ma'lum bo'ldi. Taxminimizcha, muallif mazkur asarini tamomlay olmasdan vafot etgan, ushbu asarni keyinchalik uning o'g'li Aliy Safiy yakuniga yetkazgan.

Biz bu xususda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish niyatidamiz. Chunki O'zRFA ShI kartotekasida "Masnaviy"ning sharhi hisoblangan "Javohir ul-asror – Kashf ul-ma'orib" nomli yana bir asar Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga nisbat berilgan. Holbuki, "Javohir ul-asror" asari muqaddimasida shorih, ya'ni ushbu sharhni yozgan zot o'zini "Shayx Husayn ibn Hasan", deb tanishtirgan.

2. Aliy Safiy qalamiga mansub ikkinchi topilma – "Tuhfat ul-Xoniy" (تحفة الخانى – "Xoniyga tuhfa") nomli asar qo'lyozmasi bo'lib, bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi O'zR FA ShI prof. N. Sulaymonov qo'lyozmalar fondida Q.2621/XI. inv. raqam bilan saqlanadi.

Mazkur asar "КАТАЛОГ фонда института рукописей" («Qo'lyozmalar instituti fondi fihristi»)da "Подарок хану" (تحفة الخانى) deb qayd etilgan [Каталог фонда института рукописей 1988, 118]. Agar diqqat qilsak, asar nomining tarjimasida xatolikka yo'l qo'yilgan. "Tuhfat ul-Xoniy"ning o'g'irimi "Xonga tuhfa" emas, balki "Xoniyga tuhfa" bo'lishi lozim edi. Chunki, asar nomidagi "al-Xoniy" (الخانى) kalimasida "yoyi nisba" mavjud. Bu esa asarning muayyan shaxs, ya'ni o'z davrining sultonlaridan biriga yozib hadya qilinganiga dalolatdir. Zero, ushbu asar muqaddimasida Aliy Safiy haqiqatan uni Sulton Muhammad Xoniyga bag'ishlab yozgani va unga tuhfa qilagani haqida ma'lumot beradi.

"Tuhfat ul-Xoniy"ning muqaddimasida uning muallifi "Aliy ibn Muhsin (Husayn – B.U.) al-Voiz al-Koshifiy al-mushtahar bi-s-Safiy» (علي بن محسن الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى) ekani haqida ma'lumot-qayd mavjud.

"Tuhfat ul-Xoniy" asari "Asrori Qosimiy" bilan bir jildda Qo'qon qog'oziga oddiy nasta'liq xatida 1253/1837-yili kitobat qilingan. Qo'lyozma kolofonidagi qaydga ko'ra, mazkur qo'lyozmaning kotibi ar-Rojiy Muhammad Buxoriy Hijriy (الراجى محمد بخارى هجرى) hisoblanadi.

"Tuhfat ul-Xoniy" asari jami 18 varaqdan (109a-127b B) tashkil topgan. Qo'lyozmaning o'lchovi – 25x16 sm.

Asar "Basmala"dan so'ng quyidagicha boshlangan [Tuhfat ul-Xoniy, 109a B]:

الحمد لوليه و الصلوة و السلام على نبيه و صحبه اما بعد جنين كويد فقير بى بضاعت
و حقير خالى از استطاعت علي ابن محسن الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى أيدہ اللہ باللطف
الخفى كه

(Tarjimasi: Hamd (maqtov va shukrlar) hamdning haqiqiy

Egasiga, ya'ni Alloh ta'ologa bo'lsin! Rahmat va salom Uning Payg'ambari – Hazrat Muhammadga va ul zotning as'hobiga bo'lsin! Shundan so'ng: Kuchsiz va zaif, solih amallari oz bo'lgan, "Safiy" nomi bilan tanilgan Aliy ibn Muhsin al-Voiz al-Koshifiy – Alloh ta'olo uni O'zining yashirin lutfi bilan qo'llasin! – ayturki, ...)

Muallifning asar muqaddimasidagi bayoniga ko'ra, Mavlono Muhsin (Husayn – B.U.) Voiz Koshifiy hijr. 910 sanada /1504-yili "Asrori Qosimiy" (اسرار قاسمى) nomli asarini yozib tugatgan. Ushbu asarning avtograf nusxasi oqqa ko'chirilmasdan oldin uning o'g'li Aliy Safiy qo'lida bo'lgan. U otasi vafotidan keyin asarning davomi sifatida yangi bir asar yozgan va unga "Tuhfat ul-Xoniy" deb nom qo'ygan.

"Tuhfat ul-Xoniy" asari 20 bobdan iborat. Har bir bobda muallif turli ashyo, ularning xosiyatlari, foyda va zararlari, shifobaxsh narsalar, ulardan qanday malham tayyorlash hamda ulardan qanday foydalanish haqida so'z yuritgan.

Asar ushbu jumlar bilan tamomlangan [Tuhfat ul- Xoniy, 126^b):

تمام شد رسالهء تحفة الخانى باذن الملك الوهاب ، كاتبه الراجى محمد بخارى هجرى
والله اعلم بالصواب

(Tarjimasi: "Tuhfat ul-Xoniy" risolasi al-Malik (Podshoh), al-Vahhob (Bandalariga ko'p-ko'p ne'matlar hadya qilguvchi Alloh ta'olo)ning izni ila nihoyasiga yetdi. Kotibi: ar-Rojiy Muhammad Buxoriy Hijriydir. To'g'risini biluvchi Alloh ta'olodir!)

Biz hozirda "Tuhfat ul- Xoniy" asarining matn va tarjimasining ilmiy-izohli nashrini amalga oshirishga kirishganmiz.

3. Yaqinda Hirot shoirlari she'rlari asosida tuzilgan bayozlar to'plami tadqiqi asnosida Aliy Safiy qalamiga mansub bir g'azalga duch kelindi.

1023-inv. raqam ostida saqlanayotgan "Majmu'ayi bayoz"ning ("Bayoz(lar) to'plami") 140a-140b varaq hoshiyasida "G'azali Mavlono Faxruddin Aliy mutaxallas ba Safiy" (غزل مولانا فخر الدين علي) (متلخص بصفي) sarlavhasi ostida shoirning quyidagi misralar bilan boshlangan bir g'azali keltirilgan:

الهى در ديار محتتم حشمت پناهى ده

ز درد داغ عشقم تاج تخت پادشاهى ده

Mazkur g'azal jami to'qqiz baytdan iborat.

G'azal matnining transkripsiyasini to'liq holda e'tiboringizga haqola qilamiz:

Iloho, dar diyori mehnatam hashmat panohiy deh,

Zi dardu dog'i ishqam to'yu taxti podishohiy deh!

*Saholor kun dar mulki qonam zi sitami g'amro,
Dar fashi kovyon az dudi oh sabuhgohiy deh!*

*Dili afsurdaam, shu'lani shom taqalliy kun,
Charog'i murdaam, rahbar Tu, nuri Ilohiy deh!*

*Ham ovozi xurusi Arshi Ilohiy, benavo yod kun,
Man hastam ham zaboniy bo kabutar, noyi qohiy deh!*

*Agar moyili surx-zard biyni tab'i sho'xam lol,
Sari shakk ba man lutf kun, siymoyi kohiy deh!*

*Man muhri xamush ba ro'yon az sharmi isyonam,
Shikoyatho zi xud doram, zaboni uzr xohiy deh!*

*Namedonam, chi xohad dilam, to az Tu dil xoham,
Ba har chizeki, doni "lo yaqum", xohiy, xohiy deh!*

*Makun sharmanda dar ro'zi Qazo az rahmati xushem,
Agar qurmam namebaxsham ba umidam guvohiy deh!*

*Safiyro zeri bori minnati mol hama mafkan,
Zi mushkin tarrayi ba hubbi siyohshor xatmi shohiy deh!*

G'azalda she'riy san'atlardan, shuningdek, balog'at va fasohat uslubidan unumli foydalanilganini ko'ramiz. (G'azalning qisqacha ma'no tarjimai shunday:

*Iloho, mashaqqat diyorimda menga ulug'vor omonlik ato qil,
Dardmand dilimdan dog'lik ishqimga sultonlik toj-u taxtin ato qil!*

*Jon mulkimdagi barcha g'am-sitamlarimni yengil ayla,
Tong ohim nafhasi (ohi)dan menga bir yalov-najot ato qil.
Afsurda dilman (mahzun qalbman), shom shu'lasida tajalliy ayla,*

So'ngan chirog'dirman, rahbar – Sen o'zing, Ilohiy nur ehson qil!

*Arsh jarchisi (Isrofil) ovozi (ila), Iloho, men benavoni yod et,
Men kabutarga tildosh (zikrdosh)dirman, umrboqiy nay ato qil!*

*Agar sho'x tab'im qizil-sariqqa moyil ko'rsang, hayrat,
Taradduddadir boshim, menga o'z lutfingla ruxsori somon ato qil!*

Isyonim sabab sharmandaman, boshim egik, bosh qoldirib boqolmasman,

O'z (nafs)imdan shikoyatlarim bor, uzr so'raguvchi zabon ato
qil!
Bilmasman, qalvim Sendan nima xohlar, men Sendan Dil
istarman,
Har narsani bilguvchi Zot faqat O'zing, istasang xohish ato
qil!
Mahshar Kuni sharmanda qilma, rahmating umidi ila xush
(xotirjam)dirman,
Jurmim (gunohim) kechilmasa, holim nechuk bo'lg'ay,
umidimga guvohlik ber!
Iloho! Safiyini g'am yuki ostida ezik qoldirma, rahm ayla unga,
Mushkin (mushkli) ishqing hurmatidan Shohona Yorliq ato
qil!).

Bizning taxminimizga ko'ra, ushbu manzuma Aliy Safiyning "Devon"idan olingan.

Mazkur g'azal munojot yo'lida bitilgan va u g'oyat mazmundordir. G'azalda tasavvufona ramziy ma'nolarga ham ishoralar mavjud.

Ushbu g'azal Aliy Safiyning chindan iste'dodli shoir bo'lganiga dalolat qiladi. Zero, Alisher Navoiy "Majolis an-nafois" asarida Aliy Safiyning shoirlik iste'dodini e'tirof etgan va ijodkorning bir g'azali matla'sini misol qilib keltirgan [Majolis ... 1966, 132]:

مولانا صفی – بسر مولانا حسین واعظ است و بغایت جوانی درویش وش و دردمند
و فانی صفت است و دو بار بجهت شرف خواجه عبید الله از هرات بدار الفتح سمرقند رفت،
کویندکه بنجا بشرف قبول ممتاز و سعادت ارشاد و تلقین سر افراز کشته بخراسان آمد، و
طبعش خوبست، این مطلع ازوست:

با لب لعل و خط غالیه کون آمده بی عجب ارسته از خانه برون آمده ی

(Tarjimasi: "Mavloni Safiy – Mavloni Husayn Voiz (Koshifiy – B.U.)ning o'g'lidir. Va ul bag'oyat darveshvash va foniysifat, dardmandsheva yigitdur... Tab'i xubdur, ushbu matla' aningdur: "Бо лаби лаъл ва хатти ғолия кавн омадае, / Аҷаб ораста аз хона берун омадае") [Majolis ... 1966, 132].

"Rashahot"da bayon qilinishicha, Aliy Safiy quyidagi qit'ani Mavloni Abdurahmon Jomiy bilan boja bo'lgani sharafiga bitgan:

Qit'a

Ду кавкаби шараф аз бурчи Саъд миллату дин,
Тулуъ карду бар омад басони дурри садаф.
Аз он яке ба зиё гаит байти орифи Чом,
Аз ин ҳазиз ва боли Сафий шуд авчи шараф.

(*Mazmuni:*

Ikki sharaf yulduzi millat va dinning baxtiyorlik burjidan,
Dur sadafdan chiqqan kabi nur sohib chiqdi.

Ulardan biri Jom orifi uyining nuri bo'ldi,

Bu nasibadan Safiyning qanoti sharaf cho'qqisiga yetdi)
[Rashahot 2004, 212].

Mazkur misralardan shoirning o'z taqdiridan mamnun bo'lgani va o'z iqbolidan iftixor qilgani yaqqol seziladi.

Shu o'rinda bir mulohaza: nahotki, Aliy Safiy o'z manzumalaridan "Devon" tuzmagan bo'lsa?! Axir, ijodkorning barcha asarlarida kelgan g'azallari, qasidalari, ruboiylari, qit'alari, fardlari jamlansa, mukammal bir "Devon" bo'ladi-ku!

Haqiqatan, bizning ojizona fikrimiz va taxminimizga ko'ra, shunchalik ko'p manzuma bitgan shoirning "Devon" tuzmasligi, ya'ni uning "Devon"i bo'lmasligi mumkin emas.

Afsuski, hozirgacha Aliy Safiyning "Devon"i topilgani yoq. Galdagi muhim vazifa ijodkorning ana o'sha nodir "Devon"ini topishdir.

Xulosa

Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning barcha ilmiy-adabiy merosi qatorida uning yangi topilgan "Sharhi Masnaviy", "G'azali Aliy Safiy", "Tuhfat ul-Xoniy" asarlari ham badiiy-estetik talablarga to'la javob beradigan badiiyatning yuksak namunalaridir. Bu asarlarning har birida ijodkor muayyan adabiy, tasavvufiy-irfoniy tushunchalarni novatorona yondoshuv – yangicha ma'no va mazmun-mohiyat bilan yorqin ochib berishni o'z oldiga maqsad qilganiga amin bo'lamiz.

Nodir iste'dod egalari bo'lgan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda sog'lom e'tiqod va sog'lom tafakkur egasi bo'lgan har bir insonni hayratga solib kelayotgan mumtoz asarlar, aslida, faqat bir millat yoki bir xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy asarlari ham asrlar sinovidan o'tib, bizgacha yetib kelgan ana shunday nodir yozma ilmiy-adabiy merosning eng sara namunalaridandir. Mumtoz adabiyotimizning bu bebaho ma'naviy durdonalari kelgusida yangi va yangi nasllar uchun donishmandlik va bilim manbayi, eng muhimi, yangi badiiy kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.

Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning e'tiqodiy, axloqiy, tasavvufiy-irfoniy qarashlari chuqur aks etgan asarlarini xolis

tadqiq etgan holda ilm-u ma'rifatga chanqoq xalqimizga yetkazish manbashunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlaridagi muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 1963. *Хазоинул-маъоний. Фаройибус-сиғар*. Ўн беш томлик. I-том. Нашрга тайёрловчи Х. Сулаймон. Тошкент.
- Алишер Навоий. 1966. *Мажолисун нафъис*. 12-жилд. Тошкент.
- Латойиф ат-тавойиф*: لطايف الطوايف ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 3655.
- Ҳирз ал-амон мин фитан ал-замон*: حرز الامان من فتن الزمان ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 9423.
- Одоб ал-асҳоб*: آداب الاصحاب ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 11726,
- Рашаҳот*: رشحات عين الحيات Техрон – “Кутубхонайи мажлиси-и шўройи миллий” қўлёзмалар бўлими (Техрон КМШМ). Қўлёзма: №1384.
- Рашаҳот*: رشحات عين الحيات ЎЗР ФА ДАМ, Қўлёзма: № 33.
- Рашаҳот таржимаси*: سي رشحات عين الحيات ترجمه ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 632.
- Рашаҳоту айнил-хаёт*: 2004 رشحات عين الحيات. Нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, Б. Умрзоқ. Тошкент: Абу Али ибн Сино.
- Навоий асарлари луғати*. 1972. Алишер Навоий асарлари ўн беш томлигига илова. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимов. Тошкент.
- Рустамий, А. 2014. *Ҳазрат-и Навоийнинг маънавий олами*. Тошкент.
- Умурзоқов, Б. 2019. *Фахруддин Алий Сафийнинг илмий-адабий мероси ва унинг «Рашаҳот» асарининг қиёсий-текстологик тадқиқи*. Тошкент: Нурафшон.
- Латойиф ат-тавойиф*: لطايف الطوايف Техрон, 1953/ 1373.
- Неъматов М. С. 2009. *«Рашаҳоту айнил-хаёт» Фахруддина Али Сафи и его литературно-мистическое значение*. Автореф. дисс. канд.филолог.наук. Худжанд.
- Саидмукаррам Абдуқодирзода. 2020. *Ҳусайн Воизи Кошифи ва суннати тафсиригори Қуръон ба забони форсии тоҷики (асрҳои X–XI)*. Автореферати диссертасия барои дарёфти дараҷаи илми доктори илмҳои филолог аз рўйи ихтисоси Душанбе.
- Каталог фонда институту рукописей*. 1988. II Том. Ташкент: изд. *Инс-та рукопис. Им.Х.С.Сулейманова АН УзССР*.
- Тухфату-л-Хоний*: تحفة الخاني ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: №2621/ XI.
- КАТАЛОГ фонда институту рукописей*. 1988. II Том. Ташкент: изд. *Института рукопис. Им.Х.С.Сулейманова АН УзССР*.
- Мавлоно Фахруддин Алий Сафий. 1373/1953. *Латойиф ат-тавойиф*. Техрон.
- الدلالات الواضحات على دلائل الخيرات و شوارق الانوار فى ذكر الصلاة على النبي المختار للامام ،
ابى عبدالله محمد بن سليمان الجزولي ،
تاليف: يوسف بن اسماعيل النههاني، ه ١٤٣٣ – ٢٠١٢م ،نسخة مكة المكرمة ،
Kara, Mehmed. 1996. *Yeseviyenin temel kitabi «Cevahiru-l-ebrrar min emvacii-*

New discovered works of Maulana Fakhr ad-din Ali Safi Kashifi Khiravi

Bahriddin Umurzakov¹

Abstract

In particular, this article deals with the scientific and literary heritage of Fakhruddin Ali Safi Kashifi Khiravi (died in 939 / 1532-1533). And the number of works written by him separating from the works that did not referring to the qalam of the author Ali Safi, but the father and son Kashifi devoted to the analysis of important issues in the field of textual and literary sources. Such as bringing more clarification of the question of the authorship about his works.

The article also includes the manuscripts of several new works by Fakhruddin Ali Safi, there unknown to science - such as Sharh-i Mesnevi, Gazelle Ali Safi, Tuhfatu-l-Khani yet. These rare manuscripts show that Fakhruddin Ali Safi's writings were not limited to five or six, and that he followed in the footsteps of his father, Maulana Hussain Waiz Kashifi.

Key words: *manuscript, "Sharh-i Masnaviy" - "Lubb-i lubob", "Kitob-i Ma'naviy fiy intixob-i al-Masnaviy", "Tuhfa-i Xoniy" ("Xoniyga tuhfa"), "G'azal-i Aliy Safiy", "Divan" (Selected Ghazels), faith, moral and ehtical, mysticism, mystic.*

References

- Alisher Navoiy. 1963. *Xazoinul-ma'oniyy. G'aroyibus-sig'ar*. O'n besh tomlik. I-tom. Nashrga tayyorlovchi H. Sulaymon. Toshkent.
- Alisher Navoiy. 1966. *Majolisun nafois*. 12-jild. Toshkent.
- Latoyif at-tavoyif*. O'zR FA ShI, Qo'lyozma: № 3655.
- Hirz al-amon min fitan al-zamon*. O'zR FA ShI, Qo'lyozma: № 9423.
- Odob al-as'hob*. O'zR FA ShI, Qo'lyozma: № 11726,
- Rashahot*. Tehron – "Kutubxonayi majlis-i sho'royi milliy" qo'lyozmalar bo'limi (Tehron KMSHM). Qo'lyozma: №1384.

¹ *Bahriddin S. Umurzakov* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Tashkent State University of Oriental Studies.

E-mail: bahrumr_nur@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-8870-156X

For citation Umurzakov, B. S. 2022. "New discovered works of Maulana Fakhr ad-din Ali Safi Kashifi Khiravi". *Golden scripts* 2: 55-67.

Rashahot. O'zR FA DAM, Qo'lyozma: № 33.

Rashahot tarjimasi. O'zR FA ShI, Qo'lyozma: № 632.

Rashahotu aynil-hayot. 2004. Nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B. Umrzoq. Toshkent: Abu Ali ibn Sino.

Navoiy asarlari lug'ati. 1972. Alisher Navoiy asarlari o'n besh tomligiga ilova. Tuzuvchilar: Porso Shamsiev, S.Ibrohimov. Toshkent.

Rustamiy, A. 2014. *Hazrat-i Navoiyning ma'naviy olami.* Toshkent.

Umurzoqov, B. 2019. *Faxruddin Aliy Safiyning ilmiy-adabiy merosi va uning «Rashahot» asarining qiyosiy-tekstologik tadqiqi.* Toshkent: Nurafshon.

Latoyifat-tavoyif. Tehron, 1373 /1953.

Ne'matov M. S. 2009. «*Rashahotu aynil-xayot*» Faxruddina Ali Safi i yego literaturno-misticheskoe znachenie. Avtoref. diss. kand.filolog. nauk. Xudjand.

Saidmukarram Abduqodirzoda. 2020. *Husayn Voizi Koshifi va sunnati taf-sirnigorii Qur'on ba zaboni forsii tochiki (asrhoi X-XI).* Avtorefarati dissertasiya baroi daryofti darachai ilmii doktori ilmhoi filology az ro'yi ixtisosi. Dushanbe.

Katalog fonda instituta rukopisey. 1988. II Tom. Tashkent: izd. Ins-ta rukopis. Im.X.S.Suleymanova AN UzSSR.

Tuhfatu-l-Xoniy. O'zR FA ShI, Qo'lyozma: №2621/ XI.

KATALOG fonda instituta rukopisey. 1988. II Tom. Tashkent: izd. Instituta rukopis. Im.X.S.Suleymanova AN UzSSR.

Mavlono Faxruddin Aliy Safiy. 1373/1953. *Latoyifat-tavoyif.* Tehron.

Kara, Mehmed. 1996. *Yeseviyenin temel kitabi «Cevahiru-l-ebrar min em-vaci-l-bihar».* Ahmed-i Yesevi – Hayati, eserlari, tesirlari. Istanbul.

Türkiye yazma eserleri toplu katalogu. 1994. Ankara.

O'rta asrlar Xorazm adabiy muhitida Abu Bakr Xorazmiyning o'rni

Azamat Atayev¹

Abstrakt

VIII – XIII asrlarda Xorazm adabiy muhitining shakllanishida Xorazm arabiyzabon adabiyotidagi she'rlar, qasidalar, bir tomondan, ushbu muhit paydo bo'lishi va rivojlanishidagi madaniy aloqalar, madaniy ta'sir omillarini yoritishda ahamiyatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-siyosiy omillarni ochib berishda ham juda muhimdir. Madh va hajv eski arab muhitining ajralmas bo'lagidir.

Mazkur maqolada Xorazmdagi arabiyzabon badiiy adabiyot vakillaridan Abu Bakr Xorazmiy hayoti, uning she'riyati mavzu ko'lami va asosiy yo'nalishlari bayon qilingan bo'lib, islom fathidan uch asrcha vaqt o'tgach, Xorazm mintaqasida yetishib chiqqan ko'plab arab tilli shoirlar adabiy meroslarini to'g'ri tushunish va izohlashda adabiy manbashunoslik va matnshunoslikka muhim yangi ilmiy ma'lumotlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: *arabiyzabon, tarixiy manba, adabiy manba, g'azal, hajv, madh, janr, manbashunoslik, matnshunoslik.*

Kirish

Ilk o'rta asrlar Xorazm adabiy muhitiga oid ma'lumot beruvchi manbalar [Husayn Toha, 1976]da shoir Abu Bakr Xorazmiy nomi bilan tanilgan va *Tabarhozziy* deb laqab olgan adibning asl ismi Muhammad ibn Abbos bo'lib, *Tabarhozziy* so'zi Tabariston va Xorazm nomlaridan tashkil topgan qo'shma otdir. Chunki uning otasi Xorazmdan va onasi Tabaristondan bo'lgan. Abu Bakr Xorazmiy hijriy 323 (milodiy 934) yilda Xorazmda tavallud topdi. Uning yoshligi haqida manbalarda ko'p ma'lumot uchramaydi. Otasi va onasi haqida esa yuqoridagi ma'lumotlar keltirilgan, xolos. Shu sababdan biz Abu Bakr Xorazmiyning bolalik hayoti haqida to'liq

¹ *Atayev Azamat Pulatovich* – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: azamatatayev79@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-0902-321X

Iqtibos uchun: Atayev, A. P. 2022. "O'rta asrlar Xorazm adabiy muhitida Abu Bakr Xorazmiyning o'rni". *Oltin bitiglar* 2: 68-89.

ma'lumotga ega emas. Lekin Xorazmdagi ilmiy muhit qanday bo'lgani, shoirning madaniy rivojlangan hayotda o'sgani, uning boy til va o'ziga xos tarixiy madaniyat ta'sirida ulg'aygani masalaning ayni ayon jihatlaridandir.

Abu Bakr Xorazmiy jiddi-jahd bilan johiliyat va islom she'riyatini o'rgangan. U ilm o'rganish va rizq talabida yo'lga chiqib, ko'plab podshoh va amirlar xizmatida bo'lgan. Dunyoning talaygina mamlakatlarini kezib, Iroqqa, so'ng Halabga safar qilgan.

Zamonasining mashhur adibi, tarixchisi va tilshunosi bo'lib etishgan Abu Mansur Abdulmalik ibn Ismoil as-Saolibiy an-Naysoburiy o'z davrining etuk olimlari sifatida Abu Sulaymon al-Xattobiy (931 – 998) va Abu Bakr Xorazmiylardan dars olgani e'tiborga molik [Saolibiy 1987].

Asosiy qism

Abu Bakr Xorazmiy o'zi haqida, avvalo, Shomga va Sayfuddavla Hamadoniy xizmatiga etib borgach, saroyda yaxshi mavqega erishgani, shuningdek, mana shu shaharga kelgach, hayotida yorqinlik kuzatilganini zikr qiladi. Shoir sifatida o'ziga yarasha yuksalib, adiblik quvvatini topganidan so'ng u Buxoroga qarab yuzlanadi va vazir Bal'amiy bilan uchrashadi. Ammo vazir bilan suhbat chog'ida adib vazirni maqtamagach, ularning o'rtasidagi o'zaro munosabatlari yomonlashib, Abu Bakr Xorazmiy undan ajraydi. Abu Bakr Xorazmiy oddiy shoir bo'lishiga qaramasdan, umummanfaatni ko'zlagan holda vazir Bal'amiyni hajv qilib aytadi [Abu Mansur Abdulmalik as-Saolibiy 2009]:

إن ذا البلعميَّ ، والعينُ غيْبٌ
وهو عاژٌ على الزمانِ وشيْبٌ

Albatta bu Bal'amiydir va "ayn" aslida "g'ayn"dir,
U zamon uchun uyat va aybdir.

Agar *البلعميَّ* so'zidagi "ayn" harfini "g'ayn" qilib o'qisangiz: "Balg'amiy" bo'ladi. Bu butun boshli vazirga nisbatan qattiq haqoratdir. Abu Bakr Xorazmiy hajviyalarida shu tarzdagi keskinlik, ba'zan odob chegarasidan chiqadigan darajadagi qo'polliklar kuzatiladi. Saolibiy o'z tazkirasida uning bunday she'rlaridan namunalar keltirib o'tgan [Saolibiy 2009, 207].

Shundan so'ng Abu Bakr Xorazmiy Naysaburga tomon o'tlanib, u yerda nufuzli kishilar bilan uchrashadi. Ular shoirni qadrlab, u bilan go'zal muomalada bo'lishadi. Shu erda Hasan Qaznaviy, Abu Mansur Bag'oviy, Abu Hasan Hukamiy kabi shoirlar bilan tanishadi.

Abu Bakr Xorazmiy Naysaburda Abu Nasr Mikoliy bilan ham ko'rishadi va uni madh qilib, u haqida ma'lumot beruvchi quyidagi qasidani yozadi:

نَجْرٌ ذِيوَلِ الْفَخْرِ حَتَّى كَأَنَّا
 لِعَزَّتِنَا فِي آلِ مِيكَالٍ تَنْتَمِي
 هُمْ شَحْمَةُ الدُّنْيَا فَإِنْ نَتَعَدَّهُمْ
 إِلَى غَيْرِهِمْ نَحْصِلُ عَلَى الْفَرْتِ وَالْدَمِ
 سَقَى اللَّهُ ذَاكَ الرُّوْضِ جُودًا كَجُودِهِمْ
 وَصَيَّرَ آجَالَ الْعِدَاةِ إِلَيْهِمْ
 وَأَبْقَى أَبَا نَصْرٍ لِلرُّبِيِّ عَلَيْهِمْ
 سَنِينَ كَمَا أَرَبَى بَنِينَ عَلَيْهِمْ
 وَعَاشَ إِلَى أَنْ يَتْرَكَ النَّاسَ مَدْحَهُ
 وَمَنْ ذَا الَّذِي يَرْجُو أَيَّابَ الْمُثَلَّمِ
 هُوَ الْحَرَّ يَحِبُّو بِثُوبٍ مَطْرُزِ
 غَسِيلٍ وَ لَا يَدْعُو بِكَيْسٍ مَخْتَمِ
 وَلَا يَبْعُدُ الرَّأْوُونَ مِنْهُ ثَلَاثَةَ
 عَطَاءٍ وَعِذْرًا وَانْبِسَاطًا لَدَيْهِمْ

(She'rning nasriy tarjimasi): *"Faxrning etaklarini tortamiz. Toki, Mikol xonadonidan umid qilib, o'z izzatimizga etishamiz. Ular dunyoning moylaridir. Agar biz ulardan boshqalarga boradigan bo'lsak, faqat yomonlikka va qonga duch kelamiz. Alloh bu bog'ni ular xuddi saxiylik qilgani kabi saxiylik ila sug'orsin va dushmanlarining muddatlarini, ya'ni umrlarini ularning foydasiga qilsin. Abu Nasrni esa dushmanlarining ustida bir necha yillar tarbiyalovchi qilsin. Dushmanlarining bolalarini ham tarbiyalasin. Va shunday yashasinki, insonlar uning madhini tark qilgunlaricha umr ko'rsin. Kim ham Abu Muslamdek bo'lishni orzu qilardi. U hur inson edi, naqshli ko'ylagi bilan emaklamasdi. Yuvuqchi edi, berkitilgan xaltaga, ya'ni hamyonga chaqirmas edi. Qo'l ostidagilari uning muntazam uchta narsaga: Mol dunyosidan muhtojlarga berishga, uzr so'rashga va kengchilik (bag'rikenglik)ka odatlanganini guvohi bo'lardilar. Agar u insof qilsa, shirin qiladi, xuddi "ha" degan so'z shirin bo'lgani kabi. Agar u zulm qilsa, og'ir qiladi, xuddi "nima uchun?" degan so'z og'ir bo'lgani kabi. Kishilar uni, hatto johillarni ham kechiruvchi deb biladilar va uning ishlarini she'r qilib maqtaydilar. U o'zining fe'li bilan ularni so'kuvchidir, gapi bilan emas".*

Mazkur qasida mazmunidan anglashiladiki, Abu Bakr Xorazmiy amirning madh etuvchi (mamduh)laridan bo'lgan. Shuningdek, u o'zining bu madhi bilan Abu Nasr Mikoliyning saxiylik hadyalariga erishishni umid qilgan hamda yuqorida: *"Ular dunyoning moylaridir.*

Agar biz ulardan boshqalariga yuzlanadigan bo'lsak, yomonlikka va qonga duch kelamiz", deya ishora qilib o'tganidek, olajak hadyalari o'ziga xos bo'lishini orzu qilgan.

Quyidagi satrlar ham Abu Bakr Xorazmiyning qasida borasidagi mahoratidan darak beradi:

جناب تجنباہ لیس بمجدب
وبحر تخطیناہ لیس بمرزم
وماء زلال قد ترکنا وروده
زلالا وبعناہ بشریة علقم

(She'ning nazmiy tarjimasini (Biz bu o'rinda she'riy tarjima va nazmiy tarjima tushunchalarini bir-biridan farqlashni lozim topdik. She'riy tarjima aslyatdagi vazn, qofiya kabi xususiyatlarni to'la saqlagan mukammal badiiy tarjima sanalsa, nazmiy tarjima she'r mazmunini o'quvchi zehniga oson etkazish maqsadida uni mavzun nutqda ifodalashdir):

U bir janob, unda obihayot bor,
Undan ketsang, qurg'oqchilik ofat bor.
Shunday bir dengiz-ki, o'ng-u so'lini
Shaffof, tiniq suvlar tutmish yo'lini.
U bir zilol – kirlik bedarak bo'lgan,
Biz undan ichmakni butkul tark qilgan.
Chorladi beomon, g'aflatli qutqu –
Go'yo boshqa zilol – sharobdek uyqu.

Mana shu ikki bayt orqali biz Xorazmiyning maqtovini keltirayotgan kishisi saxovatli bo'lishiga qaramasdan uni tark qilgani va o'zganing oldiga ketgani uchun nadomatini ta'kidlayotgani hamda o'z nafsini malomat qilayotganini ko'ramiz. U bu ishini xuddi "zilol suvini uyqu sharbatiga almashtirgan kishi"ga o'xshatadi.

She'r mavzusi aksar hollarda bevosita shoir biografiyasi bilan bog'liqligini Abu Bakr Xorazmiy ijodida ham ko'ramiz. Masalan, bir o'rinda u ko'z o'ngimizda sabr kosasi to'lgach, tushkun holatga tushgan va o'z holini amirga bayon qilib yig'lagan holatida namoyon bo'ladi. Amir shunday kishi ediki, shoir uning xizmatida bo'lganida unga yaxshi yordamchi edi.

لبست ثياب الصبر حتى تمزقت
جوانبها بين الجوى والتندم
أظلل إذا عاتب نفسي منشدا
فهلاً تلا حاميم قبل التقدم

(She'rining nazmiy tarjimasini):

*Sabrdan libos kiydim, parcha-parcha bo'ldi lek,
Har erida havodur, choki dardimdan tilik.
Davom etdim she'rimni, nafsimni itob qilib,
Kirsam edi bu ishga "Haa – mim" tilovat qilib.*

Alal oqibat ma'lum bo'lishicha, amir boshiga mushkulot tushgan shoirni qutqarmaydi. Abu Bakr Xorazmiy esa qo'riqchi yeb-ichish bilan mashg'ul, g'ofil bo'lib turganida yashirincha qochib ketishga muvaffaq bo'ladi.

So'ng Jurjondagi Sohib ibn Abbodning oldiga borgach, shu yerda uning g'amlari arib, qayg'ulari ketadi. Shoirning ahvoli yaxshilanib, avvalgi holatiga qaytadi. Abu Bakr Xorazmiy Ibn Abbodni ko'p madh etar va ko'plab sovg'alarga erishardi.

Bu yerda tilga olingan inson Eron va Iroqda hukm surgan buvayhiylar sulolasi (932-1062-yillar) vaziri, shoir va olimlar homiysi as-Sohib laqabi bilan mashhur Abu-l-qosim ibn Abbod (936-995)dir. Abu Mansur as-Saolibiy ham o'zining mashhur "Kitob latoyif ul-maorif" asarini unga bag'ishlagan edi [Saolibiy 1987, 4]. Bu asarda xorazmshoh Abu-l-abbos Ma'mun ibn Ma'mun hamda uning o'g'li Sijiston hokimi Ma'mun ibn Ma'mun ibn Ma'mun tilga olingani va she'rlaridan namunalar keltirilgani Xorazm arab tilidagi adabiyotning jug'rofiy sarhadlari ham kengligini ko'rsatadi.

Mamduhning moddiy manfaatdorligi hamisha badiiy ijodni ham yuksaltiruvchi, ham yerga uruvchi omil bo'lgan. Shuning uchun bu holatga davr hamda vaziyatni yaxshi bilmasdan, o'sha muhitni his qilmasdan biror narsa deyish mushkul. Bunga XIX asr Xorazm adabiy muhitidagi vaziyat yaqqol misoldir. Masalan, A.O'rozboyev yozishicha, Komil Xorazmiy mazkur munosabat bilan bir masnaviysida muhim ijtimoiy-axloqiy jarayonni bayon qilgan:

*Himmating ollida jahon moli
Bir ovuch tiyra xok timsoli.
She'r ko'p vaqt kambaho erdi,
Shuaro baxti ham qaro erdi.
Lillahi hamdu-s-sanoki, bu dam
Jo'sh urub sizga bahri judu karam.
Saj' bir tangadin baho bo'ldi,
Shuaro kisasi to'lo bo'ldi.
So'zni guhar demishlar o'tganlar,
Fazl do'konini yuritganlar.
Bu zamonda guhar jugan bo'lmish,
So'zni sotmoq jugang'a fan bo'lmish.
Yo javohirshunos emasmu alar,*

*Tanimaslar jugan bila guhar.
Yo g'alat debdururlar ahli salaf,
Yo jugan bordurur guharg'a xalaf.
Yoki lafz qadimda derlar
Jugari otini alar guhar.
Ulki, ogahlarning ogahidur,
Fahmu donish sipehrining mahidur.
So'z ortuqdurur guhardin ham,
Fazlu donishda olam ichra alam.
So'zni har necha qilsa bozori,
Bordur olamda bir xaridori.
Ming balog'at bila so'z aylab ado,
Qilar ani jugan bila savdo.
Ul dag'i ushr yo zakot durur,
Anga "in'omu bazl" ot durur.
Man bechorayi g'aribu haqir,
Ki so'zum ichra zarra yo'q ta'sir,
So'z desam, kim anga quloq solur,
Kim ani bir ko'nakka olur.
Men ne yanglig' so'z aylayin insho,
So'z durrig'a bu nav' bo'lsa baho.
So'zima hech kishi jugan bermas,
Bersalar ham somon yomon ermas*

[O'rozboyev 2020, 36].

Aslida ushbu satrlarning dunyoga kelishi, Komil Ogahiy so'zlarini aynan gavhardan ham a'lo ekanini ta'kidlashining o'z sababi, tarixi bor. Ushbu masnaviyga muallif (Komil Xorazmiy) sharhi mazmuniga ko'ra, Muhammad Niyoz devonbegi o'z muhriga o'ydirish uchun Komilga munosib saj' (qofiyalangan jumla) yozib berishini aytib, muzd (haqi)ga bir tanga taklif qiladi. Komil Ogahiydek ijodkor uning sharafiga bir qancha she'r bag'ishlaganda jo'gori (jugan, jugari) bilan kifoyalangan Muhammad Niyozbegi devonbegi "saxovat"idan lol qoladi. Devonbening Ogahiyga qilgan "in'om"lari ham aslida ushbu zakot hisobidan bo'lib, unga "in'omu bazl" (saxovat) deb ot qo'yilganiga shoir taajjublanadi. Demak, barcha davrlarda ham shoirlar moddiy tomondan havas qilarli darajada qadr topgan emas.

Abu Bakr Xorazmiy mana shu o'rinda Sohib ibn Abbodni fazilati, saxovati va shijoatini maqtab shunday she'r aytgan:

وما خلقت كفاك إلا لأربع
عوائد لم يخلق لهن يدان
لشكرك أفواه وتنويل نائل

وتغليب هندي وأخذ عنان

(She'rining nasriy tarjimasi):

*“Ikki qo'l uning yaxshiliklarini qaytarishga qodir emas.
Faqatgina to'rtta narsanigina qila oladi:
Og'zi bilan shukur aytishni, beruvchini maqtashni,
Hindni ustun qo'yishni va tizginni olishni”.*

She'rning mana shu baytiga kelganida Sohob unga qarab: “Sen qalamni zikr qilishni unutding. Axir u yozuvchining aslahasi-ku?! U shunday qurolki, u bilan she'r yoziladi. Qalam she'rning asosi hisoblanadi”, – deydi. Shunda Abu Bakr Xorazmiy qalamni maqtab qasidani davom ettiradi:

يد تراها أبدا
فوق يد وتحت فم
ما خلقت بنائها
إلا لسيف وقلم

(She'rining nasriy tarjimasi):

*“Kishi qalamni har doim qo'lining ustida va og'zining
tagida ko'radi.
Barmoqlar faqatgina qilich va qalam uchun yaratilgandir”.*

(She'rning nazmiy tarjimasi):

*Qaytarolmas qo'llarim, sening yaxshiligingni
Qila olgum to'rttovni, alqab xalqchillingingni:
Til bilan shukurdaman, madhing mudom so'zimda,
Tutay ijod tizginin, hind ustun deb izmimda.
Qalamim qo'l ustida, og'zim ostida sobit,
Barmoqlar yo qalam-la, yo qilich-la zo'r zobit.*

(Yuqoridagi fikrlarimizga dalil sifatida ushbu she'rning nasriy va nazmiy tarjimalari yondosh berildi).

Bu baytlar beixtiyor Sharq mumtoz adabiy manbalarida qalam ta'rifida aytilgan so'zlardan ayrimlarini esga soladi. Haqiqatan, qalam vasfi mumtoz adiblar ijodida alohida o'rin tutadi. Masalan, Alisher Navoiyning “qalam”i o'zining badiiy barkamolligi va falsafiyliigi bilan ajralib turadi:

*Ne lo'lidurki, chun hangoma tutsa,
Qadam boshtin qilib tortar navozir.
Boshin keskandin ortib anga tahrir,
Tilin yorg'andin o'lub anga tahrir.
Qaro suvg'a boshin yuz g'o'ta bersa,*

*To'lar og'ziyu bo'lmas lek damgir.
Kiromul-kotibin ondin qilib sabt,
El etkondin yamon-yaxshini bir-bir.
Vale oshiq bila majnun ishiga
Qazo etkurmey andin ranju tashvir.
Bihamdillahki, ollimda azaldin
Jununu ishq yozdi kilki taqdir [Navoiy 1987, 883].*

Shoir Abu Bakr Xorazmiyning:

*Qalamim qo'l ustida, og'zim ostida sobit
Barmoqlar yo qalam-la, yo qilich-la zo'r zobit –*

degan baytlari Ogahiy tarixiy asarlarida qalam va qilich mush-tarakligiga oid quyidagi so'zlar bilan ma'nalanuvchi kelishi ularning muhim ijtimoiy-siyoiy tushunchalar ekanligidan darak beradi: "Nukta. Har podshohi sohib iqtidorekim, kishvarkusholig' orzu qilib, arsai olamg'a ot surub, yaxshi ot chiqarmoq istasa, anga ikki ishni ixtiyor qilmoq vojibu lozimdur: biri tig'zanu mardafkan shuja'o tarbiyati va biri xushsuxanu qalamzan shuaro taqviyatidur. Nedinkim, agar ul toifa bo'lmasa jahonbonlig' va mamlakatsitonlig' maqsudin hosil qila olmas va agar bu jamoa bo'lmasa, barcha futuhot va yaxshi sifatining afsonasi zamon avroqida boqiy qolmas" [Ogahiy 11^a].

Yuqorida aytilganidek, bu davr shoirlarining aksari qaysidir jihati bilan saroy muhitiga xoslashgan bo'lib, ularning asosiy nazm namunalari maishiy sathda namoyon bo'lardi. Shuning uchun ham ularning ijodida hajv, madh, faxriya, qasida kabi janr yo'nalishlari yetakchilik qilgan. Masalan, shu o'rinda, Abulfazl Saxriyning ushbu baytini hajv janriga misol qilib keltirishimiz mumkin:

أيا ذا الفضائل واللام حاء
ويا ذا المكارم والميم هاء
*Ey fazilatlar sohibi – lom harfi ho (ح)
Ey ikromlar sohibi – mim harfi ho (م).*

Baytda keltirilgan fazilatlar so'zi oxiridagi ل harfini ح ga o'zgartirilsa, "buzuqliqlar" ma'nosidagi so'z hosil bo'ladi. Ikkinchi misradagi yaxshi sifatlar so'zi oxiridagi م harfi م ga o'zgartirilsa, "yomonliklar" degan ma'noda bo'ladi. Demak bu o'rinda shoir: "Ey fazilatlar sohibi..." yoki "Ey yaxshiliklar egasi..." deb go'yo maqtov bilan nido qilyapti-yu, aslida hajv uslubi orqali uning ustidan kulyapti.

Yoqut al-Hamaviy o'zining "Mo'jamul udabo" asarida Nasa-viydan ham shunday hajv keltirilgan [Yoqut al-Hamaviy ar-Rumiy 1993, 27-28]:

لَكَ تَدْرِيسٌ وَلَكِنْ رَأَى تَدْرِيسَكَ لَا تُؤْمَرُ
وَالَّذِي تَمَلَّى عَلَى النَّاسِ كَلَامٌ لَا كَلَامٌ
خَسِرَتْ بَغْدَادُ إِذَا وَتَكَ فِيهَا وَالسَّلَامُ

(She'rining nasriy tarjimasini):

"Sening tadris (dars)ing bor, lekin tadrisingdagi "r" harfi "lom"dir, Sening odamlarga imlo qildirayotganing kalom (gap) emas, "kilom" (jarohatlar)dir. Agar ahli Bag'dod sening oldingga kelsa, ziyon topadi, vassalom!"

Nasaviy bu misralari bilan o'zini ahli ilmlardan sanab, saboq berish da'vosida xalqni aldayotgan bir "ilmfurush"ni tanqid ostiga olyapti. "Ta'lim, saboq berish" ma'nosidagi تَدْرِيس so'zidagi ر (r) harfi ل harfiga almasha, تَدْلِيس – *yolg'on, firibgarlik* ma'nosidagi so'z hosil bo'ladi. *Gap, jumla* ma'nosidagi *kalom* so'zi *kilom* deb o'qilsa, "gap"so'zi "jarohat"so'ziga aylanib qoladi.

Mutaxassislar hajvning satiradan farqi – hajv konkret shaxsga qaratilganida, ya'ni hajvchining maqsadi ijtimoiy hayotdagi muayyan holatni badiiy umumlashtirib, g'oyaviy inkor qilish emas, deb ko'rsatadilar. To'g'ri, hajvning konkret shaxsga yo'naltirilgani unda sub'ektivlikning kuchayishiga zamin hozirlaydi, natijada muallifning o'sha shaxsga munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Johiliyat davri arab she'riyatida bu uslub keng tarqalgan. Bunday nazm namunalarida hajv orqali raqibni qoralash, sharmanda qilish uchun yolg'onlar to'qish, jismoniy nuqsonlarni yuzga solish, hatto uyatsiz so'zlarni ishlatish ham odatiy hol hisoblangan. Lekin haqiqiy shoirlar hajvga hamisha umummanfaatni ko'zlagan holda qo'l urganlar, tanqid qilinayotgan shaxsda ijobiy xislatni shakllantirish, xalqqa foydasi tegadigan insonga aylantirishni maqsad qilganlar. Hatto shu ezgu maqsad yo'lida nafsini malomat qilish, o'z-o'zini mazammat qilishgacha borganlar. O'zidan hadya so'ragan bir shoir haqida Abu Rayhon Beruniy shunday baytlarni aytadi:

يا شاعراً جاءني بخرى على الأدب
وافى ليمدحني والذم من أدبي

Ushbu she'r A.Irisov tomonidan o'zbek tiliga she'riy tarzda tarjima qilingan:

*Ont ichib aytaman, bilmam nasabim,
Hatto ota-bobom, ajdodim kimdir,
Otam Abu Lahabdek odobsiz bir chol,
Onam-chi, huv o'sha o'tinkash kampir.
Maqtovu mazammat, ey Abu-l-Hasan,
Hazilu chin kabi menga baribir.*

*Bu ishga berilib o'zni qiynama,
Qo'y endi urinib bo'lma behuzur [Irisov 1973, 99].*

Bu she'rning mazmunidan quyidagi jihatlarni anglashimiz mumkin: birinchidan, Beruniy hasab va nasabdan taqvo ustunligi haqidagi islomiy g'oyani ilgari surmoqda; ikkinchidan, Beruniy otasini Abu Lahabga, onasini esa "Masad" surasi 4-oyatidagi حَمَّالَةَ الْأَحْطَابِ "o'tin tashuvchi xotin"ga qiyoslashi o'z otasi va onasi sha'nida noloyiq gap aytishi emas, balki o'rinsiz madhiyabozlikka qay darajada e'tirozi kuchligilini namoyish qilishidir.

Shuningdek, manbalarda, Abu Bakr Xorazmiy bilan Sohib ibn Abbodning aloqalari yomonlashish sabablari va Abu Bakr Xorazmiy o'z she'rlarida uni ham hajv qilgani keltiriladi:

ا تحمدنّ ابن عبد ولو مطرت
كفاه بالجوّد حتى جازت الديما
لكنها خطرات من وساوسه
يعطي ويمنع لا بخلاء ولا كرما

(She'rining nazmiy tarjimasi):

*Maqtamangiz bunda ibn Abbodni
Qo'lidan saxiylik yog'ib tohsa ham.
Himmatin yo'lida ikki qanoti
Mo'l-ko'l yomg'irlardan o'tsa, ohsa ham.
Bu kaftlarning mehri qay vaqt qadardir,
Ular vasvasadan bo'lgan xatardir.
Mamnun berar avval, so'ngra man qilar,
U baxil yo himmatli, bilmam, kim bilar?!*

Safadiyning aytishicha, Abu Bakr Xorazmiy bu ikki baytni yozdi va shu ikki baytni Sohib ibn Ubbod ko'rishi uchun uning o'tiradigan makoniga qo'yib qo'ydi.

Bu kabi she'rlarni yozish borasida Abu Bakr Xorazmiy birinchilardan emas edi. Abu Bakr buni Abu Qosim al-A'modan, Muoviya ibn Abu Sufyondan, yana ham aniqroq qilib aytganda, shu kishilarning o'g'illariga tarbiya bo'lsin uchun Hasan ibn Sahilni hajv qilib yozgan she'rlaridan olgan edi.

Muoviya ibn Abu Sufyonning yozgan she'ri quyidagicha:

لا تحمدنّ حسنا في الجود إنمطرت
كفاه غزرا ولا تدممه إن زرما
فليس يمنع ابقاء على نشب
ولا يجود لفضل الحمد مغتتما

لكنها خطرات من وساوسه
يُعطي ويمنع لا بخلا ولا كرما

(She'rining nazmiy tarjimasi):

*Hasanni maqtamangiz, odil, saxiy deb hargiz,
Kaftlaridan mo'l-ko'llik, yog'ilsa-da bir dengiz.
Yomonlamang, ozgina, ziqnalik qilsa nima,
Hech bir ishni qilmaydi, abadiylik ishqida.
Davlat-la mudom qolmoq, dardi emas tiriklik.
Boylik deya man qilmas, maqtov deya saxiylik.
Ammo mana shu qo'llar, vasvasadan xatardir,
Xushnud berib, bir zumda man qilar ham o'shaldir.
Buni qanday atashni bilmay tilim so'z demas,
Bu baxillikdanmi yo karamlikdan ham emas.*

(She'rning nasriy bayoni): “*Hasanni hargiz saxiy deb maqtamanglar, garchi uning ikkita kaftidan mo'l-ko'l bo'lib saxiyliklar yog'ilsa ham. Va ozgina ziqnalik qilsa-da, uni yomonlamanglar. U hech nimani boylikda abadiy qolish uchun man qilmaydi va o'zi haqidagi maqtovlar davomli bo'lishi uchun ham saxiylik qilmaydi. Lekin uning qo'llari vasvasalardan bo'lgan xatarlardir. Beradi va man qiladi. Baxillik qilgani uchun ham emas va saxovatidan ham emas!*”

Rivoyat qilinadiki, Sohob ibn Ubbod bu baytlarni eshitganida, o'zi ikrom qilgan, himoya qilgan va mehnatini, ya'ni ijodini munosib taqdirlagan Abu Bakrdan yuqoridagi kabi ishlarning sodir bo'lganini inkor qilgan. Shuningdek, Abu Bakr Xorazmiyning o'limini eshitganida, u qattiq ta'sirlangani va shunday she'r aytgani haqida ma'lumotlar ham keltirilgan:

سألتُ بريدا من خراسان مقبلا
امسات خوارزميكم قال لي نعم
فقلت : اكتبوا بالجص من فوق قبره
الا لعن الرحمن من يكفر النعم

(She'rining nazmiy tarjimasi):

*Xurosondan kelding agarchi,
So'zla rostin ey, sen xabarchi.
Manzil tamom bo'ldimi tunda,
Ayt, Xorazmiy o'ldimi, bunda?
Menga “Ha” deb aytdi so'zlovchim,
Hayron hushim sayyodi – ovchim.
Yana dedim: yozing, boshiga,
Abu Bakr qabrtoshiga:*

*Ne'matin rad qilgan o'lmasmi,
Haq la'nati unga bo'lmasmi?!*

(She'rning nasriy tarjimasi): *"Men Xurosondan kelayotgan xabarchidan: "Xorazmiy o'ldimi?", deb so'radim. U menga: "Ha!" – dedi...". Men aytdim: "Abu Bakr qabri ustidagi qattiq toshga o'chmas qilib yozinglar: "Ne'matlarga nonko'rlik qilgan kimsani Rahmon la'natlagan", – deb.*

Abu Bakr Xorazmiy va Sohib ibn Abbod o'rtasidagi munosabatlar yomonlashgan bir vaqtda vazir Utba qatl qilinadi va uning o'rniga Abul Hasan Maziniy o'tiradi. Maziniy Abu Bakr Xorazmiyning qadrlaydigan va g'oyat yaxshi ko'radigan kishi edi. Shu sababli uni huzuriga chaqiradi va izzat-ikrom ko'rsatib, Nishopurga Xorazmiydan olingan narsalarni qaytarish borasida xat yozadi. Shuning uchun Xorazmiyning ahvoli yana yaxshilanib, qayta "oyoqqa turib" oladi. Qolaversa, Nishopur voliysi ham endi unga hashamat va ehtirom, ikrom va ulug'lash bilan nazar qilardi. Shu sababli uning martabasi ko'tarilib, nomi ulug' bo'ladi va yashash tarzi ham oldingidan ancha yaxshilanadi.

Abu Bakr Xorazmiy qalamiga mansub ayrim she'rlar mutolaasi uning falsafiy qaarashlari kengligi, ayrim masalalarda bugungi nazariy qarashlardagi bayon qilinayotgan ilmiy fikrlar kabi ko'zga tashlanadi. Masalan, quyida uning Abu Hasan Maziniy haqidagi she'rini o'qiyimiz:

كلم هي الأمثال إلا أنها
في الناس قد أضحت بلا أمثال
فاذا لتقين فإنهن عوالي
وإذا شئمن فإنهن عوالي

(She'rining nazmiy tarjimasi):

*"Kalimalar go'yo har fikring ko'chgan misollar,
Insoniyat ichra lek, mislsiz bir misqollar.
Agar talqin qilinsa, ular oliy nimarsa,
Hidlab ko'rsang, bilarsan, bu ne qimmatli narsa".*

Bu she'rning umumiy mazmuni so'zning inson tafakkurini ifodalashdagi o'rnini ko'rsatib bergan ilmiy asarlarga yaqin turadi. Jumladan, Alisher Navoiy mashhur "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida inson tufakkuri (ko'ngli)ni dengizga, so'zni durga, tilni esa ana shu durlarni dengizdan olib chiquvchi g'avvosga qiyolaydi: *"so'z durredurkim, aning daryosi ko'nguldur va ko'ngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kulldur. Andoqki, daryodin gavhar g'avvos*

vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javhariga ko'ra zohir bo'lur" [Navoiy 1967].

Abu Bakr Xorazmiy umrining oxirida o'zi yoqtirib qolgan Nishopurda qolib, shu yerda vafot topadi. O'zaro adovatga sabab bo'ladigan holat yuz berganiga qaramasdan, Badiuzzamon Hamadoniy Abu Bakr Xorazmiyning vafotini eshitgan paytda qattiq ta'sirlanib, quyidagi baytlarni bitgan:

حنانيك من نفس خافت
ولئيك عن كمد ثابت
أبا بكر اسمع وقل كيف ذا
ولست بمسمعة الصامت
حلفتُ لقد مُتُّ من معشر
غنيين عن خطر المائت
يقولون : أنت به شامت
فقلت : الثرى بفم الشامت
وعزّت عليّ معاداته
ولا منتدارك للفائت

(She'rining nazmiy tarjimasi):

*"Ta'ziya yo'llayman, faqir tomondan,
Joningga xavf etgan nafsi yomondan.
Va o'tli kalomdir bu xafalikka,
Mahzun bir salomdir xalifalikka.
Eshitarmi jim holimni birov-kim?!
Bugun fano yo'lda borar tinglovchim.
Sen boysan, so'zlarim qolar kuchinda,
Hatto yakun xatarlari ichinda.
Deb meni yomonlik qildi, aslida,
Dedim, tuproq shundaylarning og'zida.
Dushmanlikda ham-ki a'losan, bugun
Yo'qsan, anglayolmay aqlimda tugun".*

(She'ning nasriy tarjimasi): "Xavf qilgan jondan senga ta'ziyalar bo'lsin. Sobit xafalikka salomlar bo'lsin. Abu Bakr, eshitgin, jim turuvchini! Eshitguvchi yo'q bo'lgan bu holat (ya'ni uning o'limi) qanday bo'ldi?! Bas, men qasam ichib aytamanki, sen xatarlar ichra boy odamlardan bo'lib o'lding! Menga aytadilar, sen unga yomonlik, ya'ni ichi qoralik qilgansan, deb. Men esa ularga: "tuproq ichi qoralik qilgan odamning og'zidadir", deb aytdim. U dushmanlik qilishda mendan ustun bo'ldi. Lekin men uning ketganini idrok qila olmayapman".

Ushbu baytlar fikr fikrni, yaxshilik yaxshilikni, yomonlik

yomonlikni, she'r she'rni tug'dirishiga yaqqol misol bo'la oladi.

Xuddi shu kabi Abu Bakr Xorazmiy bilan ayrim masalalarda kelisha olmagan Ruqoiy ham unga atab marsiya yozar ekan, uning adabiyotdagi baland darajasidan tushirishni loyiq ko'rmadi. Balki, shoirning martabasini tanqid qilmagan holda bu boradagi o'rnini e'tirof etdi. Ruqoiyning unga bo'lgan adovatidan insofi ustun keldi. Ruqoiyning bu xatti-harkatlari insoniy munosabatlarda, adabiy harakatchilik uchun ham muhim o'rin tutadi. Xuddi shu kabi bag'rikenglik bilan yo'l tutilishini o'zbek adabiyoti tarixida ham kuzatamiz. Bunday voqealarning ayrimlari Hasanxoja Nisoriy tomonidan ham bayon qilingan [Nisoriy 1994].

Yana shu o'rinda "ikki qo'shin sohibi" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Said Ahmad ibn Shabibiy (Abu Said Ahmad ibn Shabib ash-Shabibiy shoir, sarkarda, notiq bo'lganlar. Ilmiy majlislarda ishtirok etib nutq so'zlagan. Qo'shinga bosh bo'lib g'azotlarda ishtirok etgan. Saroyda xizmat qilgan. Uning she'riy devoni ham mavjudligi aytib o'tilgan) ning Abu Bakr Xorazmiy haqida hajv qilganini va unga "bevafo", "tez o'zgaruvchan" deb tuhmat qilganini ko'ramiz. Ammo Shabibiy Xorazmiyning adabiyotdagi o'rnini e'tirof qilishdan boshqa narsani o'ziga ravo ko'rmagan. Aytish joizki, Shabibiy Abu Bakr Xorazmiyning adabiyot borasidagi eng afzal shaxs deb bilgan va bu fikrlar uning quyidagi she'rlarida ham namoyon bo'ladi:

أبو بكر له أدب وفضل
ولكن لا يدوم على البقاء
مودته إذا دامت لخل
فمن وقت الصباح الى المساء

(She'rining nazmiy tarjimasi):

*Odob bor, fazl bor Abu Bakrda,
Ma'no bor u aytgan har bir fikrda.
Do'st bo'lib, sinamas do'stin o'chgacha,
Mehri boqiy bo'lmas tongdan kechgacha.*

(She'rning nasriy tarjimasi): "Abu Bakr, unda odob va fazl bor. Lekin agar u do'stga aylansa, uning muhabbati tongdan kechgacha ham boqiy qola olmaydi, ya'ni davom etmaydi".

Albatta, adab hamisha insonga baho berishda bosh mezon bo'lgan. Sharq adiblari inson va adab tushunchlarini bir-biridan ayro tasavvur ham qilmaganlar. Adab durdonalari bilan bezatilgan asarlar umri boqiy bo'lishini davr sinovlaridan o'tib kelayotgan mumtoz manbalar ham ko'rsatib turibdi. Masalan, A.Hayitmetov so'zi bilan aytganda, "Ijtimoiy, falsafiy, axloqiy va boshqa muhim

masalalarning ana shunday keng hal etilishi Navoiy “Xamsa”sini barcha xalqlar, elatlar uchun doimo kerakli va foydali xazinaga aylantirdi” [Hayitmetov 1996, 72].

Yuqoridagi ma’lumotlarga tayanib, Abu Bakr Xorazmiy o’zidan birorta sodiq do’st qoldirmagan, deya olmaymiz. Darhaqiqat, uning Tabalisiydek shogirdi bor edi. Tabalisiy o’zining jo’shqinlikka to’la she’rlarida bu borada shunday deydi (nasriy tarjimasini): *“Qattiq g’amlar sochlarimni oqartirdi. Zamon kirlandi va holatim toza bo’ldi. Zamon o’zining suyganlarini qaytarib oldi va ulug’lik zavol bo’lishiga salom berdi, ya’ni yuzlandi. Nur taratuvchilar qarilikka qaytdi va osiylar tog’larda nola chekdi. Men dedim: ey sohibim, kechaning gardishlari nimani keltirdi ekan? Qayta keltirish, ya’ni jonlantirish egasinimi? Uni qoyim qildimi erga va savollarni chaqirdimikan? Yoki unga himmatlar berilgan himmatli imomni keltirdimikan? Menga she’r va ma’nolarga bo’lgan ishtiyoqimni baland qiluvchi va kishilarni tanqid qilishdagi shavqimni chaqirdimikan?! Yo bayon qiluvchi himmatli imomnimi? She’rlar egasinimi yoki she’rlar egasi-yu qofiyalar otasi, ma’nolar amakisi-yu oliyliklar akasinimi? Zamon uni sinadi va u urushdir. Qachonki misoli yo’q kishini ko’rsa, zamon u bilan jang qilgan va u zamon urush maydoni, ya’ni janggohdir”.*

E’tibor qarataidigan bo’lsak, Tabalisiy Abu Bakr Xorazmiy fazilatlarini bayoni asnosida barcha zamonlar uchun muhim bo’lgan bir ijtimoiy-siyosiy masalani badiiy vosita orqali anglatishga harakat qilmoqda. Bu ham bo’lsa, zamona janggoh, zamondoshlar o’zaro jang olib borayotgan sipohlar kabi ekani haqidagi g’oyadir. Demak, har bir komil inson zamon bilan bo’lgan murosasiz jang g’olibidir. Sababi, u zamon bilan ham, zamondoshlar bilan “jang”da engilmaslik uchun asosiy dushman – nafsni o’z erkiga qo’ymagan. Misol tariqasida, bu masala – ziddiyatlarga to’la inson tabiati, uning ichki olamida kechadigan ma’rifiy takomul jarayoni “Ihyou ulumid-din”ning “Riyozatun-nafs” kitobida jonli va ajib manzaralar orqali aks ettirilgan [G’azzoliy, 2006].

Yana Abu Bakr Xorazmiy ijodidan quyidagi mazmundagi yoniq satrlar ham keladi (*she’rning nasriy tarjimasini*): *“Ey Xorazm ahli, kim yupanchiq bo’ladi? Sizlarmi yoki ulug’lik, oliylikmi yoki qofiyalarmi yoki aqlli, dono kishimi yoki ta’liqlar – sharhlarmi yoki mo-mulklarmi? O’tib ketuvchi narsa agar bir kun bitta dohiyni ko’rsa, uni bir so’z demasdan so’yadi, ya’ni qurbon qiladi, yomon kishilar esa qutilib qoladi. Zamon dengizlarni etishtirdi. Bu dengizlar nurlar va olmoslar bilan mavjlanadi. Ey, ertaga oliyliklarni iddao qiluvchi, darhaqiqat, tuzoqlar baland qilindi, baloga yo’liqib qolma!”.*

Abu Bakr Xorazmiyning tarjimai holi bizga uning mehnatkashligini, o'z davri ilmlarin axta egallagan, har qanday fikr yoki istaklarini ro'yobga chiqarish uchun doim tayyor va shay holatdagi musofir, jahongashta shaxs bo'lganini bayon qiladi. Bu sifatlar uning hayot tarziga aylangani bois ular Abu Bakr Xorazmiy she'rlarining barcha qirralarida aks etib turadi. Qolaversa, bu jihatlarni u bilan yashagan zamondosh shoirlar qasidalarining bir qismini sharhlash orqali ham, qasidalardan joy olgan asosiy nuqtalarga qarab ham ilg'ashimiz mumkin. Shoirning oilasiga bo'lgan chuqur his-tuyg'ulari va oilasi oldida o'zini mas'uliyatini his qilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shuningdek, bularning barchasi shoir shaxsiyatida, ruhiyatida o'zaro qarama-qarshilik borligini bildiradi. Bu esa uning muhabbatdan nafratga, madhdan hajvga o'tishida namoyon bo'ladi.

VIII – XIII asrlar Xorazm adabiy muhiti adiblaridan Abu Bakr Xorazmiy ijodida g'azal janridagi arabiy nazm namunalari ham ko'p uchraydi. G'azal sharq mumtoz she'riyatida eng ko'p tarqalgan lirik janrdir. G'azallar dastlab VII asr arab she'riyatida paydo bo'lgan. Fors-tojik adabiyotidagi ilk g'azallar muallifi sifatida Abu Abdulloh Ro'dakiy (taxminan 860 – 94-y.) e'tirof etiladi. G'azalning o'zbek adabiyotidagi ilk namunalari esa Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", "Said Ahmadning "Taashshuqnoma" asarlari tarkibida uchraydi. Arabnavis Xorazm shoirlari arab she'riyati an'alariga taqlidan o'z qasidalarining muqaddimasida g'azallar keltirganlar. Jumladan, shoir Abu Bakr Xorazmiy g'azalining matlasiga bir e'tibor beraylik [Saolibiy 2009, 209]:

و شمس ما بدت إلا أننا بان الشمس مطلعها فضول
تزيء علي السنين ضياءً و حسنا كما رفئت على العتق الشمول

Garchi, nazmni nasrga aylantirish uning nomavzun so'zdan farqlovchi qator xususiyatlarini yo'qotsa ham, baytni nasriy bayon qilishga to'g'ri keladi: *"Mahbubam ko'rinish berishi bilan kun – quyosh o'zining ortiqchaligini namoyon qildi. Sen vaqt o'tgan sari ziyo – tiniqlikda, husnda ziyodasan, xuddi may yil oshgan sari yutumli bo'lganidek"*.

Mazkur arabcha baytning asliyatdagi zavqini totish uchun Navoiy g'azallariga murojaat qilishimiz kerak:

*Istasangkim, ul quyosh chiqqach sanga qilg'ay tulu',
Ey ko'ngul, g'am seli etgach, tog'dek tutqil sabot*

[Navoiy 1987, 4].

Ya'ni: *"Ey ko'ngil, agar quyosh chiqqanidan so'ng quyoshning senga botishini istasang, o'zingni xuddi ustiga g'am seli yog'ilganida sabot bilan mustahkam turgan tog'lardek tut!"*

Navoiy tilga olayotgan obraz, ya'ni butun boshli koinot – galaktikadan iborat quyoshning ko'ngilga botishini istash, xuddi Abu Bakr Xorazmiyning mahbub (ya'ni, bu o'rinda yo "ko'ngil" yo "pir – ustoz" yo "Rasululloh" yoki Alloh" nazarda tutilyapti) kelgach, quyosh o'zini ortiqcha sezganiga o'xshaydi.

Yoki boshqa bayt:

*Subh erur soqiyu men maxmurmen, sen mayparast,
Tut quyoshdek jomni, moni' nedur bo'lmoqqa mast?*

[Navoiy 1987, 87].

Ya'ni: *"Tong – may quyuvchi; men – may xumori tarqamagan mast; sen – mayga mukkasidan ketgan mayxo'rsan. Bas, maykosaga o'xshagan quyoshni (to'ldirib bizga) uzat! Shunday holatda mast bo'lishga nima to'sqinlik qilishi mumkin?!"*

Navoiy bu baytida Yaratuvchi bilan bandasi o'rtasidagi parda ko'tarilgan, duolar Dargohga to'siqsiz yetib boradigan sahar paytidagi manzarani may orqali tasvirlayapti. Dunyo istaklaridan zarracha g'ubor yetmagan bu pokiza, musaffo damdan nafas olayotgan inson mastona kayfiyatda go'yo borlig'ini unutmagan va bu kayfiyatning yanada cho'zilishini xohlayapti, xuddi Abu Bakr Xorazmiyning mahbubi vaqt o'tgan sari ziyo – tiniqlikda, husnda ziyoda bo'layotganidek, yil oshgan mayning yutumli bo'lganiga o'xshab...

Abu Mansur as-Saolibiyning aytishicha, mazkur ikki bayt sharaflı qavmning sharaflı kishisi madhida kelgan qasidaning g'azaliy muqaddimasidir. Xorazmiy uni qasidaning bayti va nishon vositasi demoqchi [Saolibiy 1976, 652].

Yana Abu Bakr Xorazmiy g'azallaridan o'qiymiz [Saolibiy 2009, 210-211]:

بِسْمِ فَا بَدَتْ جِي دَهَا فَتَكْشِفَتْ
عَنْ نَظْمِ دُرِّ تَحْتِ نَظْمِ لَالِي

*Tabassum qilib, go'zalligin namoyon qildi,
La'lu marjoni ostidan dur marjoni ko'rindi.*

Abu Bakr Xorazmiy shunday demoqchi: "Bu go'zal yor tabassum qilib, oq tishlarini ko'rsatdi. Ular dur donalari ustiga terilgan la'l donalari kabi bo'lib, uni bezab turadi. Ikki yanog'i ustidan chakkalari tushib, bittasining yonida xoli bor. Bu xol xuddi dol harfi-

ga nuqta qo'yilgandek. Xoldan xoli sochlari esa nuqtasi yo'q zol (ya'ni dol) harfi kabi demoqda. Oxirgi baytdan ko'rinadiki, shoir so'z o'yini qilmoqda.

Ko'rinadiki, ushbu baytlar keynchalik turkiy adbiyotda ham keng tarqalgan *yonoq, xol (turkiyda meng), soch, tish, xatt* tanosubi asosida qurilgan. Masalan, Xorazmiy "Muhabbatnoma" sida:

*Aningkim, ol yuzida meng yaratti,
Bo'yi birla sochini teng yaratti...
Qaro meng ol yanoqingga yaroshur,
Boshim doim adoqingga yaroshur* [Xorazmiy 1987, 16].

Abu Bakr Xorazmiy bilan bir asrda yashagan al-Hasan ibn al-Muzaffar an-Naysoburiy ham g'azal yo'nalishida qalam tebratganlardan biri bo'lib, [Yoqut al-Hamaviy ar-Rumiy 1993, 196] uning she'rlarida ham Abu Bakr Xorazmiy ijodida kuzatilgani singari majoziy muhabbat, tashxis, tanosub kabi qator san'atlar vositasida go'zal ifodasini topgan:

أرْيَا شمالاً أم نسيم من الصَّبَا
أتانا طروقاً أم خيال لزينبا ؟
أم الطالع المسعود طالع أرضنا
فأطلع فيها للسعادة كوكبا ؟

(She'rning nasriy tarjimasini): "Shimol iforimi bu yo sabo shabadasi? Eshik qoqib keldimi yoki Zaynabning xayolimi bu? Yoki saodatli tole' erimizga keldimi, unda saodat yulduzin keltirib?"

Xususan, misol keltirilgan baytlardagi sabo obrazi kishi tasavvurida go'zal va ma'suma qiyofadagi qiz sifatida gavdalanadi. Asliyat matniga e'tibor qaratilsa, bu yerda shamolning bir necha xili: *shimol, nasim, sabo* ishlatilgan. Aslida bu so'zlar barchasi mumtoz adiblarimiz tilida asliga muvofiq maenolarda ishlatilgan. Bu haqda A.Rustamov shunday yozadi:

"Shamol so'zining o'zi aslida shimoldan esgan yelni bildiradi... "Sabo" so'zi she'rda ko'p ishlatilgani uchun o'z shakli va ma'nosini o'zgartirmagan, Sharqdan esadigan yel sabo deb ataladi... Sabo bahorda havoni ilitib tabiatni uyg'otgani va tongda quyosh ta'sirida havoni tozalagani uchun hayotbaxsh yel hisoblanadi. Shuning uchun shoirlar saboga ko'p murojaat qiladilar" [Rustamov 1987, 114-115].

Shoir Abu Bakr Xorazmiy ijodida madh san'ati boshqa san'atlardan va boshqa maqsadlardan farqli o'rin tutgan. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida biz tanishgan she'rlarning ko'pi madh mavzusida bo'lsa-da, shoir ayni shu she'rlarini o'zining

eng yaxshi she'rlari deb bilmagan va madh borasida keltirilgan qasidalar xuddi arab qasidolari singari boshqa maqsadlardan xoli emas.

Abu Bakr Xorazmiyning ana shunday qasidalariga misol qilib, davlat boshlig'iga yozgan ta'ziyanomasini keltirish mumkin. Bu bir tarafdin ta'ziyani o'z ichiga olsa, yana bir tarafdin davlat boshlig'ini yangi mansab bilan qutlashni ifodalaydi. Darhaqiqat, shoir va adib Abu Bakr Xorazmiy bu qiyin vaziyatda ikki qarama-qarshi maqsadni chiroyli tarzda qo'llab, o'z xohishini o'ziga xos bir yo'sinda amalga oshirgan. Shuning uchun Abu Nasr Utbiy (Somoniylar vaziri Abu Nasr Muhammad ibn Abdu-l-Jabbor Utbiy (taxm. 961-1077 yoki 1036-yy.)ning "Tarixi Yaminiy" ("Yamin ud-davla tarixi") asari Sabuktagin va Sulton Mahmud davrida G'aznaviylar imperiyasi tarkibiga kirgan Afg'oniston, Xuroson, Xorazm va Movarounnahrning 975-1021-yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etuvchi hamda qoraxoniylarning Movarounnahrni bosib olishi (992-996-yillari) haqida ma'lumot beradi. Uning "Tarixi Yaminiy" asari benihoya qimmatlidir) uning bu qasidasini: "Abu Bakr Xorazmiy aytgan qasidalarining eng go'zali", – deb aytadi (*uning arab tilidan qilingan nasriy tarjimasini*): "Bir birodarni ko'rdimki, agar unga insonlar ichida ulug'lik ixtiyor qilinsa, u shundan boshqasini tanlamaydi va istisno qilmaydi. Zero, dunyo senga, ko'rib turganingdek, bolalarcha keladi va uni chaqirishingdan oldin seni tark etadi. U senga ishq bo'lib keladigan xalqning ma'shuqasidir. Albatta, sen o'lchov bo'lib tong ottirding, men esa unga tunlarimni hadya qildim".

Abu Bakr Xorazmiy Xorazm diyorida yashagan shoirlar orasida eng samarali ijod qilganlaridan biri hisoblanadi. Xorazmiy asarlarining tarjimonlari zikr qilganlaridek, u o'zidan bir qancha she'riy to'plamlar qoldirgan. Lekin bu to'plamlarning ko'pchiligi yo'qolib ketgani sababli faqat ba'zi kitoblarning ichida sochilgan ayrim she'rlarigina bizgacha etib kelgan. Shuningdek, Abu Bakr Xorazmiy bizga arab lug'atida bitilgan eng nafis ar-Rasoil, ya'ni "Risolalar" devonini ham qoldirgan.

Xulosa

Abu Bakr Xorazmiy haqidagi ma'lumotlardan uning tinimsiz izlanishi, ko'p mehnat qilishi, barcha fanlar doirasida mohir tadqiqotchi ekani, o'z fikr va istaklarini amalga oshirish uchun bir yerda turmaydigan musofir, ya'ni dunyo kezuvchi shaxs bo'lgani ma'lum bo'ladi. Uning hayotidagi intilishlari, nozik his-tuyg'ulari hamda istaklari, jumladan, oilasiga nisbatan his-tuyg'ulari va ularning oldida o'zini mas'uliyatli his qilishini qasidalaridagi asosiy

nuqtalar orasidan mulohaza qilib, topib olsak bo'ladi.

Shuningdek, o'sha zamon turli ijtimoiy-siyosiy holatlar, o'zaro gina-kuduratlar, raqobatlar sababli ayrim o'rinlarda uning shaxsiyatida muhabbatdan nafratga ko'chish, madhdan hajvga o'tish kabi o'zaro ichki qarama-qarshilik ham namoyon bo'ladi. Shu kabi nafsiy va axloqiy hissiyotlar Abu Bakr Xorazmiy she'rlarining barchasida ko'zga tashlanadi. Qolaversa, u bilan birga yashagan zamondosh shoirlar qasidalarining bir parchasini izohlash orqali ham buni bilishimiz mumkin.

Abu Bakr Xorazmiy arab qasidalarini yaratishda taqlidiy uslubdan, ya'ni mashriq shoirlari yo'lidan yurgan. Bu madh, hajv, faxrlanish, vasf qilish va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Shoir arablar nazdida mashhur maqsad yo'llaridan yurgani holda uning she'rlarida mavzularning bir necha bor takrorlanishini ham kuzatamiz.

Arab xalqi qasidalari singari Abu Bakr Xorazmiy she'riyati, adabiy merosining asosiy qismi ham "madh" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, uning madh qilish uslubi boshqa shoirlarnikidan aynan maqsadi o'zgachaligi bilan ajralib turgan.

Xulosa qilish mumkinki, VIII – XIII asrlar Xorazm adabiy muhitida Abu Bakr Xorazmiy asarlari o'ziga xos o'rin tutadi. Ayni vaqtda shoir adabiy merosini tadqiq qilish o'sha davr adabiy muhitini chuqurroq anglash, madaniy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy holatlarini tahlil qilishda qimmatli ma'lumotlar beruvchi asosli manba bo'lib xizmat qiladi.

Адабиётлар

- Абу Мансур Абдулмалик ас-Саолибий. 2009. *Ятимматуд даҳр фий маҳасини аҳлил аср*. Дорул кутубул илмийя. 4-жуз.
- Абу Мансур ас-Саолибий. 1987. *Китоб латойиф ал-маориф*. Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичлар тузувчи Исматулла Абдуллаев. Тошкент: Фан.
- Абу Мансур Саолибий. 1976. *Ятимат ад-даҳр фи маҳосин аҳл ал-аср*. Тадқиқ қилувчи, таржимон, изоҳ ва кўрсаткичларни тузувчи И.Абдуллаев. Тошкент: Фан.
- АбуҲомид Ғаззолий. 2006. *Риёзатун-нафс* (Нафстарбияси) Таржимон ва сўзбоши муаллифи Рашид Зоҳид. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Алишер Навоий. 1967. *Асарлар*. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Алишер Навоий. 1987. *Бадоеъ ул-бидоя*. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1987. *Мукаммал асарлар тўплами*. Биринчи жилд. Тошкент: Фан.
- Ёқут ал-Ҳамавий ар-Румий. 1993. *Муъжаму-л-удабо*. Дор ал-арабий

ал-исломий. Байрут–Лубнон. 4-жуз.

Ирисов А. Беруний. 1973. *Ҳикматлар*. Тошкент: Ёш гвардия.

Хоразмий. 1987. *Муҳаббатнома* (Муборак мактублар). Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

Огаҳий. *Жомеъ ул-воқеъоти султоний*. Ўз РФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. №9786, 11^а.

Рустамов А. 1987. *Сўз хусусида сўз*. Тошкент: Ёш гвардия.

Ўрозбоев, А. 2020. “Комил девони қўлёмасининг мухтасар мундарижаси”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 36.

Ҳайитметов, А. 1996. *Темурийлар даври ўзбек адабиёти*. Тошкент: Фан.

Ҳасанхожа Нисорий. 1994. *Музаққири аҳбоб*. Форс тилидан Исмоил Бекчон таржимаси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти.

Ҳинд Хусайн Тоҳа. 1976. *Ал-адаб-ул-арабӣ фӣ иқлим Хоразм. Силсилат-ул-кутуби-л-ҳадиса*. Бағдод: Маншурот Визорати-л-иёлом.

The place of Abu Bakr Khorezmi in the literary environment of Khorezm in the middle ages

Azamat Ataev¹

Abstract

Poems and odes in Arabic literature in Khorezm in the 8th - 13th centuries are, on the one hand, important in elucidating cultural relations and factors of cultural influence in the emergence and development of this environment, and on the other hand, they are also very important in revealing socio-political factors. Eulogy and humor is an integral part of the old Arab literary environment.

This article describes the life of Abu Bakr Khorezmi, one of the representatives of Arabic literature in Khorezm, the scope and main directions of his poetry. This research work provides important new scientific information to literary source studies and textology in the correct understanding and interpretation of the literary heritage of many Arabic-speaking poets who grew up in the Khorezm region in the 10th century.

Key words: *Arabic speaker, historical source, literary source, ghazal*

¹Azamat P. Ataev – doctoral student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: azamatatayev79@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-0902-321X

For citation: Ataev, P.A. 2022. “The place of Abu Bakr Khorezmi in the literary environment of Khorezm in the middle ages”. *Golden scripts* 2: 68-89.

References

- Abu Mansur Abdulmalik as-Saolibiy. 2009. *Yatimmatud dahr fiy mahasini ahlil asr*. Dorul kutubul ilmiyya. 4-juz.
- Abu Mansur as-Saolibiy. 1987. *Kitob latoyif al-maorif*. Tadqiq qiluvchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlar tuzuvchi Ismatulla Abdullaev. Toshkent: Fan.
- Abu Mansur Saolibiy. 1976. *Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr*. Tadqiq qiluvchi, tarjimon, izoh va ko'rsatkichlarni tuzuvchi I.Abdullaev. Toshkent: Fan.
- Abu Homid G'azzoliy. 2006. *Riyozatun-nafs* (Nafs tarbiyasi) Tarjimon va so'zboshi muallifi Rashid Zohid. Toshkent: Movarounnahr.
- Alisher Navoiy. 1967. *Asarlar*. O'n besh tomlik. O'n to'rtinchi tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Alisher Navoiy. 1987. *Badoe' ul-bidoya*. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1987. *Mukammal asarlar to'plami*. Birinchi jild. Toshkent: Fan.
- Yoqut al-Hamaviy ar-Rumiy. 1993. *Mu'jamu-l-udabo*. Dor al-arabiy al-islomiy. Bayrut-Lubnon. 4-juz.
- Irisov A. Beruniy. 1973. *Hikmatlar*. Toshkent: Yosh gvardiya.
- Xorazmiy. 1987. *Muhabbatnoma* (Muborak maktublar). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Ogahiy. *Jome' ul-voqe'oti sultoniy*. O'z RFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. №9786, 11^a.
- Rustamov A. 1987. *So'z xususida so'z*. Toshkent: Yosh gvardiya.
- O'rozboev, A. 2020. "Komil devoni qo'lyozmasining muxtasar mundarijasi". *O'zbek tili va adabiyoti* 6: 36.
- Hayitmetov, A. 1996. *Temuriylar davri o'zbek adabiyoti*. Toshkent: Fan.
- Hasanxoja Nisoriy. 1994. *Muzakkiri ahbob*. Fors tilidan Ismoil Bekchon tarjimasini. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.
- Hind Husayn Toha. 1976. *Al-adab-ul-arabī fī iqlim Xorazm*. Silsilat-ul-kutubi-l-hadisa. Bag'dod: Manshurrot Vizorati-l-i'lom.

LINGVISTIKA
LINGUISTICS**O‘zbek shevalarida “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi so‘zlarning saqlanishi to‘g‘risida**G‘aybulla Boboyorov¹**Abstrakt**

Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” (Turkiy so‘zlar devoni) asaridagi tilga olingan bir necha o‘nlab so‘zlarning o‘zbek tili va shevalarida saqlanish darajasiga to‘xtalib o‘tiladi. O‘zbek tili qarluq, qipchoq va o‘g‘uz kabi lahjalarni o‘z ichiga olib, ulardan har biri “Devon”dagi eski turkiy so‘zlarni u yoki bu darajada saqlab qolgan. O‘zbek tilining o‘ziga xos tomonlaridan biri – bu tilning uchta yetakchi shevasi borligi, uzoq yillar davomida ushbu tarmoqlar uzluksiz o‘laroq aralashib kelganligi, ikkinchi tomondan esa deyarli ming yildan beri yozma adabiy tilga ega bo‘lib kelgani tilimizning qadimiy so‘zlarni birmuncha yaxshi saqlab qolishiga turtki bo‘lgan. Shuningdek, har uchala tarmoqning o‘zining eski o‘zanidan birmuncha uzoqda bo‘lishi ularning eski o‘zgachaliklari saqlanib qolishiga olib kelgan. O‘zbek tili “Devon”dagi so‘zlar eng ko‘p saqlanib qolgan tillardan biri bo‘lishining negizida yana ko‘plab omillar yotib, ulardan biri tilimizning eng eski yozma turkiy tillardan biri bo‘lmish “Xoqoniya turkchasi”, ya‘ni Qoraxoniylar chog‘idagi adabiy turkchaning izdoshi ekanidir.

Ochqich so‘zlar: *o‘zbekcha, turkiy tillar, eski turkcha, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz, Xorazm, Amudaryo, Sirdaryo.*

Kirish

Yozma adabiyoti ancha eski chog‘larga borib taqaladigan turkiy ellardan biri bo‘lgan o‘zbeklar va ular so‘zlashadigan tilning o‘ziga xos tomonlari talay. Boshqa turkiy tillardan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida qarluq, qipchoq va o‘g‘uz kabi uchta yirik turkiy til

¹ Boboyorov G‘aybulla Bolliyevich – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi.

E-pochta: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3405-4325

Iqtibos uchun: Boboyorov, G. B. 2022. “O‘zbek shevalarida “Devonu lug‘ati-t-turk”dagi so‘zlarning saqlanishi to‘g‘risida”. *Oltin bitiglar* 2: 90–111.

tarmog'i uchrashi ham bunday o'zgarliklardan biridir. O'zbekcha ushbu lahjalarlarga xos ko'plab so'zlarni o'zida saqlab qolganligi bilan birga, ham ilk o'rta asrlar adabiy turkchasi – O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tilini, hamda X – XIII yuzyilliklar turkiy tilining yorqin o'rnaklari bo'lmish – "Qutaqg'u bilig", "Devonu lug'ati-t-turk" kabi yozma asarlardagi tub turkiy so'zlarni yaxshi saqlab qolgan til o'laroq bugungi turkiy tillar orasida etakchilik qiladi.

Ayniqsa, XI yuzyillikda yashagan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" (Turkiy so'zlar devoni) asaridagi "Xoqoniya turkchasi" deb atalgan turkiy til tarmog'ining bugungi izdoshi qarluq shevasi o'zbek adabiy tilini tashkil qilishi bilan birga so'zlashuvchilarining salmog'i ancha yuqori bo'lgan til o'laroq bilinadi.

O'zbek tilining qipchoq tarmog'i ko'proq qishloqlarda kuzatilib, O'zbekiston viloyatlaridagi qishloqlarning deyarli yarmidan ko'pi bu shevada so'zlashadilar. Samarqand, Nurota, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida bu shevada so'zlashuvchilar talay. Shuningdek, Farg'ona, Andican va Namangan viloyatlarida bir necha qishloqlarda qipchoq shevasi saqlanib qolgan, biroq qipchoqcha so'zlashuvchilarning ko'pchiligi qarluq lahjasiga o'tayotgani kuzatiladi. Xorazm viloyatining Yangibozor va Gurlan kabi ikki tumanida qipchoq shevasi yetakchilik qilib, Qoraqalpog'istonda turg'unlarining sezilarli bir bo'lagi o'zbek-o'g'uz va o'zbek-qipchoq tarmoqlarida so'zlashadilar.

O'zbek tilining uchinchi yirik tarmog'i bo'lgan o'g'uz shevasi esa Xorazm viloyatida yetakchi bo'lib, bu tarmoq O'zbekistonda keng tarqalgan bo'lmasa-da, Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarida yashovchilar orasida birmuncha keng yoyilgan sheva o'laroq bilinadi. Bundan tashqari, Jizzax viloyatining Forish tumani-dagi bir necha qishloq turg'unlarining so'zlashuvi o'zbek o'g'uzchasini eslatadi. Bundan tashqari, o'zbek o'g'uzchasida so'zlashuvchilar Janubiy Qozog'istonning bir necha shahar va qishloqlarida, ayniqsa, Turkiston shahri va uning tegrasidagi turg'unlar orasida tarqalgan bo'lib, ular tilida qarluq-o'g'uz qorishuvi ko'zga tashlanadi.

Qarluqcha Farg'ona, Andijon, Namangan, Toshkent, Jizzax, Samarqand – Buxoro, Qarshi - Shahrisabz, Termiz, Nurota, Karmana (Navoiy) kabi ko'plab ichki tarmoqlarga ega bo'lib, O'zbekistonda-gi deyarli barcha viloyatlar va tumanlardagi yerli aholi bir-biridan birmuncha ajralib turuvchi, shu bilan birga, o'zaro ulanib ketuvchi shevalarga bo'linadi. Qolaversa, O'zbekistonga qo'shni o'lkalar-da so'zlashiluvchi o'zbek tili ko'proq qarluq lahjasiga negizidadir.

Qirg'izistonning O'sh, Jalolobod va O'zgan shaharlari va ular tegrasidagi qishloqlarda, Qozog'istonning Turkiston, Chimkent, Sayram, Taroz kabi shaharlar va ular tegrasidagi qishloqlarida, Turkmanistonning Kelif, Kerki kabi tumanlarida, Tojikistonning Istaravsan (O'ra-tepa), Dushanbe, Kulob kabi yirik shaharlarida qarluq o'zbekchasi keng tarqalgan. Bu tarmoq O'zbekistonning janubiy qo'shni-si bo'lgan Afg'onistonning shimoliy qismidagi Mozori Sharif, Balx, Qunduz, Tahor, Javuzjon (Juzjon) va yana bir necha viloyatlarida keng yoyilgan.

Shunga o'xshab o'zbek qipchoqchasi O'zbekistondan tashqari Janubiy Tojikistonda, Turkmanistonning Chorshangi, Magdanli (Gaurdag), Kerki kabi tumanlaridagi ko'plab qishloqlarda, shuningdek, Shimoliy Afg'onistonning ko'plab tuman va qishloqlarida o'z so'zlashuvchilariga ega. Bundan tashqari, o'zbek qipchoqchasi Qozog'istonning Qoratorov tog'lari (eski Qorachuq)ning terskay – shimol tomonlaridagi Suzoq, Cho'loq-qo'rg'on tumanlarida ham so'zlashiladi, biroq bu tilning o'rnini qozoqcha egallayotgani kuzariladi. Qirg'izistonda esa o'zbek-qipchoq tilida so'zlashuvchilar deyarli yo'q, ayrim qishloqlarda bu tarmoq til uchrab tursa-da, deyarli yuz yildan beri ular qirg'izlarning bir bo'lagi o'laroq tilga olinadi.

Shunga o'xshash holat o'zbek o'g'uzchasiga ham tegishli bo'lib, Qirg'iziston va Tojikistonda bu tarmoqda so'zlashuvchi o'zbeklar to'g'risida bilgilarga ega emasmiz. Afg'oniston shimolidagi Andxuy shahrida o'zbek o'g'uz tilida so'zlashuvchi qishloqlar uchrasa-da, ularning ko'lami va salmog'i to'g'risida yetarlicha bilgilarga duch kelmadik. Shuningdek, Turkmanistondagi Turkmanobod (eski Chorjuy) va Dash-O'g'uz (eski Toshovuz) shaharlari va ular tegrasidagi qishloqlarda o'zbek og'uzchasi ancha keng tarqalgani ko'zga tashlanadi.

Ana shunday tarmoqlarga ega bo'lgan o'zbek tilining o'ziga xos tomonlaridan biri o'laroq bu tilning uchta yetakchi shevasi borligi, uzoq yillar davomida ushbu tarmoqlar uzluksiz o'laroq aralashib kelganligi, ikkinchi tomondan esa deyarli ming yildan beri yozma adabiy tilga ega bo'lishi bu tilning qadimiy so'zlarni birmuncha yaxshi saqlab qolishiga turtki bo'ldi. Shuningdek, har uchala tarmoqning o'zining eski o'zanidan birmuncha uzoqda bo'lishi ularning eski o'zgachaliklari saqlanib qolishiga olib keldi. O'rnak uchun, Xorazm viloyatida o'zbek o'g'uzchasida so'zlashuvchi o'nlab tumanlar uchrasa-da, bu sheva turkman, ozarbayjon, Onado'li turklari va gagauz tilidan anchagina ajralib turadi va o'g'uz, qipchoq va qarluq (chig'atoy) shevalariga xos ko'plab ko'rstakichlarni o'zida qamrab

olgan. Shuningdek, Xorazm o'g'uzchasi qadimgi turkiy, ayniqsa, O'rxun va qoraxoniylar turklar tilida uchraydigan ko'plab so'zlarni saqlab qolgan. O'zbek tilining boshqa qolgan ikkala tarmog'i – qarluq va qipchoq o'zbekchalarida ham shunga o'xshash holatlar ko'zga tashlanadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, o'zbek tili turkiy tillar orasida fors va arab so'zlarini ancha ko'p o'zlashtirib, birmuncha o'ziga xos ko'rinish olgan bo'lsa-da, bu tilda qadimgi turkcha (O'rxun, Qoraxoniylar) so'zlarning tong qolarlik darajada ko'p saqlanib qolganligiga duch kelamiz. Buni "Devonu lug'at-t-turk" ("Devon")da tilga olingan so'zlarning o'zbek tilida ham ko'rinish (shaklan), ham anglam - ma'nosiga ko'ra o'zaro uyg'un kelishida kuzata olamiz. Bunga bir necha o'rnak berib o'tsak (Aytib o'tish kerak, "Devon"ning o'zbekcha o'girmalarida bir necha yangilash ochiqdamlar uchrab, ular to'g'risida ayrim o'rinlarda tushuntirish berib ketamiz):

"tilkü - tulki. Bu so'z bilan qiz boladan kinoya qilinadi. Biron xotin tuqqanida doydadan *tilkümü tug'di azu bõrimü* – tulki tug'dimi yoki bo'rimi deb so'raladi. Ya'ni qizmi yoki o'g'ilmi demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo'lganlari uchun tulkiga, o'g'il bolalar ulardagi botirlikka asosan bo'riga o'xshatiladi" [КошҒарий 1960, 1: 569; DLT 2005, 569]. O'zbeklarda bola tug'ilganidan so'ng yangi tuqqan xotinning qarindosh-urug'lari, yaqinlarining qiziqib so'raydigan eng ko'p so'roqlaridan biri bu "Bo'ri yoki tulki?", ya'ni "Bola o'g'il tug'ildimi yoki qiz?"dir.

"isiriq – isiriq; bolalarning boshlariga toshadigan yaralarni yoki ko'z tegisigidan bolalarni davolaganda aytiladigan so'z; [isiriqni] tutiladi va bolaning yuziga tutunini isriq - isriq ("e jin, es-hushingni yo'qot!) deb tutiladi" [КошҒарий 1960, 1: 125; DLT 2005, 282]. O'zbek jamiyatida **"isiriq"**ning o'ziga xos o'rni bo'lib, an'anaviy davolash (dezinfeksiya)da keng qo'llaniladi. "Devon"da o'g'uzlar bu so'zni **"yüzärlik"** deishiga urg'u beriladi [КошҒарий 1963, 2: 19; DLT 2005, 719]. Qozoqlar bu o'simlikni **"adraspan"** deyishadi.

"gõñüz – xaroba o'nqir-cho'nqirlarda tuya va qo'ylar qumalog'ining aralashib, yopishib ketgani" [КошҒарий 1963, 3: 375; DLT 2005, 323]. O'zbek qipchoq shevalarida **"go'ng** – uy hayvonlari va parrandalar axlati; "shu hayvonlarning axlatidan tayyorlangan o'g'it" anglamidadir [ЎТИЛ 2006, 531].

"küzän – chumchuq ovlashda foydalaniladigan bir turli kalama, qo'shoyoq hayvonni ham shunday ataladi [КошҒарий 2017, 162]. O'zbek tilida **"sassiq ko'zan"**, **"ola ko'zan"** degan hayvon otlari bo'lsa-da, "Devon"ning o'zbekcha o'girmalarida bu to'g'rida aytib

o'tilmagan [*qarang*. Кошғарий 1960, 1: 384; Кошғарий 2017, 162].

“**sevük**: *sevük neñ* – sevikli narsa” [Кошғарий 1960, 1: 370]. O'zbek adabiy tilida “**sevukli** – suyukli, ardoqli” demakdir.

“**suma** – ivitilgan bug'doy nomi. Uni quritib tuyiladi. So'ng undan uhra osh va non qilinadi” [Кошғарий 1963, 3: 253]. O'zbekchada “**sumalak** – niholdagi bug'doy ko'kartirilib, qirg'ichdan o'tkaziladi va qaynatilib, suyuq shirinlik tayyorlanuvchi emak”dir. Sumalak ko'pincha an'anaviy o'laroq Navro'z bayrami chog'ida pishiriladi.

“**surqıç / surqaç** – luk deyilgan daraxtning siqib olingan shirasi. U bilan qilich, xanjar va katta pichoqlarning dastalari birlashtiriladi” [Кошғарий 1960, 1: 423; DLT 2005, 510]. O'zbeklarning xorazm qipchoq lahjasida “**so'rgıch** – so'rgıch, elim” ma'nosini bildiradi [Абдуллаев 1961, 83].

“**qiz qush** – odam ustiga qo'nadiganday past uchadigan qush” [Кошғарий 1960, 1: 315; DLT 2005, 432]. O'zbek tilida “**qizqush** – baliqchilar turkumiga mansub, jig'ali botqoq qushi, qizg'ish” [ЎТИЛ 2008, 281]. Bu so'z turkiy tillar orasida ozarbayjon turkchasida “**qızquş**”, Onado'li turkchasida esa “**ki:zkuşu**” ko'rinishida uchraydi [ЭСТЯ 2000, 6: 194].

“**qaq** – 1. danak, mag'iz ; 2. *qaq et*. Qoq go'sht va har bir qotgan narsa. 3. Yomg'ir va sel suvidan paydo bo'lgan ko'l”; 4. O'rtasidan ikkiga bo'lingan har qanday narsa” [Кошғарий 1963, 2: 326-327; DLT 2005, 400]. “Devon”dagi kabi bu so'z o'zbek adabiy tilida va shevalarida “**qoq**”, “**qaq**”, “**qaqi**” ko'rinishlari saqlanib qolgan [ЎТИЛ 2008, 353-354; Нафасов 2011, 431]. Shuningdek, o'zbek qipchoq shevalarida “**qaq** – yomg'ir va seldan keyin to'planib qolgan kichik ko'lماك suv” anglamida ishlatiladi. Bundan tashqari, o'zbek tilida bu so'z “markaz, o'rta joy” ma'nosida ham qo'llanilib, “Devon”dagi “O'rtasidan ikkiga bo'lingan har qanday narsa” ma'nosiga yaqin keladi. Biroq uning bu anglamdagisi S. Mutalibov o'girmasida o'rin olmagan [*qarang*. Кошғарий 1963, 2: 326-327].

“**yıđladı**: *ol yıpar yıđladı*: - u mushk hidladi. Boshqasi ham shunday. *Yıđlar, yıđlamoq*” [Кошғарий 1963, 3: 321; DLT 2005, 689]. Bu so'z o'zbek tilida “**hidlamoq**” ko'rinishida uchraydi. O'zbek tilidagi “**hid**” so'zining ildizi qadimgi turkcha “yid” borib taqalib, bunday o'zgarish bir necha turkiy tillarda, ayniqsa, ayniqsa xalach, o'zbek, uyg'ur, ojarbayjon turkchalarida uchraydigan fonetik o'zgarishlar bilan ochiqlanadai. Ya'ni ushbu tillarda ko'pincha unli tovushlar oldiga “h” tovushinining qo'shilishi yuz beradi. Ayrim turkiy urug'lar tilidagi bunday o'zgarishlarni Mahmud Koshg'ariy ham eslatib o'tgan [DLT 2005, 28]. “Devon”dagi “**yıđ**” so'zi qirg'iz tilida “**jıđ**” ko'rinishi-

da ishlatilishi esa qipchoq turkchasida ko'pincha so'zboshi "y > j" tovushlari almashinuvi bilan bog'liqdir.

"**yelim** – tuk va shunga o'xshash narsalarni yopishtirishga ishlatiladigan elim" [КошҒарий 2017, 329]. Bu so'z o'g'uz turklarida (Onado'li turklari va b.) uchramasa-da, qipchoqlarda "**jelim**" ko'rinishida birmuncha keng tarqalgan.

1. O'zbek tilining qarluqcha tarmog'i va "Devon"dagi o'xshash so'zlardan o'rnaklar.

Hozirgi O'zbekiston va unga tutash hududlarda keng tarqalgan "Xoqoniya turkchasi" yoki boshqacha aytganda "Qoraxoniya turkchasi" Qoraxoniylar xonligi (960-1212) davriga to'g'ri keladi. Usha chog'larda bu lahja Farg'ona va Toshkent viloyatlari bo'ylab yoyilib, keyinchalik Ustrushana (Jizzax - Zomin), Karmana, Nur-ota, Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi), Chag'aniyon (Denov), Termiz, Balx, Qunduz viloyatlarigacha borib etgan. Bugungi kunda qarluq lahjasining izdoshlari bo'lgan shevalarga xos ayrim so'zlarni keltirib o'tamiz:

"**aliş** – suvning hovuzga quyiladigan o'rni" [КошҒарий 1960, 1: 93; DLT 2005, 139]. Farg'ona viloyati qarluq shevalarida "**alış** / **alış** – to'g'on, suv to'g'oni" ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 29, 37].

"**añduz** – rosan; erdan qazib olinadigan o'simlik ildizi. Otlarning qorin og'rig'i kasaliga davo qilinadi: *añduz bolsa ot ölmäs* – "rosan o'ti yoningda bolsa, ot yo'lda qorin og'rig'idan o'lmaydi". Chunki og'rigigan taqdirda, u bilan davolanadi. Bu maqol safarga chiquvchilarni puxta hozirlanishga undab aytiladi" [КошҒарий 1960, 1: 138; DLT 2005, 145].

"**egir** – igir / iyir; qorin og'rig'ini davolash uchun qo'llanadigan o'simlik; *egir bolsa er ölmäs* – igir bo'lsa odam o'lmaydi [kishi yonida bu dori bo'lsa, o'lmaydi]. Chunki qorin og'rig'iga duchor bo'lgan odam uni esa, tuzaladi. Bu maqol har ishga oldin hozirlanish kerak, degan ma'noda qo'llanadi" [КошҒарий 1960, 1: 87; DLT 2005, 250]. Qizig'i shundaki, **andiz** va **egir** o'simliklari bilan bog'liq otaso'zi – maqollar o'zbek shevalarida ham "Devon"dagidek ko'rinishda saqlanib qolgan.

"**bögän** – po'kon, ko'r ichak" [КошҒарий 1960, 1: 380; DLT 2005, 200]. O'zbek tilida "**po'kon** – yo'g'on ichak" ma'nosini bildiradi [ЎТИЛ 2008, 328].

"**bögrül** / **bökrül**: *bögrül at*. Iki biqini oq ot. Shuningdek, ola qo'y va boshqa hayvonlarga ham bögrül deyiladi" [КошҒарий 1960, 1: 445; DLT 2005, 200]; "**Boğral** – tomog'i oq qo'y" [КошҒарий

1960, 1: 445; DLT 2005, 193]. Jizzax viloyatin Zomin tumani o'zbek shevalarida **"burul** – olachipor bo'yinli yilqi" ma'nosida uchraydi [Тўйчибоев, Қашқирли 2012, 219].

"buluq – burchak" [Кошғарий 1963, 3: 381; DLT 2005, 206]. O'zbek qarluq lahjasining Janubiy Qirg'izistondagi O'sh tarmog'ida **"buluq-burçäk** – burchak" ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 57].

"çumali – chumoli (chigilcha)" [Кошғарий 1960, 1: 419; DLT 2005, 245]. O'zbek o'g'uzchasidan tashqari o'zbek adabiy tili va boshqa shevalarida **"chumoli / ch]mäli** – chumoli" ma'nosini bildiradi.

"çigit – paxta urug'i, chigit (arg'u shevasi)" [Кошғарий 1960, 1: 337; DLT 2005, 236]. Ko'pchilik turkiy tillarda uchramaydigan bu so'z o'zbek tilida keng qo'llaniladi.

"içük – sobol, olmaxon va boshqa hayvonlarning terisidan qilingan po'stin" [Кошғарий 1960, 1: 99; DLT 2005, 285]. O'zbek qarluq shevasining Buxoro va Sayram shevalarida uchrab, **"ichik** – nimcha" ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 121].

"keçä / kejä – qovun, bodring va shunga o'xshashlarni tashishda foydalaniladigan zambil, qop, kajava" [Кошғарий 1963, 3: 239; DLT 2005, 297]. O'zbek tilida shuunga yaqin anglamdagi **"kajava"** so'zi bor, biroq u fors tilidan o'zlashtirilgan so'z o'laroq ochiq lanadi [ЎТИЛ 2006, 292].

"kezlük – xotinlarning kiyimlariga taqib o'zlari bilan olib yuradigan kichkina pichoqcha" [Кошғарий 1960, 1: 443; DLT 2005, 313]. Farg'ona viloyatida **"gezlik** – bolalar uchun yasalgan pichoq" degan ma'noni anglatadi [Иброҳимов 1963, 245].

"küjäk / gejäk – gajak, kokil (arg'ular lug'ati)" [Кошғарий 1960, 1: 372; DLT 2005, 332]. O'zbek tilidagi **"gajak** – zulf" so'zi fors tilidan o'zlashtirilgan deb qaraladi [ЎТИЛ 2006, 474]. Qizig'i shundaki, "Devon"da arg'u shevasiga tegishli deb eslatib o'tilgan so'zlarning ko'pchiligi turkiy tillar orasida ko'proq o'zbek tilida saqlanib qolgan. Mahmud Koshg'ariy Tiraz va Balosag'un shaharlari oralig'ida deb ko'rsatgan Arg'u o'lkasi bugungi O'zbekistondan ancha uzoqda ekanligi va geografik o'niga ko'ra Taraz (Janubiy Qozog'iston) va To'qmoq shaharlariga to'g'ri kelishi o'zbek tili tarixi yuzasidan kela-jakda sinchiklab o'rganilishi kerak bo'lgan masaladir.

"küpig / köbik – chopon qavish", *"ol ton kübidi: u kiyim tikdi (matodan ikki qatlam qilib, orasiga paxta qo'yib (tikdi))"* [Кошғарий 1960, 1: 387; DLT 2005, 335]. O'zbek qarluq shevalarida va Xorazm o'g'uzchasida **"güppi** – qisqa paxtalik chopon" ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 71].

"olturdi - *ol er olturdi: u odam o'tirdi*" [Кошғарий 1960, 1:

228; DLT 2005, 356]. Qashqadaryo viloyati qarluq shevasining Kasbi tarmog'ida va Shimoliy Afg'oniston qarluq shevasida "**o'lturmak**" fe'li ham shu ma'noda qo'llaniladi.

"**öl**: *ö1 neng* - ho'l narsa. *ö1 ton* - ho'l, nam to'n. O'g'uzlar bu so'zni bilmaydilar" [Кошғарий 1960, 1: 83; DLT 2005, 373]. O'zbek adabiy tilida va uning barcha shevalarida "**höl** - nam, ho'l narsa" ma'nosini bildiradi. Ko'pgina turkiy tillarda, ayniqsa, o'g'uz turkiylarida bu so'z o'rniga "islaq" deb qo'llanilsa, qipchoq tillarida bu so'z o'rnida "**dīm**", "**dīmqil**" so'zlari ishlatiladi.

"**öş** - har qanday daraxt, shox, butoqning o'rtasi, o'zagi" [Кошғарий 1960, 1: 72; DLT 2005, 380]. Buxoro viloyatida bu "**uş** - daraxt o'zagi" degan ma'noni anglatadi [ЎХШЛ 1971: 269].

"**qarizan** - ko'p yashab, kuchdan qolgan, muk kaygan kishi" [Кошғарий 1960, 1: 419; DLT 2005, 406]. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Ayronchi Ammog'on qishloqlari qarluq shevalarida "**bevāzān / bevāzān kāmpir** - yakka o'zi so'qqabosh bo'lib qolgan kampir" degan ma'noni anglatadi [Жўраев 1969, 126].

"**qodi** - har qanday narsaning pastki qismi" [Кошғарий 1963, 3: 53; DLT 2005, 434]. Ko'plab turkiy tillarda uchramaydigan bu so'zning biroz o'zgargan ko'rinishi o'zbek adabiy tilida va boshqa qarluq shevalarida "**quyi** - past tomon, biror narsadan pastda bo'lgan joy" ma'nosida keng qo'llaniladi [ЎТИЛ 2008, 365]. Biroq o'zbek o'g'uzlarida bu so'z o'rnida "**aşaq**" so'zlari ishlatiladi [ЎХШЛ 1971, 22]. Boshqa qipchoq tillarida bo'lgani kabi o'zbek qipchoqchasida ham ko'pincha "**tubān**", "**tubāndāgi**" yoki fors tilidan o'zlashgan "pāst", "pāstki" so'zlari qo'llanilishi ko'zga tashlaanadi.

"**satig** - oldi-sotdi, savdo" [Кошғарий 1960, 1: 355; DLT 2005, 475]. O'zbek adabiy tilida "**sotuv**", "**savdo-sotiq**" ko'rinishida qo'llaniladigan bu so'z ayrim o'zbek shevalarida (Qo'qon) "**sotiq**" shaklida uchraydi.

"**sariğ** - sariq, hamma narsaning sariqligi" [Кошғарий 1963, 3: 355; DLT 2005, 471]. Ma'lumki, o'zbek adabiy tilida **sariq**, qipchoq va o'g'uz shevalarida **sari** deb ishlatiladigan bu so'z Buxoro qarluq tarmoqlarida **sariğ** ko'rinishida eski turkchaga yaqin qo'llaniladi.

"**suğur** - varal (echkiemarning bir turi)ga o'xshash hayvondir. Uning terisidan yomg'ir yopinchig'i qilinadi" [Кошғарий 1960, 1: 344; DLT 2005, 508]. Qozoq va boshqa qipchoq shevalarida "**suvir**" va "**suir**" o'laroq qo'llanadigan bu so'z o'zbek tilida "**suğur**" deb ishlatilib, bu tomondan u Qoraxoniylar turkchasiga yaqin keladi.

"**sürüg** - har qanday hayvon to'dasi" [Кошғарий 1960, 1: 370; DLT 2005, 516]. O'zbek adabiy tilida "**suruv** - Poda; "mol pada-

si” ma’nosida qo’llanilsa-da, Qashqadaryo qarluq tarmog’ida “**sürüg** – guruh, to’da”, Xorazm janubiy o’g’uz shevasida “**sürük / süri**” ko’rinishida uchraydi [ЎХШЛ 1971, 244].

“**qag’un** – qovun” [Кошғарий 1960, 1: 388; DLT 2005, 391]. Janubiy Qozog’istondagi Turkiston – Chimkent shaharlari oralig’ining qarluq – o’g’uz aralash lqon qishlog’i o’zbek shevasida “**qag’un**” “qovun” ko’rinishidadir [ЎХШЛ 1971, 158]. O’zbek qarluqchasining Andijon shevasida “**qag’un**” deb aytiladi.

“**temän: temän yignä:** katta nina” [Кошғарий 1960, 1: 381]. Bugungi kunda bu so’z qirg’izcha va turkmancha “**temen**”, qozoqchada “**teben**” ko’rinishida saqlanib qolgan [Eratala 2019, 1774]. Bu so’z o’zbek tilining ko’proq qipchoq va qisman qarluq shevalarida “**tebänä**” (“**tövänä**”, “**tögänä**”, “**tebän-iyinä**”), o’zbek o’g’uzchasida esa “**tämän**” kabi ko’rinishlarga ega [ЎХШЛ 1971, 255; Абдуллаев 1961, 86].

“**tikü** – bo’lak; *bir tikü:* bir bo’lak go’sht” [Кошғарий 1963, 3: 248; DLT 2005, 568]. Qashqadaryo Qarshi shevasidagi “**tikä** – nonning kichik bo’lagi” degan ma’noni anglatadi [Нафасов 2011, 283].

“**yandaq tikän** – yantoq tikan” [Кошғарий 1963, 3: 51; DLT 2005, 657]; yon tortadi. Fors mannasi (terencubin). O’zbek adabiy tili va shevalarida “**Yantaq, yantaq-tikan**” so’zlari shu ma’noda ko’rinsa-da, ayrim qishloqlarda “**yantaq shäkäri**” so’zi uchrab, “Devon”dagi “**yandaq chekäri**” ga uyg’un keladi. O’zbek Xorazm o’g’uzchasida esa bu so’z “Devon”dagi kabi o’zining “**yandaq**” ko’rinishini saqlab qolgan [Абдуллаев 1961, 51].

“**tolarsaq** – oyoq topig’i¹; Bu so’z ko’pincha hayvonlar to’pig’i ma’nosida ishlatiladi” [Кошғарий 1960, 1: 460; DLT 2005, 575]. O’zbek qarluq lahjasining Toshkent shevasida “**to’larsag’** – katta ustixon, suyak” ma’nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 259].

“**tuğaqliq** – idishlar og’zini yopadigan narsa tayyorlash uchun mo’ljallangan yog’och” [Кошғарий 1960, 1: 461; DLT 2005, 588]. O’zbek qarluqchasining Namangan tarmog’ida “**tuväq** – qorpoq (tandir og’zini berkitib qo’yadigan loy qorpoq)”, Toshkent tarmog’ida esa “**tuvăğ** – qozonning qorpoq’i” degan ma’noni anglatadi [ЎХШЛ 1971, 262].

“**yapğut** – yung va, shuningdek, qil bilan to’ldirilgan to’shak va shunga o’xshash narsalar” [Кошғарий 1963, 3: 45; DLT 2005, 661]; “**chabğut** – to’shak” [Кошғарий 1960, 1: 421; DLT 2005, 221]. O’zbek adabiy tilida uchramaydi, ko’p shevalarda “**chag’but** (chag’ut, chavut) – uvada (paxta uvada) ma’nolarida saqlanib qolgan [ЎХШЛ

¹ S. Mutallibov o’g’irmasida “oyoq izi” deb berilgan [Кошғарий 1960, 1: 460].

1971, 292].

“**yıldız** - ildiz. U majoziy ma'noda insonning nasl-nasabini bildirish ma'nosida ham qo'llanadi” [Кошғарий 1963, 3: 47; DLT 2005, 691]. Bu so'z o'g'uzcha negizli turkiy tillarda ko'proq “**kök**”, qipchoqcha negizli turkiy tillarda esa “**tamir**” (tomir) o'laroq qo'llaniladi. Biroq o'zbek tilida “**ildiz**” va “**tomir**” birday ma'noda birmuncha keng ishlatilsa-da, bularga yaqinroq boshqa bir o'xshashini “**ko'k**” (o'rnak uchun **ko'klamoq** “ildiz otmoq”) so'zida uchratamiz.

“**yitig** – o'tkir, qayralgan; *yitig biçäk* – o'tkir pichoq” [Кошғарий 1963, 3: 25; DLT 2005, 697]. Bu so'z shuningdek, qilich yoki shunga o'xshash o'tkir narsalar uchun ham qo'llaniladi. Buxoro o'g'uzlarining Qorako'l shevasida “**ittik** – o'tkir”, Qashqadaryo viloyatining Shahrishabz tumanidagi Ammog'on qishlog'ining qarluq shevasida “**ittik** - o'tkir (tig' va qalampir haqida)”, Qirg'izistondagi O'sh o'zbek qarluqchasida bu so'z “o'tkir, keskir” ma'nosida ishlatiladi [ЎХШЛ, 1971: 121; Жўраев 1969, 134]. Qashqadaryo viloyati qipchoq lahjasida “**itik** – o'tkir tig'li, keskir (pichoq)” ko'rinishida saqlanib qolgan [Нафасов 2011, 126]. Xorazm o'g'uz shevasida “**yitti** – g'oyat, juda” ma'nosida uchraydi [ЎХШЛ 1971, 133].

“**ügrä** – ugra oshi. Bu tutmochdan mayinroq, lazzatliroq” [Кошғарий 1960, 1: 147; DLT 2005, 633]. O'zbek tilida, ko'pincha, Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatlaridagi qarluq shevalarida “**ügrä** – 1. yupqa yoyilib, uzun va mayda kesilgan xamir”; 2. “Shunday xamirdan tayyorlangan suyuq osh” ma'nosida qo'llaniladi [ЎТИЛ 2006: 263]. Shunga o'xshash yemak turi no'g'aylarda “üvre” yoki “üyre” ko'rinishida uchraydi [Керейтов 2009: 228].

“**üt** - Devorda yoki taxtada bo'lgan teshik” [Кошғарий 1960, 1: 79; DLT 2005, 642]. Sayram (Janubiy Qozog'iston) o'zbek qarluqchasida “**hüt** –suv o'tishi uchun devor tagidagi teshik” ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971: 291.].

“**yoñadi** – *ol anı beğkä yoñadi*: U uni bekka chaqdi. *yoñar, yoñamaq*” [Кошғарий 1963, 3: 386, 405; DLT 2005, 701]. Qashqadaryo viloyatining Shahrishabz tumani Ayronchi qishlog'ida “**yānuğ-la**- orqasidan yomonlab yurmoq; chaqmoq” ma'nolarida qo'llaniladi [Жўраев 1969, 135]. O'rxun bitiklaridagi “**yoñaşur** – tuhmat qilmoq” fe'li uchrab [User 2009, 394], bizningcha uni yuqoridagi so'zlar bilan bir negizdan deb qarasa bo'ladi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, turkiy tillarda oz uchraydigan yoki yo'qolib ketgan eski turkcha so'zlarning Ammag'on qishlog'i turg'unlari so'zlashuvida birmuncha ko'p saqlanib qolganligi diqqatni o'ziga tortadi. Ulardan ayrim o'rnaklar keltirib o'tsak:

“**qoğ** – Ko‘zga yoki taomga tushgan xas, cho‘p” [Кошғарий 1963, 3: 142; DLT 2005, 434]. Ammag‘on shevasida “**quğ** – quruq (daraxt)” ma‘nosini bildiradi [Жўраев 1969, 141]. Bu so‘z qarluq lahjasining Sayram tarmog‘ida “**quv** – quruq (yog‘och, daraxt)” ko‘rinishida uchraydi [ЎХШЛ 1971, 165].

“**qopmaq** – turdi, qo‘zg‘oldi. *Er yoqaru qopdi*: Erkak turdi” [Кошғарий, 1963, 2: 10]. Ammag‘on qishlog‘ida “**qopmaq** – turmoq” ma‘nosini bildiradi [Жўраев 1969, 142]. O‘zbek adabiy tili va boshqa shevalarida bu fe‘l birmuncha arxaik xususiyatga ega bo‘lib, “qiyomat qopdi” kabi so‘z birikmalarida ko‘rinadi.

“**torpi** – bir yoshli buzoq” [Кошғарий 1960, 1: 393; DLT 2005, 581]. Ammag‘on turg‘unlari so‘zlashuvida “**to‘rpi** – tana (ikki yosharli buzoq)” ko‘rinishida saqlangan [Жўраев 1969, 152].

2. O‘zbek tilining qipchoq shevasi

Ko‘p tarmoqli qipchoq urug‘larining Amudaryo – Sirdaryo oralig‘ida, ayniqsa, bugungi O‘zbekiston erlarida ko‘rila boshlashining boshlang‘ichi O‘rta Osiyoni Qoraxoniylar (960-1212) va Xorazmshoh-Anushteginiylar (1097-1231) boshqargan chog‘larga to‘g‘ri kelsa-da, keyinchalik Chig‘atoy ulusi (1224-1340) va Temuriylar (1370-1507) chog‘ida ularning salmog‘i birmuncha oshgani kuzatiladi. Biroq qipchoq urug‘larining Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga tutash o‘lkalarda keng yoyilishi Shayboniylar (1506-1601) bilan bog‘liqdir.

XVI yuzyillikning birinchi yarmida Dashti Qipchoq ko‘chmanchi o‘zbeklari – ko‘pchiligi qipchoq urug‘lari bo‘lgan turkiylar Amudaryo – Sirdaryo oralig‘iga, Afg‘oniston va Xurosonning kungay – shimol tomonlariga kelib o‘rnashib, bu yerlardagi turkiylarning salmog‘ini yanada oshiradilar. Bu erlardagi Shayboniylargacha bo‘lgan qipchoq lahjasining izlari yaxshi ma‘lum emas, biroq Xorazm viloyatining Gurlan, Yangibozor tumanlarida va Qoraqalpog‘istonning Mang‘it, Qo‘ng‘irot, Beruniy, Ellikqal‘a kabi tumanlarida birmuncha esk‘i “y-li” qipchoqcha saqlanib qolgan. Shuningdek, ular orasida o‘rta asr qipchoqchasi - “j-li qipchoqcha” ham uchraydi. Turkiy el-uluslar orasida “y-li qipchoqcha” so‘zlovchilar qozon va qrim tatarlari, qumiqlar, boshqirdlar, no‘g‘aylar bo‘lsa, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, qorachoy-bolqorlar “j-li qipchoqcha” da so‘zlashadilar. Qipchoqachaning bu ikkala turi o‘zbek tilining qipchoqcha tarmog‘ida ham uchrab, Xorazmdagi o‘zbek qipchoq tilining ko‘p tomonlari bu lahjaning eski qipchoq tiliga yaqinligi ko‘zga tashlanadadi. Ya‘ni, bu shevada so‘zlashuvchilarning ko‘pchiligi “y-li qipchoqcha”dir. Shuningdek,

bugungi Xorazm qipchoqchasida eski qipchoqcha so'zlar birmuncha ko'proq ekanligi kuzatiladi. Shunga qaramay Xorazm qipchoqchasini sinchiklab o'rganmay turib, bu borada aniq to'xtamga kelish qiyin.

O'zbek qipchoqchasida so'zlovchilarining ko'pchiligi Toshkent, Jizzax, Nurota, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida, Turkmanistonning janubi-g'arbiy tumanlarida, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'onistonning ko'plab qishloqlarida yashab, ayrim istisnolarni aytmaganda, bu shevada so'zlashuvchilar tili yaxshi o'rganilmagan. Yirik shaharlarda bu lahja deyarli quloqqa chalinmaydi. Yuqorida tilga olingan hududlardagi o'zbeklar "j-li qipchoqcha"da so'zlashadilar. Mahmud Koshg'ariy *"y- harfi bilan boshlangan ot va fe'llarning bosh harflarini o'g'uzlar ham qipchoqlar a- (alif)ga yoki j- (jim)ga aylantiradilar"* deb yozgan [Кошғарий 1960, 1: 66-67]. Boshqa qipchoq tillarida bo'lgani kabi o'zbek qipchoqchasida ham "Devonu lug'ati-t-turk"da uchraydigan so'zlar birday bo'lsa-da, yuqorida aytib o'tilgan bugungi qipchoq tillarining ko'pchiligida uchramaydigan so'zlarga ham duch kelamiz. O'zbek qipchoqchasidagi so'zlarning "Devon"da qay ko'rinishda tilga olinganiga o'rnaklar berib o'tamiz:

"atiz – ikki dara orasidagi chegara / ikki ariq orasidagi ekin" [Кошғарий 1960, 1: 88; Кошғарий, 1967, 27; DLT 2005, 158]. Xorazm qipchoq shevalarida **atiz** "dala; "ekin maydoni" degan ma'noni anglatadi [Абдуллаев 1961, 20; ЎХШЛ, 1971, 21].

"icägü – qovurg'a suyaklarining ich tarafida bo'lgan qismlar nomi" [Кошғарий 1960, 1: 155; DLT 2005, 284]. O'zbek adabiy tillari va shevalarida **"ichak"**, qozoq, qoraqalpoq va no'g'aychada **"ishek"** so'zlari uchrab, o'g'uzcha negizli turkiy tillarda bu so'z deyarli ko'zga tashlanmay, uning o'rnida "bag'irsaq" so'zi qo'llaniladi.

"kögän – buzoq va qo'zichoqlarning arqonlari hamda sog'iladigan otlarning sog'ishda bog'lanadigan arqonlari" [Кошғарий 1960, 1: 393; DLT 2005, 318]. O'zbek qipchoq shevalarida **"kögän** – bir necha qo'y yoki echkini qatorasiga bog'lash uchun kalta-kalta chilvirlar birlashtirilib, ikki tomonga qoziqqa bog'langan uzun arqon" degan ma'nodadir [Жўраев 1969, 138].

"küzük – to'quv dastgohidagi ustki burmalarini pastki iplardan ajratib turuvchi tugunli iplar" [DLT 2005, 338]. Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani Harduri qipchoq lahjasida **"küziv** – gilam to'qish moslamasidagi ustki bo'g'inlarni quyi bo'g'inlardan ajratib turuvchi tugunli iplar" degan ma'noni anglatadi. Chiroqchi tumani ayrim qishloqlarida **"küzüv** – o'rmakka bog'lanadigan ip" demakdir [Нафасов 2011, 150].

“**man**: *man yashliq qoy*: To‘rt yashar qo‘y. Bu so‘z qo‘ydan boshqaga qo‘llanmaydi” [КошҒарий 1963, 3: 172; DLT 2005, 340]. Xorazm viloyatidagi o‘zbek qipchoqchasida “**mañ** – uch yoshar qo‘y (qo‘chqor)” [ЎХШЛ 1971, 176]; Qashqadaryo viloyatida “**mañi** – yoshi besh yoshdan oshgan, panjidan keyingi yoshdagi (qo‘y)” degan ma‘noni anglatadi [Нафасов 2011, 175].

“**sandirış** – tortishuv, anglashmovchilik” [КошҒарий 1960, 1: 382; DLT 2005, 467]. Qashqadaryo viloyati Harduri qishlog‘ida “**sandramoq** – tortishib, aljirab so‘zlamoq” ma‘nosini bildiradi.

“**tüpi** – qor bo‘roni” [КошҒарий 1963, 3: 235; DLT 2005, 605]. Harduri qishlog‘i qipchoqchasida “**to‘palan** – chang-to‘zonli kuchli shamol” ma‘nosida ham qo‘llaniladi. O‘zbek adabiy tili va shevalarida bu so‘z “janjal” degan ma‘nodadir. Onado‘li turkchasida “**tipi** - bo‘ron” degan ma‘noni anglatadi.

“**yigi** – *yigi yigac*: yog‘ochlari bir-biriga o‘ralishib ketgan o‘zaro bog‘langan ko‘p (zich shoxli daraxt) [КошҒарий 1963, 3: 31; DLT 2005, 695]. “**jig** - hayvon suyaklarining bir-biriga tutashgan joyi”; qarindosh, qardosh” [Нафасов 2011, 102] so‘zining negizi eski turkcha “yigi”ga borib taqalsa kerak. Qozoqchada bu so‘z “**jiy**” (ko‘p, zich) ko‘rinishida uchraydi.

3. O‘zbek tilining o‘g‘uz shevasi

“Devonu lug‘ati-t-turk”da o‘g‘uz shaharlari deb ko‘rsatilgan va bugungi Qozog‘istonning janubiy qismidagi Turkiston va Taroz (Jambul) shahrlari orasida o‘rnashgan ko‘plab qishloqlar turg‘unlarining sezilarli bir bo‘lagini o‘zbeklar tashkil etadi. Mahmud Koshg‘ariy “**Man-qishlag** – o‘g‘uzlar o‘lkasidagi er oti”, “**Qorachuq** - Farob shahriga berilgan er oti. Bu (yer) o‘g‘uz shaharlaridan biridir”, “**Qarnoq** – o‘g‘uz shahri”, “**Sabran** – o‘g‘uz shaharlaridan birining oti”, “**Sugnoq** – o‘g‘uz shahridir” diya o‘g‘uz turklarining bosh shaharlarini sanab o‘tgan [DLT 2005, 340, 402, 407, 460, 507]. Qizig‘i shundaki, ushbu shahar yoki qishloqlarda bugungi kunda o‘zbeklar yashab, ularning ota-bobolari ancha eski chog‘lardan beri bu erlarda yashab kelishgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek o‘zbek adabiy tili turkiy tillarning qarluq lahjasiga kiradi. Uyg‘urcha bilan bir tarmoqqa kiruvchi o‘zbek tili bo‘yicha shunday tushuncha keng yoyilgan bo‘lsa-da, “o‘zbek qipchoqchasi” va “qipchoq o‘zbeklari” atamalaridan tashqari “o‘zbek o‘g‘uzchasi”, “o‘g‘uz o‘zbeklari” kabi atamalar ham tez-tez uchrab turadi. Boshqa tomondan, o‘zbek o‘g‘uzchasida so‘zlashuvchilar ko‘proq Xorazm viloyatida, Buxoroning ayrim tumanlarida va

Janubiy Qozog'istonning bir necha shahar va qishloqlarida u yoki bu darajada saqlanib qolgan. Xo'sh, o'zbek tilidagi bunday lingvistik holatning negizida qanday omillar yotadi?

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy o'lkalarida yashab, keyinchalik kunbotarga ko'chib o'tgan va Sirdaryoning o'rta qirg'og'ida yangi shakllanish bosqichini yashagan Sirdaryo o'g'uzlari bir necha etnik birliklarni o'zlariga qo'shib oladilar. O'zbeklarning tub negizini tashkil etuvchi G'arbiy Turkiston, ayniqsa Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va ularga qo'shni o'lkalarda yashab kelgan turkiy tilli aholi orasida ham o'g'uzlar ayri-ayri o'rin tuta boshlaydi. Buni bugungi kunda o'g'uzlar bilan bog'liq etnologik bilgilar, yozma manbalar, o'g'uzcha so'zlashuvchi o'zbeklar, shuningdek, O'zbekistondagi o'g'uzcha etnotoponimlari (yer nomlari) va etnonimlar (elat nomlari) ko'rsatib turibdi. Shu bilan birga, o'tmishda o'g'uz negizida kelib chiqqan toponim va kishi ismlari etarlicha uchrab turadi [Абдуллаев 1961, 235-260]. Ayniqsa, salmog'i ancha bo'lgan Xorazm va unga tutash viloyatlarning turg'unlari orasida o'zbek tilining o'g'uzcha tarmog'i keng qo'llaniladi.

Shu o'rinda O'zbekistonda yashovchi o'g'uzcha so'zlashadigan boshqa turkiy xalqlar - turkmanlar, ahiska turklari va ozarbayjonlar o'zbek o'g'uzlaridan ayri etnik guruhlar ekanini aytib o'tish kerak. Bular sirasiga ko'pchiligi Samarqand shahrida yashovchi, o'zbeklarning b'ir tarmog'i bo'lmish "eroniyalar"ni (ular aslida "Xuroson turklari") tiliga to'xtalmadik. Shuningdek, "Turkman", "Chandir" deb ataluvchi Samarqand shahri tegrasidagi o'zbek va turkmanlarning [Маликов 2018, 75-76] tili bo'yicha izlanishlarni keyinga qoldirdik.

Xorazm vohasidagi o'g'uzlar

Xorazm viloyati o'zbek turklarining etnik shakllanishida muhim rol o'ynagan bo'lib, ko'rinib turibdiki, o'g'uzlar, keyinchalik qipchoqlar Xorazm orqali Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarga, ya'ni hozirgi O'zbekiston erlariga doimiy ravishda ko'chib kelishgan. G'arbiy Turkiston, Mavarindon kabi. Islomgacha bo'lgan davrda Xorazm vohasi va unga yaqin cho'l va dashtlar o'g'uzlar yashaydigan hududlar deb atalgan. Xususan, eramizning 9-10-yillari. Orol ko'lining sharqiy, janubiy va g'arbiy hududlaridagi o'g'uz xalqining salmoqli qismi yozma manbalarda ko'proq olomon jamiyat sifatida ko'riladi.

Rus turkologi N. A. Baskakov eramizning XI – XII yuzyilliklarida o'g'uzlarning ko'p asrlar kesimida uchta yirik tarmoqqa bo'linib ko'chib o'tganligini, ularning bir bo'lagi Orol dengizi qirg'oqlarida

yashab, bugungi turkman va Xorazm o'zbeklari hamda qoraqalpoqlarning etnik birikuvida ayricha o'rin egallaganiga urg'u beradi [Баскаков 1960, 115]. Shuningdek, 922-yilda Volga bo'yi bulg'orlari orasida bo'lgan Ibn Fadlan Xorazmdan o'tuvchi yo'llar bo'ylab o'tganda Ust-Yurt kengliklarida o'g'uzlar yashashigini tilga olgan [Бартольд 1963, 559].

Xorazmda so'nggi asrlargacha bir necha urug' nomlari qishloq nomlariga aylana borgan. Rus etnografi G. P. Snesev XIX yuz-yillik so'nggi o'nyilliklari – XX yuzyil boshlarida o'zbek urug'larining Xorazm vohasida tarqalish xaritasini tuzib, bu erlarda yashovchi qipchoq o'zbeklari bilan bir qatorda *Bayat, Afshor, Kirlavut, Chovdur* kabi o'g'uz urug'larini ham ko'rsatib o'tgan [Снесаров 1975, 79]. Yozma manbalardan anglashilicha, o'g'uzlar o'rta asrlarda bu o'lkada ko'proq bo'lgan va o'z urug' nomlarini birmuncha yaxshi saqlab qolgan. Gurganchdan (Ko'hna Urganch / Turkmaniston) shimoli-g'arbda joylashgan va kunbotarda Xazarlar yerigacha cho'zilgan keng tekisliklarni o'z ichiga olgan yerlar X yuzyillikda "Xorazm cho'li" yoki "O'g'uz dashti" deb atalgan [Агаджанов 1969, 50-53]. "O'g'uz dashti" atamasi Kaspiy dengizining shimoliy-sharqiy qirg'oqlarida o'rin olgan Qizilqum cho'li, Markaziy Unguzorti, Janubi-Sharqiy Qoraqum va Orol dengizi qirg'oqlarini o'z ichiga olgan erlarga qarata qo'llanilib, o'zbek o'g'uzchasi va turkmanchanning bosh negizini anglatgan.

Mana shu lahjaga saqlanib, "Devonu lug'ati-t-turk"da tilga olingan so'zlarga qisqacha o'rnaklar keltirib o'tamiz:

"**anjiz** – angiz; bug'doy va boshqa donlar o'rib olingach, erda [sochilib] qolganlari (to'kilgan va cho'p qismi)" [КошҒарий 1960, 1: 120; DLT 2005, 145]. Xorazm o'g'uzlarida "**anjiz** – ekin olingandan keyin bo'sh qolgan er. 2. Ekilmay qolgan yaroqli yer" demakdir [Абдуллаев 1961, 19].

"**aran** – otxona" [КошҒарий 1960, 1: 106; DLT 2005, 143]. Xorazm o'g'uzchasida "**aran** - molxona, otxona" degan ma'noni anglatadi [Абдуллаев 1961, 19].

"**arçi** – sumka, to'ruva" [КошҒарий 1960, 1: 145; DLT 2005, 148]. Xorazm o'zbek o'g'uzlarida "**arja** – kichik sandiq" tarzida saqlanib qolgan [Абдуллаев 1961: 19].

"**asiğ** – foyda" [КошҒарий 1960, 1: 95; DLT 2005, 154]. Xorazm o'g'uzlarida "**a:siy** – foyda" [Абдуллаев 1961, 21]. Bu so'z Farqona vodiysining ayrim qarluq shevalarida "**asiğ**" ko'rinishidadir. O'zbek adabiy tilida "asqatmoq" fe'li ham mavjud bo'lib, u "foydali bo'lmoq, foyda bermoq" ma'nolarini bildiradi.

"**däädä** – dada, ota (o'g'uzcha)" [КошҒарий 1963, 3: 139] ham

xuddi shu ma'noda o'zbek tilida "**dada**" va "**dāda**" (bobo) ko'rinishida Toshkent qarluq lahjasida keng qo'llaniladi [ЎХШЛ 1971, 339]. Qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz tillarida uchramaydigan bu so'z turkmanlar tomonidan ko'p qo'llanilmaydigan qarindoshlik atamasi o'laroq bilinadi [Karahana 2015, 55].

"**ičmāk** – qo'zi terisidan qilingan po'stin" [Кошғарий 1960, 1: 127; DLT 2005, 285]. Xorazm o'g'uzlarida "**ičmāk** – ichdan kiyiladigan issiq kiyim" [ЎХШЛ 1971, 118].

"**ig** – kasallik" [Кошғарий 1960, 1: 82; DLT 2005, 286]. O'zbek tilining Xorazm va Buxoro (Qorako'l) o'g'uz shevalarida "**i:g** – dard, og'riq, to'lg'oq, bog'imlardagi og'riq", Toshkent qarluq shevasida esa "**iqlanmoq** – kasallanmoq" ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 119].

"**geşür** – turp (o'g'uz)" [Кошғарий 1960, 1: 95; Кошғарий 1960, 1: 405; DLT 2005, I, 405; DLT 277]. Xorazm o'g'uz tilida "**gäs-hir** – sabzi" ma'nosini bildiradi [Абдуллаев 1961, 32].

"**qadiz** – daraxt po'stlog'i" [DLT 2005, 390]. Xorazm o'g'uzchasida "**qayiz** – daraxt po'stlog'i" ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 154].

"**seçä** – chumchuq (o'g'uzcha)" [Кошғарий 1963, 3: 238; DLT 2005, 480]. Xorazm o'g'uzchasida "**seçä** – chumchuq" degan ma'noni anglatadi [ЎХШЛ 1971, 81].

"**süçig** - har bir shirin narsa" [Кошғарий 1960, 1: 387; DLT 2005, 513]. Buxoro o'zbekcha o'g'uz tilida "**süyji / süji**", Xorazmda esa "**suji** – shirin, chuchuk" degan ma'noni anglatadi [ЎХШЛ 1971, 244]. O'zbek adabiy tilida "chuchuk" va shevalarida "**chüchchi** - achchiq emas, nordon emas; yoqimli (shirin)" degan ma'noda qo'llaniladi [ЎТИЛ 2006, 518].

"**süglin** – qirg'ovul. **süwlin** – talaffuzi ham bor". [Кошғарий 1960, 1: 415; DLT 2005, 513]. Xorazmda o'g'uz shevalarida "**sülgin, sulyin**", qipchoq o'zbek shevalarida "**süvmin**" deb yuritiladigan [Абдуллаев 1961, 82-83; ЎХШЛ 1971, 243] bu so'z o'zbek adabiy tilida va shevalarida "qirg'ovul" o'laroq qo'llanib, mo'g'ul tilidan o'zlashtirilgan deb qaraladi [Rybatzki 2013, 511-532].

"**susgaq** – suv va suv kabi narsalarni botirib oladigan asbob. Qarluq, qifchoq va butun ko'chmanchilar tilida shunday" [Кошғарий 1960, 1: 437; DLT 2005, 510]. Xorazm o'g'uz tilida "**susaq / su:saq** – cho'mich" ma'nosini bildiradi [ЎХШЛ 1971, 242].

"**tuqurqa / toqurqa** – may idishi yoki obdastaning jo'mragi" [Кошғарий, 1963, 1: 451]. Xorazm o'g'uzlarida "**to'qitqa** – quvur (bog' kabi joylarda suv quvuri)", Janubiy Qozog'istondagi Qoramurt qishlog'i o'zbekchasi (qarluq-o'g'uz aralash tarmog'i)da "**to'qitqa** –

o'choq og'zi" degan ma'noni anglatadi [ЎХШЛ 1971, 259].

“**yarpuz** – bir xil xushbo'y o't” [Кошғарий 1963, 3: 46; DLT 2005, 668] so'zi Jizzax viloyatining Forish tumanidagi qarluq-o'g'uz aralash shevasida “**yārpuz**” (yalpiz) ko'rinishida saqlangan [ЎХШЛ 1971, 130]. O'zbek adabiy tilida va shevalarida bu so'z “yalpiz” deb ishlatiladi.

Mahmud Koshg'ariy Qarnoq, Qorachuq, Sug'noq, Sabron kabi shahar va qishloqlar turg'unlarini o'g'uzlar deb yozganini yuqorida keltirib o'tgan edik. Bugungi kunda ulardan bir qismi saqlanib qolgan bo'lib, erli aholisi ko'proq o'zbekcha qarluq-o'g'uz lahjasida so'zlashadilar. Sirdaryoning o'rta qirg'oqlaridagi tarixiy o'lkalar o'laroq Choch (Toshkent) va Janubiy Qozog'istonning bir qismi (Sayram / Isfijob, Yasi / Turkiston) eski chog'larda yalpi madaniy o'rtam – muhitga ega bo'lib, bu erda turli turkiy elatlar – qarluq, qipchoq, o'g'uzlarning aralashuvi so'ngida o'zbek tilining o'zgacha bir tarmog'i kelib chiqqan.

Bugungi Qozog'istondagi Turkiston shahrining shimolida Qarnoq qishlog'ida yashovchilar qarluqlar ta'sirida bo'lsa-da, o'g'uzcha til ko'rsatkichlarini saqlab qolganlar. Turkiston shahriga yaqin bo'lgan o'zbek qishloqlaridan biri Qorajiq deb ataladi va uning turg'unlari o'g'uzlar ta'siriga tushgan qarluq-qipchoq lahjasida so'zlashadilar [Муҳаммаджонов 1983, 10, 12]. Ular “Devon”da o'g'uz deb tilga olinsa-da bugungi turkiy tillarda ko'p uchramaydigan so'zlarni bugungacha qo'llab keladilar. O'rnak uchun, Koshg'ariy tilga olgan “**yarliq** – yo'qsul, bechora” so'zi [Кошғарий 1963, 3: 49; DLT 2005, 667], Qarnoq, Iqon kabi aholisi eski chog'lardan beri o'troq, ekin-tikinchi o'zbeklar “**yarli** – bechora, baxtsiz” ko'rinishida ishlatiladi [ЎХШЛ 1971, 127].

“Devon”da uchraydigan o'g'uzcha so'zlarni o'g'uz bo'lmagan turkiy tillar bilan solishtirib o'rganar ekan, turkiyalik tilchi G. Gulsevin o'zbek tilidagi o'g'uzcha so'zlarga ham to'xtaladi. Ushbu izlanuvchining bu to'g'rida birmuncha chuqur bilgilar berib o'tganiga urg'u bersak-da, uning o'zbek tilidagi ayrim o'g'uzcha so'zlar bor yoki yo'qligi borasida birmuncha yanglishuvlarga yo'l qo'rganini aytib o'tishimiz kerak bo'ladi. O'rnak keltiradigan bo'lsak, u “Devon”da o'g'uzcha deb eslatilgan **anjla**- “tushunmoq” fe'lini o'zbek tilida uchramaydi, deb yozganiga ko'zimiz tushadi [Gülsevin 2010, 63]. Biroq bu so'zning O'rta Osiyo turkiy tillari orasida eng ko'p o'zbek tilida qo'llanishi anglashiladi. Shunga o'xshab, G. Gulsevin o'zbek tilida “**mengza**- “o'xshamoq”, “**kizla** – “yashirmoq” kabi fe'llari uchramasligiga urg'u bergan [Gülsevin 2010, 67, 69]. O'rta Osiyoda turkiy tillarida,

ayniqsa, qozoq va qirg'izchada deyarli uchramaydigan bu so'zlar o'zbek adabiy tili va lahjalarida bugungi kunda ham ishlatiladi. Bundan tashqari, u o'zbek tilida ko'ra olmagan ko'plab o'g'uzcha so'zlar o'zbek shevalarida keng qo'llanadi: **el**, **elig** "el, qo'l", **yoğurt** (o'zbek shevalarida "**joğrat / jurg'at**") va boshqalar [Абдуллаев 1969, 23; ЎХШЛ 1971, 107].

To'xtam

Mahmud Koshg'ariyning bundan deyarli ming yil oldin yozilgan "Devonu lug'ati-t-turk"da asarida uchraydigan turkiy so'zlarning bugungi turkiy tillarda saqlanish darajasi bilan o'zbek adabiy tili va lahjalari negizida qisqacha tanishib chiqish shuni ko'rsatdiki, bu borada o'zbek tilining ayricha o'rni bor. O'zbek tili "Devon"dagi so'zlar eng ko'p saqlanib qolgan tillardan biri bo'lishining negizida ko'plab omillar yotib, ulardan biri tilimizning eng eski yozma turkiy tillardan biri bo'lmish "Xoqoniya turkchasi", ya'ni Qoraxoniylar chog'idagi adabiy turkchanning izdoshi ekanidir. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, sun'iy bir atama bo'lgan "qarluq" (aslida "eski uyg'ur") lahjasi ana shu "Xoqoniya turkchasi"ning keyingi tarmog'i bo'lgan o'zbek adabiy tilining negizini qaladi. Shu bilan birga, bugungi o'zbek tili boshqa ko'plab turkiy tillardan farqli o'laroq, eski turkchanning yirik tarmoqlari – qipchoq va o'g'uzchani ham o'z ichiga olishi tilimizda tub turkiy so'zlarning birmuncha ko'proq saqlanib qolishi uchun yana bir omil bo'ldi. Yana boshqa bir omil esa o'zbek tilining uzluksiz yozma til bo'lib kelishi bu tildagi ko'plab so'zlarning saqlanishiga olib keldi.

"Devon"da uchraydigan so'zlarning O'zbekiston bo'ylab tarqalish geografiyasida ko'z qirimizni tashlaydigan bo'lsak, yuzlab turkiy urug'larning O'rxun (Mog'uliston), Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy Turkiston va Yettisuv o'lkalaridan va Volga – Ural bo'ylaridan G'arbiy Turkistonga, ya'ni Amudaryo – Sirdaryo oralig'iga uzluksiz ko'chishlar bo'lganini kuzatamiz. Bu kabi ko'chishlar o'zbek tilida o'z izini qoldirgan bo'lib, bunga "Devonu lug'ati-t-turk" singari yozma asarlarda o'rin olgan so'zlar orqali taniq – guvoh bo'lmoqdamiz. Ushbu kichik bitigimiz – maqolamizda "Devonu lug'ati-t-turk"dagi so'zlardan birozgina so'zlarni keltirib o'tdik, holbuki asarda tilimizda bugungacha saqlanib qolgan so'zlarning ko'lami bir necha ming so'zni qamrab oladi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Ф. 1961. *Ўзбек тилининг Хоразм шевалари*. Тошкент.
- Агаджанов, С.Г. 1969. *Очерк истории огузов и туркмен Средней Азии IX–XIII вв.* Ашгабад: Илым.
- Бабаяров, Г., Кубатин А. 2014. “К вопросу о термине «92 узбекских племен» в контексте исторических связей тюркских народов”. *Global-Turk*, 2: 137-147.
- Бартольд, В.В. 1963. *Очерк истории Туркменского народа*. Сочинения, том II, часть I: 547-623. Москва: Восточная литература.
- Жўраев, Б. 1969. *Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари*. Тошкент: Фан.
- Иброҳимов, Б. 1967. *Ўзбек тилининг изоҳли Андижон шеваси*. Тошкент: Фан.
- Керейтов Р.Х. 2009. *Ногайцы*. Особенности этнической истории и бытовой культуры. Ставрополь: Сервисшкола.
- Киргизско-русский словарь*. 1985. Составитель К.К. Юдахин. Книга 1. А – К. Фрунзе.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1960. *Туркий сўзлар девони* (Девону-луғот ит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 1- том. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1963. *Туркий сўзлар девони* (Девону-луғот ит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 2- том. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, Маҳмуд. 1963. *Туркий сўзлар девони* (Девону-луғот ит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3- том. Тошкент: Фан.
- Кошғарий, Маҳмуд. 2017. *Девону-луғати-т-турк* (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- ЭСТЯ 2000 – *Этимологический словарь тюркских языков: Общeturкские и межтюркские основы на букву <Қ>*. Авт. сл. статей Л. С. Левитская, А. В. Дыбо, В. И. Рассадин. Москва.
- Қораев, С. 2005. *Ўзбекистон вилоятлари топонимлари*. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Маликов, А.М. 2018. *Тюркские этнонимы и этнонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.)*. Ташкент: Muharrir nashriyoti.
- Муҳаммаджонов, Қ. 1983. *Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси*. Тошкент: Фан.
- Нафасов, Т. 2011. *Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати*. Тошкент: Муҳаррир.
- Тўйчибоев, Б., Қашқирли Қ. 2012. *Зоминнинг тил қомуси*. Тошкент: Akademnashr.
- ЎТИЛ 2006 – *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилдли, А – Д. А. Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент.
- ЎТИЛ 2008 – *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 5 жилдли Шукрона – Ҳ. А. Мадвалиев таҳрири остида. Тошкент.

- ЎХШЛ 1971 – Ўзбек халқ шевалари луғати. Масъул муҳаррир Ш.Ш. Шоабдурахмонов. Тошкент: Фан.
- DLT 2005 – Kaşgarlı Mahmud. *Divānū Lugati't-Türk*. Çeviri, Uyarlama, Düzenleme Seçkin Erdi, Serap Tugba Yurteser. İstanbul: Kabalcı Yayınevi.
- Gülsevin, G. 2010. "Oğuzca Olmayan Türk Lehçelerindeki Oğuzca Unsurlar ve Bunlara Teorik Bir Yaklaşım". *Turkish Studies*. International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic 5(1): 57-76.
- Eratala Sevda Özen. 2019. "Terzilik Terimleri Bağlamında Divan-ü Lûgat-it-Türk'te Alet Adları", *Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi* 6 (3): 1769-1785.
- Karahan, A. 2015. "Dīvānū Luġāti't-Türk'e Göre Oğuzca". *5. Uluslararası Türkiyat Araştırmaları Sempozyumu Oğuzlar: Dilleri, Tarihleri ve Kültürleri*. Editörler Tufan GÜNDÜZ Mikail CENGİZ. Ankara.
- Rybatzki, W. 2013. Some Mongolian words in Özbek (I). Beginning with a-, â-, e-, b-, p-, d-, t-. H. Şirin, B. Gül (eds). Yalım Kaya Bitigi. Osman Fikri Setkaya Armağanı. *Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları*, 511-532. Ankara.
- User, Ş. H. 2009. *Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları*. Söz Varlığı İncelemesi. 1. Baskı. Konya: Kömen Yayınları.

On preservation of words from “Diwan Luyat at-Turk” in Uzbek dialects

Gaybulla Babayarov¹

Abstract

The article focuses on the level of preservation of several dozen words mentioned in Mahmud Kashgari's "Diwan Luyat at-Turk" (Dictionary of Turkic words) in the Uzbek language and dialects. The Uzbek language includes dialects such as Qarluq, Kipchak, and Oghuz, each of which has preserved the old Turkic words from "Diwan" to one degree or another. One of the unique aspects of the Uzbek language is that it has three main dialects, that these branches have been continuously mixed for many ears, and on the other hand, that it has had a written literary language for almost a thousand ears, the ancient words of our language motivated to preserve

¹ Gaybulla B. Babayarov – Doctor of Historical Sciences, Associate Professor, National Archaeological Center of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: gaybullah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-3405-4325

For citation: Babayarov, G. B. 2022. "On preservation of words from "Diwan Luyat at-Turk" in Uzbek dialects". *Golden scripts* 2: 90–111.

it somewhat better. Also, the fact that all three networks are somewhat far from their old core has led to the preservation of their old differences. Uzbek language is one of the languages with the most preserved words from "Divan" and there are many other factors, one of them is one of the oldest written Turkic languages of our language, "Haqaniya Turkic", i.e. he is a follower of literary Turkic during the Karakhanids.

Key words: *Uzbek, Turkic languages, Old Turkic, Qarluq, Kipchak, Oghuz, Khorezm, Amudarya, Syrdarya.*

References

- Abdullaev, F. 1961. *O'zbek tilining Xorazm shevalari*. Toshkent.
- Agadjanov, S.G. 1969. *Ocherk istorii oguzov i turkmen Sredney Azii IX–XIII vv.* Ashgabad: Илим.
- Babayarov, G., Kubatin A. 2014. "K voprosu o termine «92 uzbekskix plemen» v kontekste istoricheskix svyazey tyurkskix narodov". *Global-Turk*, 2: 137-147.
- Bartold, V.V. 1963. *Ocherk istorii Turkmenskogo naroda*. Sochineniya, tom II, chast I: 547-623. Moskva: Vostochnaya literatura.
- Jo'raev, B. 1969. *Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari*. Toshkent: Fan.
- Ibrohimov, B. 1967. *O'zbek tilining izohli Andijon shevasi*. Toshkent: Fan.
- Kereytov R.X. 2009. *Nogaysy. Osobennosti etnicheskoy istorii i bytovoy kul'tury*. Stavropol: Servisshkola.
- Kirgizsko-russkiy slovar*. 1985. Sostavitel K.K. Yudaxin. Kniga 1. A – K. Frunze.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1960. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'ot it-turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 1- tom. Toshkent: Fan.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'ot it-turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 2- tom. Toshkent: Fan.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1963. *Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'ot it-turk)*. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3- tom. Toshkent: Fan.
- Koshg'ariy, Mahmud. 2017. *Devonu-lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni)*. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- ESTYa 2000 – *Etimologicheskii slovar tyurkskix yazykov: Obshchetyurkskie i mejtyurkskie osnovy na bukvu 'Q'*. Avt. sl. statey L. S. Levitskaya, A. V. Dыbo, V. I. Rassadin. Moskva.
- Qoraev, S. 2005. *O'zbekiston viloyatlari toponimlari*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Malikov, A.M. 2018. *Tyurkskie etnonimy i etnotoponimy doliny Zerafshana (XVIII – nachalo XX v.)*. Tashkent: Muharrir nashriyoti.
- Muhammadjonov, Q. 1983. *Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari*

morfologiyasi. Toshkent: Fan.

- Nafasov, T. 2011. *Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari lug'ati*. Toshkent: Muharrir.
- To'ychiboev, B., Qashqirli Q. 2012. *Zominning til qomusi*. Toshkent: Akademnashr.
- O'TIL* 2006 – *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildli, A – D. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent.
- O'TIL* 2008 – *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildli Shukrona – H. A. Madvaliev tahriri ostida. Toshkent.
- O'XShL* 1971 – *O'zbek xalq shevalari lug'ati*. Mas'ul muharrir Sh.Sh. Shoabdurahmonov. Toshkent: Fan.
- DLT 2005 – Kaşgarlı Mahmud. *Divānū Lugati't-Türk*. Çeviri, Uyarlama, Düzenleme Seçkin Erdi, Serap Tugba Yurteser. İstanbul: Kabalcı Yayınevi.
- Gülsevin, G. 2010. "Oğuzca Olmayan Türk Lehçelerindeki Oğuzca Unsurlar ve Bunlara Teorik Bir Yaklaşım". *Turkish Studies*. International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic 5(1): 57-76.
- Eratala Sevdâ Özen. 2019. "Terzilik Terimleri Bağlamında Divan-ü Lûgat-it-Türk'te Alet Adları", *Akademik Tarih ve Düşünce Dergisi* 6 (3): 1769-1785.
- Karahan, A. 2015. "Divānū Luġāti't-Türk'e Göre Oğuzca". *5. Uluslararası Türkiyat Araştırmaları Sempozyumu Oğuzlar: Dilleri, Tarihleri ve Kültürleri*. Editörler Tufan Gündüz Mikail Cengiz. Ankara.
- Rybatzki, W. 2013. Some Mongolian words in Özbek (I). Beginning with a-, â-, e-, b-, p-, d-, t-. H. Şirin, B. Gül (eds). Yalım Kaya Bitigi. Osman Fikri Setkaya Armağanı. *Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü Yayınları*, 511-532. Ankara.
- User, Ş. H. 2009. *Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları*. Söz Varlığı İncelemesi. 1. Baskı. Konya: Kömen Yayınları.

Shoir taxallusining nutq subyektiga munosabati

(Alisher Navoiy g'azallari misolida)

Mardon Rahmatov¹

Abstrakt

Maqolada nutq lingvistikasining markaziy kategoriyalaridan sanalgan nutq egasi/yaratuvchisi va uning (nutq) subyektini tahlil etiladi. Lirik asarlar lingvistik tahlilida mazkur kategoriyalarning she'riy matnda til belgilari yordamida shakllantirilishi, ularning o'zaro birligi va farqli jihatlariga e'tibor qaratiladi. Sharq she'riyatida an'anaga muvofiq g'azallar matniga maxsus kiritilgan taxalluslar va nutq subyektini har doim ham bir-biriga muvofiq kelavermaydi, ko'pincha ular orasida ma'lum farqlar, nomuvofiqliklar kuzatiladi. Nutq subyektini kategoriyasining nutq egasiga (shoirning taxallusiga) munosabati masalasiga oydinlik kiritish lirik matnning nutq strukturasi maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *she'riy nutq, nutq subyektini, ichki nutq subyektini, tashqi nutq subyektini, nutq egasi, lirik qahramon, lirik subyektini, taxallus, onomastika.*

Kirish

Nutq aktining moddiy-lingvistik ifodasi bo'lmish jumla nisbatan mustaqil sanalsa-da, u o'z egasi, yaratuvchisi bilan o'z aloqasini saqlab qoladi, chunki har qanday nutq, jumla nutq faoliyatining natijasi sifatida ro'yobga chiqadi va, albatta, u kimgadir tegishli, kimdir tomonidan yaratilgan bo'ladi. Bu aloqadorlik, birinchi navbatda, nutq/jumlaning ifoda shakllarida saqlanib qoladi. Ya'ni har qanday jumlada nutq egasi va nutq o'rtasida vositachi – nutq egasining jumla/nutqdagi vakili ishtirok etadi. U lirik subyekt (qahramon)dir. Lirik subyektini nutq subyektining bir ko'rinishidir. Badiiy matn/lirik asarlarning lingvistik tahlilida – nutq jarayoni

¹ *Rahmatov Mardon Mehmonovich* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: mardonrahmat@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9238-2541

Iqtibos uchun: Rahmatov, M. M. 2022. "Shoir taxallusining nutq subyektiga munosabati (Alisher Navoiy g'azallari misolida)". *Oltin bitiglar* 2: 112-125.

ishtirokchilari maqomini belgilashda nutq egasidan ko'ra nutq subyektini kategoriyasining o'rni muhimdir.

Lirika badiiy nutqning bir ko'rinishi sifatida, shubhasiz, unda nutq egasi – shoir shaxsining subyekt kechinmalari yotadi. Nutq egasi o'zining his-tuyg'ularini, o'y-xayollarini lirik asarda badiiy ifodalar ekan, birinchi navbatda, o'zining subyektiv pozitsiyasini, shaxsiyatini birinchi planga chiqaradi, natijada asardagi barcha narsa uning shaxsiyati orqali beriladi va o'quvchi tomonidan qabul qilinadi va anglanadi. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda lirik asarning avtopsixologik bo'lishi, ayni chog'da, lirik subyekt bilan biografik shoir har doim ham bir-biriga teng kelmasligi, lirik subyekt shoirning lirik "men"i fonida, ayni zamonda shoir shaxsidan uzilgan holda mustaqil harakatlanish imkoniga ega bo'lgan yetakchi lirik obraz [Quronov 2013, 18-20] ekanligi qayd qilinadi. Shuning uchun lirik asarlarning nutq subyektini borasida gap borganda ko'pchilik tadqiqotchilar lirik qahramonni nutqning subyekt ko'rinishlaridan biri sifatida qarashadi va lirik asar subyektlarini ikki turga ajratishadi: *tashqi nutq subyektini va ichki nutq subyektini* kabi [Kovtunova 1986, 20].

Lirik asar muallifi, ya'ni nutq egasi – *tashqi nutq subyektini* sanalsa, matn strukturasi elementlari ma'nosidan anglashiladigan so'zlovchi, ya'ni lirik qahramon *ichki nutq subyektidir*. O'quvchi uchun tashqi nutq subyektini u qadar muhim emas, muhimi – ichki nutq subyektini (lirik asarlardagi lirik – subyekt//qahramon)ning bayon qilayotgan lirik kechinmalari, uning shoir nomidan, shoir tilidan gapira olishi va uning boshqa cheksiz poetik imkoniyatlari.

Lirik asarlar tahlilida lirik qahramon asarning lirik subyektini sifatida muallifga teng kelishi, ba'zan matnda boshqa bir poetik shaxslar, obrazlar sifatida o'zini namoyon qila olishi eng muhim va alohida e'tibor talab qiladigan nuqtalar sanaladi.

Ma'lumki, Sharq she'riyatining g'azalnavislik an'anasiga muvofiq har bir shoir g'azal oxirida – maqtasida o'z shaxsini qayd qilish yoki unga ishora qilish, o'z shaxsini ta'kidlash uchun taxallus qo'llaydi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, taxalluslar tarixan she'r muallifini ko'rsatib turuvchi o'ziga xos imzo, tamg'a [Quronov 2013, 168]. Lingvisik tadqiqotlarda taxalluslar tilshunoslikning nomshunoslik aspektida onomastik birlik sifatida o'rganilgan [Nuritdinova 2005, 20]. Ammo uning nutq strukturasi bo'yicha o'rni, kommunikativlikka munosabati bilan bog'liq jihatlari tadqiq qilinmay kelayotir. Shuning uchun biz ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan, bevosita shoir shaxsini ifodalaydigan

“Navoiy” taxallusi va uning nutq subyektiga munosabati bilan bog‘liq ayrim mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz.

Ma’lumki, tilshunoslikda atoqli otlarga ichi bo‘sh so‘zlar sifatida qaraladi va ...ular faqat narsa otlarini (shaxslarni R.M.) bir-biridan ajratish uchun qo‘llanadi va ularning konkret ma’nosi kontekstda namoyon bo‘ladi [Hakimov 2001, 66], g‘azalarda esa taxalluslar poetik shaxs – nutq egasini aniqlashtiruvchi nom. Shuningdek, an’anaviy poetik asarlarda qo‘llangan taxalluslarning poetik vazifa bajarishi, shoirlar ulardan poetik tasvir yaratish, obrazlilikni, badiiylikni ta’minlashda keng foydalanishganligini ham ta’kidlash zarur bo‘ladi.

Shoirlar she’riy jumla strukturasidan to‘rin olgan onoamastik birlik – taxalluslarning ikki turidan keng foydalanishadi: biri shoirning o‘ziga o‘zi murojaati (o‘ziga “sen” deb murojaat qilishi), ikkinchisi esa o‘zidan begonalashtirilgan ko‘rinishi.

1) taxallus – onomastik birlik – o‘ziga o‘zi murojaat.

*Chek, Navoiy, nola, ko‘z may bersunu bag‘rim kabob,
Chun bo‘lur ul oy xayoli bizga mehmon har kecha* (G‘S 530).

2) taxallus – nom – begona, uchinchi bir shaxs:

*Navoiy gulshanining nargisi nujum o‘lg‘ay,
Ko‘z uchidin anga qilsang hisob vaqti nigoh* (G‘S 521).

Shubhasiz, taxallus mazmun mohiyati bilan shoir “men”ini ifodalashga xizmat qilgan, ammo u she’rdagi shunchaki shoir “men”i emas, balki shoir tomonidan badiiy ishlov berilgan lirik “men”.

Shunisi e’tiborliki, Alisher Navoiy nutq egasi sifatida g‘azal maqtasida o‘z shaxsini taxallus yordamida ochiqlar ekan, hech qachon o‘zini “men” deb ko‘rsatmaydi (“men Navoiyman” demaydi). Shoir o‘ziga taxallusi orqali murojaat qiladi, ikkinchi shaxsga, ya’ni suhbatdoshiga murojaat qilganday, o‘zini “sen” yoki “u” deb ataydi (Bu esa o‘quvchiga uni nutq egasi sifatida emas, balki chetdan turib kuzatuvchi shaxs illyuziyasini, ya’ni poetik shaxs sifatida tasavvur qilishiga imkonini beradi). Poetik “sen” ko‘p ma’noli: u yaqin suhbatdosh yoki lirik subyekt “sen” deb murojaat qila oladigan har qanday obyekt bo‘lishi mumkin. “U” ham aslida shoirning o‘zi, lekin shoir o‘zini namoyon qilishning bir vositasi.

Deak, g‘azalning ichki struktura elementlari “sen” yoki “u” shoirning o‘z nutqidan o‘zini uzoqlashtiradi/begonalashtiradi va ayni paytda shu usul o‘zining “men”ini ham namoyon qilish imkonini beradi. Shoirning matnda o‘zini o‘zidan begonalashtirishi orqali

o'ziga keng poetik imkoniyatlar yo'lini ochadi, o'zi haqida erkin bayon qilish imkonini yaratadi:

“Sen” = Navoiy – “Sen” shoirning eng yaqin suhbatdoshi, u – shoir, u – shoir nazarda tutgan ehtimoliy adresatlar.

“U” = Navoiy: “U” lirik subyekt shoirning o'zi haqida so'zlay olishi.

Nutq subyekt (lirik subyekt) + jumla subyekt + Navoiy taxallusi munosabatlari va ularning ifodalanishi.

1. “Men”= “u” (Navoiy).

Ta'kidlanganidek, shoir va matn orasida turuvchi nutqiy subyekt – lirik subyekt birinchi shaxsda gapirsa, u so'zlovchi: lirik subyekt kechinmalarini bayon qiluvchi shaxs; u kuzatuvchi: lirik subyekt kechinmalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, kuzatgan; u lirik asarning tasvir markazi. U Navoiyga begona emas, uni yaqindan biladigan, uning ahvolidan doim xabardor bo'lgan lirik obraz. Shuning uchun o'zini “men” deb ko'rsatadi. Demak, bunda birinchi shaxs kuzatuvchi-so'zlovchi ichki nutq subyekt, ammo taxallus orqali anglanadigan shaxs ma'nosi “u” esa tashqi nutq subyekt – muallifdir. Ya'ni tashqi subyekt lirik matndagi taxallus “u” (Navoiy) orqali idrok qilinadi.

Lirik birinchi shaxsda so'zlasa, uning mazmunida nutq subyektining har ikkala turi: nutq egasi va lirik qahramon ma'nosi mujassamlashgan bo'ladi. Masalan: *eshiturmen, anglamaydurmen*. Lirik qahramon birinchi shaxsda so'zlaganda jumla predikatining shaxs-son shakllari (1 shaxs, birlik) mazmunidan ularni birga anglash imkonini ham beradi. Boshqacha aytganda, bunday she'riy jumlalarda nutq egasi/subyekt ma'nosi predikativlik shakllarida qavatlangan bo'ladi. (Bunday she'riy jumla tarkibidagi taxallus va jumla predikati grammatik shaxs-sonda mos bo'lmasa ham (“men”=“u” – Navoiy), nutq egasi/subyekt ma'nosi predikativlik shakllari va taxallus orqali anglashilaveradi). She'riy jumla tarkibidagi onamastik birlik – taxallus uning shaxsini ochiqleydigan bosh marker sanaladi. Masalan:

Navoiy telbarab to ul pariy ko'yiga yuzlanmish,

Eshiturmen fig'on, lekin hadisin anglamaydurmen (G'S 452).

Ya'ni: lirik qahramon “men” “u” – Navoiy haqida so'zlayapti: «*Navoiy telbalanib u parining ko'yiga yuzlangan vaqtda men uning dardu fig'onini eshitar edim, lekin so'zlarini anglamas edim*».

Taxallusning lug'aviy ma'nosidan ma'lumki, g'azal Navoiy qalamiga mansub, lirik qahramon ham, ishq, ishq dardi ham, ishq

iztirobi ham uniki. Lekin shoir o'zining lirik kechinmalarini (g'azal muallifi sifatida shaxsiga oid ma'lumotlarni) bayon qilishda g'azal matnidagi taxallus – "u"ndan ham unumli foydalangan va o'zining lirik "men"ini ifodalagan. "Navoiy"ining g'azalda ifodalangan lirik subyektining kechinmalari, ruhiy holatlariga munosabati turlicha: ba'zan lirik qahramon "Navoiy"ni u yoki bu tasvir predmetining ishtirokchisi bo'lishga undasa, yoki unga da'vat qilsa, ba'zan lirik tasvirlarda Navoiy (nutq egasi)ning ishtiroki mutlaqo sezilmaydi, o'quvchida go'yoki u nutq doirasidan tashqaridagi boshqa uchinchi bir shaxsday tasavvur uyg'otadi. Aslida tasvirga olingan barcha kechinmalar: hodisalar, ruhiy holatlar, uning atrofida sodir bo'layotgan bo'ladi va oxir oqibat ularning hammasi shoirning lirik "men"ida kesishadi:

*Ul quyosh hajrinda bilmankim, Navoiy ko'ziga
Barcha olam tiyradur yo bog'lamishdur chashmband (G'S 121).*

Ya'ni: lirik qahramon "men" "u" esa Navoiy, poetik qahramon. «*U quyosh (yor)ning hajrida Navoiy ko'ziga butun olam qorong'i ko'rinadi, bilmayman: u ko'ziga chashmband bog'laganmikan?*».

Lirik qahramon birinchi shaxsda so'zlaganda u emotsional-likka to'yintirilgan bo'ladi. Chunki unda shoir o'zining lirik kechinmalarini o'z tili, hissiyotlariga berilgan holda bayon qiladi.

2. "Sen" = "u" (Navoiy).

Baytda lirik qahramon suhbatdoshigaga *sen* deb murojat qiladi va unga "u" - Navoiy haqida gapiradi, u haqidagi fikr-mulohazalarni bayon qiladi, o'z navbatida, "u"nga (uchinchi shaxsiga) maslahat beradi, nasihat qiladi yoki "u"ni biror bir faoliyatga undaydi. Lirik qahramon "u" – Navoiyni yaxshi biladi, uning ruhiy holati, ichki dunyosi bilan yaxshi tanish, shuning uchun uning tasvirlari, Navoiy haqidagi chizgilari g'ayritabiiy emas. Lekin she'rxon baytda qo'llangan onomastik birlik ma'nosi orqali Navoiyning nutq egasi sifatida emas, balki uni ko'proq badiiylikka xizmat qiladigan, lirik qahramon ta'riflayotgan manba, fikr manbasi sifatida anglaydi. Bundan Navoiy ijodkor shaxs sifatida anglansa ham, g'azalning ichki strukturasi uni o'z nutqidan begonalashtiradi va g'azalda uchinchi bir ishtirokchi (lirik qahramon, o'quvchi/adresatdan boshqa) shaxs sifatida gavdalanadi, lekin bu poetik shaxs (tasvir obyekti) sifatida she'rxon ko'z oldida boshqa nutq ishtirokchilardan ko'ra aniqroq, yaqqolroq his qilinadi: u, albatta, baytdagi taxallus va uning nutq egasiga ishora qilinishi bilan bog'liq:

Tiyg' ila dushvor aylabsen Navoiy qatlini,

Chehradin burqa'ni olg'ilkim, base oson erur [G'S 154].

Ya'ni: lirik qahramon – so'zlovchi. Lirik murojaat yo'llangan shaxs, suhbatdoshi esa “sen” “u” esa Navoiy, tasvir obyekt (yoki nutq predmeti): «*Sen tig' bilan Navoiy o'limini qiyinlashtiribsan, yuzingdan niqobingni ol, bas, bu juda oson*».

Ta'kidlash o'rinliki, ba'zan bunday satrlarda ustuvorlik lirik subyekt tomonda qoladi va Navoiy ko'proq poetik shaxs sifatida gavdalanadi, uning nutq subyekt sifatidagi maqomi sayozlashadi yoki butunlay inkor etiladi:

*Fano yo'lida Navoiyg'a bo'lmading hamrah,
Bu dasht po'yasidin, zohido, magar tolding [G'S 360].*

Agar lirik qahramon bayt mazmunidan kelib chiqqan holda ikkinchi shaxsga, turli shaxs va narsalarga, murojaat qilsa, suhbatdoshi bilan nutq doirasidagi uchinchi shaxs, ya'ni Navoiy haqida gaplashishda davom etaveradi. Bu usul suhbatdoshning tasvir obyekt – Navoiy haqida to'la ma'lumotga ega bo'lishga, u haqida fikr yuritishga keng imkon yaratadi va murojaat obyektini ma'lum bir xatti-harakatni bajarishga yoki biror bir faoliyatning amalga oshirishga undaydi. Bu turdagi baytlarda ham matnning ichki tuzilishiga ko'ra nutq egasi va lirik qahramon orasidagi munosabatlarda ma'lum farqlar kuzatiladi: faollik ichki nutq subyekt, lirik subyektda saqlanib qolaveradi:

*Ushshoq aro, yo rabki, Navoiyga maqome
Bergilki, sening hamdinga bo'lsun tili go'yo [G'S 3].*

Lirik qahramon – so'zlovchi. Lirik murojaat yo'llangan obyekt – “yo rab” – sen, “u” esa Navoiy – nutq predmeti: «*Yo Rab, oshiqqlaring ichida Navoiyga shunday bir maqom berginki, sening hamdingni aytishda uning tili go'yo bo'lsin*». Yoki:

*Ey pariy, debsen Navoiy bor emish Majnun kebi,
Bir yo'li ul telbani qaydin xiradmand aylading [G'S 361].*

Ya'ni: nutq subyekt ma'lum – so'zlovchi, lirik subyekt, nutq obyekt ma'lum – “ey pari”; nutq predmeti ma'lum – Navoiy: «*Ey pari, sen Navoiyni Majnunsifat edi debsan, qanday qilib sen bir yo'la u telbaning aqlini kiritding*».

3. “U” = “u” (Navoiy).

Agar lirik qahramon bayt mazmunidan kelib chiqqan holda uchinchi shaxsda “Navoiy” haqida so'zlasa, shoir o'zi haqida kengroq va ko'proq ma'lumot berish imkoniga ega bo'ladi. Bu usul

lirik qahramonning Navoiy (shaxsi) haqidagi to'la ma'lumotga ega ekanligini ma'lum qiladi va u haqdagi ma'lumotlarni va fikr-mulohazalarini bayon qilish imkonini beradi. Bu turdagi baytlarda ham matnning ichki tuzilishiga ko'ra nutq egasi va lirik qahramon orasidagi munosabatlarda so'zlovchi sifatida faollik lirik qahramonda saqlanib qoladi. Masalan:

Topmayin lazzat Navoiy soldi ko'zdin ashkdek

Bodani to xusravi sohibqiron ko'rmas laziz (G'S 129).

Ya'ni: *Navoiy lazzat topmagani uchun sultoni sohibqiron mazali emas ekan demasligi uchun ko'zidan ko'z yoshidek bodani sold*".

Lirik qahramonning uchinchi shaxsda boshqa obyekt – Navoiy haqidagi ma'lumotlarni, axborotlarni taqdim etish imkoniyatlari g'azalxon o'quvchining g'azalning g'oyasi va mohiyatini anglashida muhim rol o'ynaydi.

O'ziga o'zi murojaat baytlarida ***nutq subyekti (lirik subyekt)+jumla subyekti+Navoiy taxallusi*** munosabatlari.

O'ziga o'zi murojaat baytlarida ham lirik qahramon har uchala shaxsda Navoiy haqida so'zlaydi:

1. Navoiy – “men”.

Nutq egasi, shoir – ya'ni matn yaratuvchi nutqiy subyekt. U o'zini ta'kidlash, shaxsini ko'rsatish uchun maqta baytda o'zida Alisher Navoiy shaxsini mujassamlashtirgan Navoiy taxallusini qo'llaydi. Shoir aksariyat hollarda o'ziga o'zi “Ey Navoiy” deb murojaat qiladi. Shu tarzda shoir lirik “sen” bilan munosabat o'rnatadi. Bunday tasvirlarda ham murojaat shakli, lirik “sen” aslida shoir “men”ga teng, nutq egasi va nutq predmeti o'rtasidagi bunday munosabatlar (bog'liqlik) qanchalik zich bo'lmasin, grammatik “sen” nutqning haqiqiy egasidan tashqari tinglovchi shaxs ma'nosini ham ifodalashda davom etaveradi. Nutq egasi shu tarzda o'z shaxsini matndan uzoqlashtiradi yoki o'zining subyekt ma'nosini xiralashtiradi. Ba'zan murojaat shakli va jumla subyekti “sen” ma'nosi favqulotda kengayib, boshqalarga murojaat ma'nosini ham ifoda qila boshlaydi. Bu murojaat ma'nosi o'zining maslakdoshlariga, ba'zan keng she'rxonlar ommasiga ham daxldor bo'lishi ham mumkin:

Ey Navoiy, ul quyosh vaslin gadolig' qilg'ali

Zohir aylabmen sarig'lig' dalqu gardunvor qad (G'S 123).

Bayt mazmunidan anglashiladiki, mazkur baytda shoir o'zini – Navoiyni murojaat obyektiga aylantiradi va unga o'zi haqida so'zlaydi: «*Ey Navoiy, ul quyosh vaslini tilab olish uchun sariq to'nu gardunvor qad zohir qildim*».

Yuqorida ta'kidlagandek, bunday she'riy jumalalarda lirik qahramon va jumlaning predikativlik shakllari bir-biriga mos kelmaydi, "men" "sen"ga – Navoiy (nutq predmeti)ga murojaat qiladi. Bu usul lirik subyekt (birinchi shaxs)ning real suhbatdoshiga arzi hol qilishga, o'zining ruhiy, emotsional holati, kayfiyati va boshqa ma'lumotlarni bayon qilishga keng imkoniyat yaratib beradi.

1. **Navoiy – "sen"**. G'azallarda shunday maqta baytlar borki, ularda ichki va tashqi nutq subyektlari grammatik jihatdan teng keladi va murojaat obyektini aniq ifodalanadi: Navoiy (murojaat shakli) – sen (grammatik shakl ma'nosi). Biroq bunday baytlar mazmunida ham "Navoiy" nutq doirasidagi boshqa bir shaxs (suhbatdosh) sifatida gavdalanadi. "Navoiy" nutqiy holatiga ko'ra nutq subyektini bo'lishga da'vogarlik qilmasa-da, lekin murojaat ma'nosining "sen" "men"ga tengligi uning o'ziga o'zi murojaat shakli ekanligiga guvohlik beradi:

Ey Navoiy, ham zamondin, ham zamona ahlidin

Har zamon g'am yetsa yuzlan kulbayi xammorg'a (G'S 563).

Ko'rinadiki, o'ziga o'zi murojaat tipidagi jumalalarda lirik qahramon lirik "sen"ga murojaat qiladi. Aslida lirik "sen", shoirning lirik "men"ini ifodalaydi. Ammo lirik "sen"ning ma'nosi keng: "sen"dan tashqari "boshqalar" ma'nosini ham ifodalay oladi ("sen"<"men"<"boshqalar"): Ya'ni: «*Ey Navoiy, qachonki ham zamondan, ham zamona ahlidan g'am (musibat) kelsa, may do'koni (kulbai xammor)ga yuzlan*».

Nutq subyektini taxallusi orqali ikkinchi shaxsga "sen" deb murojaat qiladi. Shu tarzda muallif o'zini o'z nutqidan begonalashtiradi:

Ey Navoiy, hajr zindonida jonning xavfi bor,

Qilg'asen topsang mahal, albatta sultonimg'a arz (G'S 279).

Ya'ni: «*Ey Navoiy, bilki, hajr zindonida jonning borligi xavfi bor, agar sen ayriliq zindonidan jonni topsang, albatta, mening sultonimg'a arz qil*».

Lirik qahramon nutq subyektini sifatida "Navoiy"ga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi va uni suhbatga, o'zaro muloqotga chorlaydi. Bunda murojaat yo'naltirilgan Navoiy murojaat obyektiga aylanadi. Boshqacha izohlaydigan bo'lsak, matn struktura elementlari ma'nosidan Navoiy nutq subyektini sifatida emas, balki ikkinchi bir subyekt – tinglovchi yoki lirik qahramonning suhbatdoshi sifatida ishtirok etayotgani idrok qilinadi. Shu usulda tashqi nutq subyektini o'zini matndan chetlatadi va lirik qahramonni birinchi planga

chiqaradi. Bunda murojaat yoʻllangan shaxsning poetik maʼnosi keng: u Navoiyning oʻzi yoki “Navoiylar” (boshqalar) boʻlishi mumkin (“men” < “sen” va < “ular” yoki boshqalar).

*Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yoʻli boʻlma zabun bu zoli makkor ollida* (GʻS 26).

Yaʼni: «*Ey Navoiy, agar sen erkak boʻlsang, bu dunyo kelinlarini oʻzingdan uzoqlashtir, Bu qari makkorlar oldida bir yoʻla ojiz boʻlma*».

Lirik qahramon nutq doirasidagi ikkinchi shaxsga, yaʼni “Navoiy”ga murojaat qiladi, unga arzi hol qiladi. Bunda lirik qahramonning ning “Navoiy”ga murojaatlarida “oʻziga oʻzi” maʼnosi maʼlum darajada kuchsizlanadi, lirik subyekt oʻzini “men”, Navoiyni esa “sen” deb ataydi yoki uni uchinchi bir obyekt sifatida tilga oladi. Ammo bu – soʻzlovchi va suhbatdosh orasidagi lirik masofa ularning suhbatlariga, oʻzaro fikr almashinuviga xalaqit qilmaydi. Endi tinglovchi faqat Navoiy emas, balki “Navoiylar” sifatida reallashadi.

Shoir ongi, yaʼni uning lirik “men”i aksariyat hollarda ikkinchi shaxsda reallashadi. Bu esa shoirga oʻziga oʻzi murojaat qilish, yaʼni murojaat birligi sifatida nutq subyektiga ishora qilishi oʻziga tegishli boshqa obyektlarni ham koʻrsatishi, u haqida soʻzlashi ham yoki fikri yoʻnaltirilgan boʻlishi mumkin. Masalan:

*Ey Navoiy, jism aro jon rishtasin tutqil aziz
Kim, bori loʻliyvashim laʼbi uchun asbob erur* (GʻS 140).

Yaʼni: «*Ey Navoiy, jismimdagi jon rishtasini aziz bilgin, chunki uning hammasi mening loʻlivashimning nayranglari uchun asbobdir*».

Nutq egasining oʻziga ikkinchi shaxs orqali murojaat qilishi yoki “oʻziga oʻzi” dan shikoyat qilishga imkon beradi, bu esa shoirning lirik kayfiyatlarini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi: “*Ey Navoiy, sen – gado/gadosan! Yoki Sensan gado!*”

*Ey Navoiy, suhbatingdin qilsa or ul koʻrkaboy,
Yoʻq ajab nevchunki sensen bir gado, ul borligʻ* (GʻS 300).

Badiiy nutqda shoirning ikkinchi shaxsda oʻziga oʻzi yoʻllagan nutqi – “oʻzi uchun nutq”i, “ichki dialogi” yoki “monologi” tabiiy nutq tarzida namoyon boʻladi va u tilshunoslikda *avtokommunikatsiya* deb yuritiladi:

*Gar desangkim jongʻa yetmay har zamon bir javrdin,
Ey Navoiy, pand eshit, yor istama bisyor shoʻx* (GʻS 109).

3. Navoiy – “u”. Agar maqtaʼ baytlar tarkibidagi jumla uchinchi

shaxsda shakllangan bo'lsa, nutq subyektlari munosabatlaridagi farqlar yaqqol seziladi. Bunday baytlarda nutq subyektlari: nutq egasi ham, uning lirik qahramoni ham o'zi haqida uchinchi shaxsda gapira oladi. "Navoiy" esa avval ta'kidlanganidek, nutq subyektlaridan tashqaridagi uchinchi bir shaxsga – tasvir obyektiga aylanadi:

*Ey Navoiy, bu xazon o'lg'ay bahor ila badal,
Kelsa davlat gulbuni shahzodayi sohibjamol (G'S 556).*

Ya'ni: «*Ey Navoiy, davlat gulbuni – shahzodai sohibjamol kelsa, bu bahor bilan badal xazon bo'ladi*».

Bunday baytlarda taxallus matn muallifi haqidagi tasavvurlarimizni to'la shakllantira olsa ham, bayt tarkibidagi grammatik shakllar uning nutq egasi ekanligini inkor qiladi, ya'ni baytning grammatik strukturasi shoirning nutq subyekti maqomi darajasini ma'lum darajada so'ndiradi: lirik "men" lirik "u"ga ko'chirilgan bo'ladi yoki lirik "u" lirik "men"ni ifodalaydi. Natijada taxallus matn doirasida badiiy nutq predmeti, uchinchi shaxslicha qoladi. Bu turdagi baytlarda ustunlik ko'proq matnning ichki nutq subyekti, lirik qahramon tomonda bo'ladi. Navoiy – nutq predmeti esa fikr manbai, g'azal formal-strukturasiidan mustahkam o'rin olgan onomastik birlik sifatida qolaveradi:

*Inoyat yomg'uri ollida daf'i sahl erur, garchi
Yog'ar idbor gardi, ey Navoiy, ro'zgorimdin (G'S 495).*

Ya'ni: «*Ey Navoiy ro'zgoimdan ibdor gardi yog'sa ham, inoyat yomg'iri oldida daf'i sahldir*».

Ma'lum bo'ladiki, agar muallif baytda o'z fikrini uchinchi shaxsda ifodalasa, nutq va uning subyektlari orasida ma'lum darajada lirik oraliq – uzilishlar kuzatiladi, biroq bu uzilish kitobxonning lirik "u"ni aslida lirik "men"ni ifodalayotgani, uni nutq egasi sifatida qabul qilishga xalaqit qilmaydi. Ularning yagona farqi matn ichki struktura elementlari orqali aks etishida, xolos.

*Ey Navoiy, zor jisming nola qilmas za'fdin
Uylakim, sust o'lsa, un bo'lmas mug'anniy torida (G'S 552).*

Ya'ni: «*Ey Navoiy, kasallikdan zor jisming nola qila olmaydi, shundayki, agar mug'anniy tori sust tortilgan bo'lsa un bo'lmaydi*».

Shuningdek, o'ziga o'zi murojaat baytlarida Navoiyning lirik qahramoni shunchaki faktlarni keltirishi, arzi hol qilishi yoki lirik subyekt kechinmalari tasviri bilan cheklanishi mumkin. Bunday

murojaat shakllari ma'nosi orqali Navoiyning nutq doirasida bo'lgan boshqa ishtirokchilar qatorida turganligi yoki ulardan biri ekanligi haqida tasavvur uyg'otadi. Bunday jumlar rasman uchinchi shaxsda mazmunan esa ham uchinchi shaxsga, ham ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi:

*Ey Navoiy, asru ravshan erdi hajrim shomikim,
Tiyra ohimdin qoraroq ham qilur hijronni dud (G'S 125).*

Ya'ni: *"Ey Navoiy, hajrim shomi juda ravshan edi. Zero, dud hijronni qora ohimdan ham qoraroq qiladi"*.

Y. Is'hoqov ham shoir taxallusining grammatik uchinchi shaxs shaklidagi ifodasini poetik usul sifatida baholaydi: "Shoirning she'rda o'z nomi yoki taxallusini uchinchi shaxs sifatida tasvirlashi poetik usul bo'lib, ...she'rdagi tasvirga ma'lum darajada obyektivlik bag'ishlab, shoirni individual shaxs emas, balki umumlashgan lirik qahramon sifatida gavdalantiradi [Is'hoqov, 1983. 72]. N.Bozorovning qayd etishicha, g'azallarda taxalluslardan tashqari boshqa ba'zi bir obrazlar, xususan, ko'ngil obrazi ham shoir shaxsi, uning ichki "men"ini ifodalay olishini aytadi: "ayrim obrazlarni shoir «men»iga taalluqli... ayrim badiiy tasvirlardan, xususan, ko'ngil tasvirlaridan Navoiy shaxsini, uning tuyg'u dunyosini, fikr-mulohazalarini, hayot falsafasini yorqin anglash mumkin. U g'azallarida o'zining eng hayajonli va ta'sirli maqsad-muddaolarini aksariyat paytda ko'ngil obrazi orqali yoritishga erishgan. Lirik «men» – ko'ngilga murojaat qilib u bilan suhbat quradi. Shuning uchun ham uning ijodidagi ko'ngil ko'p hollarda shoir shaxsi, ichki «men»ining asosi ularda ko'zga tashlanadi [Bozorova 2002, 84].

*Ishq agar bo'lsa gunah menmen gunahkor, ey ko'ngul,
Tonmog'im nohaqdurur bu ishda chun haqdur guvah (G'S 569).*

*Hajr aro istar jamoling ham Navoiy, ham ko'ngul
Kim, tilarlar tiyra tunlarda gadovu shoh sham' (G'S 293).*

Xulosa

Nutq egasi va nutq subyektining o'zaro hamkorligi nutq yaratish jarayonini belgilab beruvchi muhim omil sanaladi, rangorang nutq turlari, nutq janrlari va funksional uslublarning yuzaga kelishini belgilab beradi.

Navoiy taxallusi shunchaki nutq egasi emas balki she'riy matnning tarkibiy qismidir.

G'azallarda nutq egasi – Navoiy ta'allusi grammatik jihatdan ikkinchi shaxs – *sen*, uchinchi shaxs – *u* ma'nosiga ega.

Shoir taxallusinging ikkinchi shaxsdagi ko'inishi mazmunan o'ziga o'zi murojaat (avtokommunikatsiya), ba'zan umumiy ma'noda qo'llangan. Bu poetik usul o'ziga yaqin deb bilan barcha narsa va predmetlarga qarata qarata qo'llashga imkon yaratgan. Shoirning poetik murojaatlari mazmunan kitobxon tasavvur qila oladigan obyektlarni qamrab ola olgan.

G'azallar matnida qo'llangan ayrim murojaat shakllarining kommunikativ xususiyati nafaqat shoir, balki undan boshqa shaxslarga – tashqi adresatlarga murojaati ma'nosi mavjud bo'lib, bu kommunikativ orientatsiyaning ko'p qirraligini ifodalaydi. Bu – *avtokommunikatsiya*.

Lirik qahramon birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxslarda erkin Navoiyga murojaat qiladi. Birinchi shaxsda o'z hissiyotlari haqida, ikkinchi shaxsda o'ziga o'zi murojaatlari bayon qilingan bo'lsa, uchinchi shaxsda o'zining lirik holati haqida axborot berishni ko'zlovchi lirik jumalardan tashkil topgan.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. III жилд. Тошкент: Фан.
- Қуронов, Д. ва б. 2013. *Адабиётшунослик луғати*. Тошкент: Akademnashr.
- Ковтунова, И. 1986. *Поэтический синтаксис*. Москва: Наука.
- Нуритдинова, Р. 2005. *Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили*. Филол.ф.н. ... дисс. автореф. Тошкент.
- Ҳакимов, М. 2001. *Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини*. Филол. ф. д... дисс. Тошкент.
- Исҳоқов, Ё. 1983. *Навоий поэтикаси* ("Ҳазойин-ул маоний" асосида). Тошкент: Фан.
- Бозорова, Н. 2002. *Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи*. Филол. ф. номз... дисс. Тошкент.
- Бегматов, Э. 2013. *Ўзбек тили антропонимикаси*. Тошкент: Фан.
- Rakhmatov, M. 2022. *Address and adresse in alisher navoi's lyrics*. Current research journal of philological sciences. 03:/07. 11-16.
- Исҳоқов, Ё. 2014. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Навоий, А. 1992. *Ғаройиб ус-сиғар*. МАТ, III жилд. Тошкент: Фан.
- Раҳмонов, В. 2015. *Мумтоз сўз сеҳри*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Сирожиддинов, Ш. 2011. *Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили*. Тошкент: Академнашр.
- Тўйчиев, У. 2011. *Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари*. Тошкент: Янги аср авлоди.
- Муллаҳўжаева К. 2005. *Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги* («Бадоеъ ул-бидоя» девони асосида). Филол.ф.н...дисс. Тошкент.

The relationship between the subject of speech and the image of Navoi

Mardon Rahmatov¹

Abstrakt

The article analyzes the producer of speech and its (speech) subject, which are among the central categories of speech linguistics. In the linguistic analysis of lyrical works, attention is paid to the formation of these categories in a poetic text with the help of linguistic signs, their mutual unity and difference. In Eastern poetry, according to tradition, nicknames and the subject of speech, which are specifically included in the text of ghazals as a speaker, do not always correspond to each other, there are certain differences and inconsistencies between them. Clarification of the relationship of the subject category of speech to the addressee (the pseudonym of the poet) is important in determining the status of the speech structure of the lyrical text.

Key words: *poetic speech, subject of speech, internal subject of speech, external subject of speech, speech producer, lyrical hero, lyrical subject, nickname, onomastics.*

References

- Rakhmatov M. 2022. *Address and addresse in alisher navoi's lyrics*. Current research journal of philological sciences. 03/07. p. 11-16.
- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati*. 1983. III Zhild. Tashkent: Fan.
- Begmatov, E. 2013. *O'zbek tili antroponimikasi*. Tashkent: Fan.
- Bazarova, N. 2002. *Alisher Navoiy gazallarida ko'ngil obrazi*. Filol.f.nomz... d i s c . Toshkent.
- Khakimov, M. 2001. *O'zbek tilida matnning pragmatik talqini*. Filol.f.d... diss. Toshkent.
- Isxhaqov, Y. 1983. *Navoiy poetikasi ("Xazoyin-ul maoniy" asosida)*. Toshkent: Fan.
- Isxhaqov, Y. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. Tashkent: O'zbekiston.
- Kovtunova, I. 1986. *Poticheskiy sintaksis*. Moskva: Nauka.
- Mullaxo'jaeva K. 2005. *Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi («Badoe' ul-bidoya» devoni asosida)*.

¹ Mardon M. Rahmatov – Candidate of Philological Sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: mardonrahmat@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9238-2541

For citation: Rahmatov, M.M. 2022. "The relationship between the subject of speech and the image of Navoi". *Golden scripts* 2: 112-125.

Filol.f.n...diss. Toshkent.

Navoi, A. 1992. *G'aroyib us-sig'ar*. MAT, III jild. Toshkent: Fan.

Nuritdinova, R. 2005. *O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili*.

Filol.f.n. ... diss. avtoref. Toshkent.

Quranov, D. va b. 2013. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.

Rakhmanov, V. 2015. *Mumtoz so'z sehri*. Toshkent: O'zbekiston.

Rakhmatov, M. 2022. *Address and adresse in alisher navoi's lyrics*. Current research journal of philological sciences. 03/07. 11-16.

Tuychiyev, U. 2011. *O'zbek adabiyotida badiylik mezonlari va ularning maromlari*. Toshkent: Yangi asr avlodi.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo‘lyozma manbalar, xalq og‘zaki ijodi namunalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo‘ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar yil davomida o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo‘yicha MS Word menejerini qo‘llash lozim.

Barcha qo‘lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

100–150 so‘zdan iborat o‘zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o‘ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transleteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany:
Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar:
Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek
matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti.
<http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni:
maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti."
Oltin bitiglar 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar 3*: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globalashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.
e-mail: goldenscripts@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 06. 2022-yilda ruxsat etildi
Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62